


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**OLY TA‘LIM TIZIMI PEDAGOG VA RAHBAR KADRLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISHNI TASHKIL
ETISH BOSH ILMIY - METODIK MARKAZI**

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ (MINTAQAVIY) MARKAZI**



« SIYOSIY MENEDJMENT »

MODULI BO‘YICHA

O‘QUV–USLUBIY MAJMUA

Toshkent 2022

Modulning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan namunaviy o‘quv reja va dasturlar asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi: O‘zDJTU, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida dotsenti,
s.f.d (PhD) Saidov S.SH.

Taqrizchilar: sots.f.d, prof. N.Latipova – O‘zbekiston milliy universiteti, sots.f.d. prof. SH.Sodiqova – O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof. S.Karimov – Samarqand davlat universiteti.

O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2020 yil “30” dekabrda 5/4-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	11
III.	NAZARIY MASHG‘UOT MATERIALLARI	14
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI	138
V.	GLOSSARIY	150
VI.	ADABIYOTLAR RO‘YXATI	159

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovasion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalari asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovasion faoliyatni rivojlantirish, pedagogning kasbiy professionalligini oshirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, «blended learning», «flipped classroom» texnologiyalarini amaliyotga keng qo‘llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Qayta tayyorlash va malaka oshirish yo‘nalishining o‘ziga xos xususiyatlari hamda dolzarb masalalaridan kelib chiqqan holda dasturda tinglovchilarning

mutaxassislik fanlar doirasidagi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar takomillashtirilishi mumkin.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: Oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kursining **maqsadi** pedagog kadrlarni innovasion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- Siyosatshunoslik yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovasion faollik darajasini oshirish;

-mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;

-maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

-Siyosatshunoslik yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovasiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

Mutaxassislik fanlari bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

- siyosiy boshqaruv va uning hususiyatlarini;
- siyosiy menedjment kategoriyasi va uning tarixini;
- davlat va jamiyat rivojlanishining umumiy tendensiyalarini;
- menedjment jarayonlarida shaxsning rolini;
- O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruvi va ijtimoiy tizimi;

- jamiyatning ijtimoiy-siyosiy tizimining mazmun-mohiyatini;
- ijtimoiy-siyosiy munosabatlar va texnologiyalar;

istiqlolga mo'ljallangan siyosiy prognozlarning mohiyatini

bilishi kerak:

- siyosiy munosabatlar va uning xususiyatlari masalalarini tahlil etish;
- zamonaviy jahon tartiboti konsepsiyalarining mohiyatini tushuntirish;
- integratsion va zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni sharhlash;
- hokimiyat uchun kurash va siyosiy manfaatlarni tahlil etish;
- O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasi va islohotlar mohiyatini o'rganish;
- siyosiy vaziyatning mohiyatini aniqlash va tahlil qilish borasidagi bilimlarni davomli mustahkamlash;
- O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi va kadrlar sohasidagi huquqiy asoslari bilan yaqindan tanishish va ularning amaliy ahamiyatini mustahkamlash kabi ***ko'nikmalariga*** ega bo'lishi lozim.
- siyosiy menedjment va ijtimoiy-siyosiy munosabatlar uzviyligini anglash;
- zamonaviy siyosiy jarayonlar va texnologiyalar masalasini ko'rib chiqishi;
- O'zbekiston Respublikasining taraqqiyot strategiyasi va uning ustuvor yo'nalish targ'ib etish;
- milliy va jahon tajribasini hisobga olgan holda davlatning imidjini shakllantirish strategiyasini yaratish borasidagi asosiy namoyondalar qarashlarni va ularning nazariy merosini tahlil etish bo'yicha ***malakalariga*** ega bo'lishi lozim.
- siyosiy tizim va ijtimoiy jarayonlarning tendensiyalari, boshqaruv va hokimiyat munosabatlarini mohiyatini targ'ib etish ***kompetensiyalariga*** ega bo'lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

Xorijiy davlatlardagi kredit ta‘lim tizimlari: Amerika Qo‘shma Shtatlari kredit tizimi (USCS), Kreditlarning to‘plash va o‘tkazishning Britaniya tizim (SATS), Yevropa kredit tizimi (ECTS), Universitet kreditlarini o‘tkazishning Osiyo - tinch okeani tizimi (UCTS). Kredit tizimi asosida ta‘lim jarayonlarini tashkil etish va uning sifatini ta‘minlashning innovasion metodlari. Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishini rejalashtirish va tashkil qilish. Kreditmodul tizimida pedagoglar faoliyati. Kredit-modul tizimida o‘quv jarayonining uslubiy ta‘minoti. Sillabus. Ta‘lim natijalari (Blum taksonomiyasi asosida). Bilim darajalari. Ta‘lim natijalarini baholash usullari.

Ta‘lim sohasini boshqarishning huquqiy asoslari. Ta‘lim sohasiga oid qonun hujjatlari va ularning mazmuni. Pedagog xodimlarning mehnat munosabatlarini tartibga solish. Ta‘lim muassasalarida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy va ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy ta‘lim tizimiga oid qabul qilgan farmonlari, qarorlari va farmoyishlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Oliy ta‘lim tizimiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlari.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining ta‘lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga oid normativ-huquqiy hujjatlari. Davlat ta‘lim standartlari, tegishli ta‘lim (mutaxassislik) yo‘nalishlari bo‘yicha davlat ta‘lim standarti, o‘quv rejalar va fan dasturlari va ularga qo‘yiladigan talablar. O‘quv rejalari va o‘quv fanlari dasturlarini takomillashtirish tamoyillari. O‘quv yuklamalarini rejalashtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish metodlari.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Siyosiy menejment”, “Xalqaro tizimlarda O‘zbekiston manfaatlari” moduli mazmuni o‘quv rejadagi “Jahon siyosati” o‘quv modullari bilan uzviy bog‘langan holda pedagoglarning ta‘lim jarayonida yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ijtimoiy ish olib borish hamda ularning ijtimoiy himoya tizimi haqida bilish va ulardan foydalanish bo‘yicha kasbiy pedagogik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Modulning oliy ta‘limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar ta‘lim jarayonida yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimi hamda ular bilan

ijtimoiy ish olib borish usullaridan foydalanish va amalda qo'llashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

Modul bo'yicha soatlar taqsimoti

№	Modul mavzulari	Auditoriya uquv yuklamasi			
		Жами	jumladan		
			Назарий	Амаий машғулот	Қўчма машғулот
1.	Siyosiy menejment fanining yo'nalishi va ijtimoiy faoliyat sifatida. Siyosiy menejmentning genezisi va bugungi holati. Siyosiy menejment nazariya va amaliyot sifatida	4	2	2	
2.	Siyosiy menejmentning turlari. Siyosiy menejmentda saylov, referendum va saylov tizimlari. Siyosiy menejmentda axborotning o'rni va ta'siri	4	2	2	
3.	Siyosiy menejmentda siyosiy kompaniya va jarayon. Siyosiy maslahatlashuvning siyosiy menejmentda tutgan o'rni. Siyosiy qaror qabul qilishning siyosiy menejmentdagi roli	4	2	2	
4.	Siyosiy jarayoni va saylov kompaniyasining o'zaro aloqadorligi va ularning siyosiy menejmentda tutgan o'rni	6	2	4	
5.	Siyosiy menejment va OAV. Boshqaruvni modellashtirish va prognozlashtirish usullari. Siyosiy jarayonlarning ayrim davlat yoki mintaqa aholisiga ta'siri va ularning o'zaro aloqadorligi	4	2	2	
6.	O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. Saylov texnologiyalari. Siyosiy kommunikasiyalar	4	2	2	
	Jami:	26	12	14	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu: Siyosiy menejment fanining yo'nalishi va ijtimoiy faoliyat sifatida. Siyosiy menejmentning genezisi va bugungi

holati. Siyosiy menejment nazariya va amaliyot sifatida (2 soat).

1. Siyosiy menejment fani va uning jamiyat hayotidagi roli.
2. Boshqaruv asoslari va moxiyati.
3. Boshqaruv modeli va uning tadrijiy rivoji.

2-mavzu: Siyosiy menejmentning turlari. Siyosiy menejmentda saylov, referendum va saylov tizimlari. Siyosiy menejmentda axborotning o‘rni va ta’siri (2soat).

1. Siyosiy kampaniya tushunchasi va mohiyati.
2. Saylovlar - siyosiy jarayonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida.
Saylov kampaniyasining tarkibiy qismlari.
3. Saylov kampaniyasi strategiyasi va taktikasi

3-mavzu: Siyosiy menejmentda siyosiy kompaniya va jarayon. Siyosiy maslahatlashuvning siyosiy menejmentda tutgan o‘rni. Siyosiy qaror qabul qilishning siyosiy menejmentdagi roli (2 soat).

1. Davlat boshqaruvi sohasida qarorlar qabul qilish.
2. Davlat siyosatini shakllantirish texnologiyalari
3. Siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining bosqichlari.

4-mavzu: Siyosiy jarayoni va saylov kompaniyasining o‘zaro aloqadorligi va ularning siyosiy menejmentda tutgan o‘rni (2 soat).

1. Zamonaviy jamiyatlarda siyosiy boshqaruvning o‘rni va roli.
2. “Siyosiy elita” tushunchasining mazmun-mohiyati. Siyosiy elitaning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar.
3. Siyosiy yetakchilik. Rollar orqali boshqarish.

5-mavzu: Siyosiy menejment va OAV. Boshqaruvni modellashtirish va prognozlashtirish usullari. Siyosiy jarayonlarning ayrim davlat yoki mintaqa aholisiga ta’siri va ularning o‘zaro aloqadorligi (2 soat).

1. Ommaviy axborot vositalari siyosiy muloqot kanali sifatida.
2. Global axborotlashuv sharoitida axborot xavfsizligini ta’minlash muammolari.
3. Davlatning axborot siyosati va ommaviy axborot vositalari.

6-mavzu: O‘zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. Saylov texnologiyalari. Siyosiy kommunikasiyalar (2 soat).

1. Siyosiy-ma'muriy boshqaruv samaradorligini baholash nazariyalari va amaliyoti.
2. Davlat hokimiyati organlarining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati samaradorligini belgilovchi mezonlar.
3. Davlat hokimiyati organlari faoliyatini samarali tashkil etishda kadrlarning o‘rni va roli.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-amaliy mashg‘ulot. Siyosiy menejment fanining yo‘nalishi va ijtimoiy faoliyat sifatida. Siyosiy menejmentning genezisi va bugungi holati. Siyosiy menejment nazariya va amaliyot sifatida (2 soat).

2-amaliy mashg‘ulot. Siyosiy menejmentning turlari. Siyosiy menejmentda saylov, referendum va saylov tizimlari. Siyosiy menejmentda axborotning o‘rni va ta’siri (2 soat).

3-amaliy mashg‘ulot. Siyosiy menejmentda siyosiy kompaniya va jarayon. Siyosiy maslahatlashuvning siyosiy menejmentda tutgan o‘rni. Siyosiy qaror qabul qilishning siyosiy menejmentdagi roli (2 soat).

4-amaliy mashg‘ulot. Siyosiy jarayoni va saylov kompaniyasining o‘zaro aloqadorligi va ularning siyosiy menejmentda tutgan o‘rni (4 soat).

5-amaliy mashg‘ulot. Siyosiy menejment va OAV. Boshqaruvni modellashtirish va prognozlashtirish usullari. Siyosiy jarayonlarning ayrim davlat yoki mintaqa aholisiga ta’siri va ularning o‘zaro aloqadorligi (2 soat).

6-amaliy mashg‘ulot. O‘zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. Saylov texnologiyalari. Siyosiy kommunikasiyalar (2 soat).

O'QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo'yicha quyidagi o'qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar (ma'lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, aqliy qiziqishni rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko'rilayotgan loyiha yechimlari bo'yicha taklif berish qobiliyatini oshirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo'yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA'LIM METODLARI

Xulosalash (Rezyume, Veyer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

jadvalni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatma materialga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Namuna:

Tahlil turlarining qiyosiy tahlili		
Tizimli tahlil	Syujetli tahlil	Vaziyatli tahlil

Afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Muammoni kelib chiqish sababli va kechish jarayonini aloqadorligi jihatidan o'rganish imkoniyatiga ega	Alohida tayyorgarlikka ega bo'lishni, ko'p vaqt ajratishni talab etadi	O'z vaqtida munosabat bildirish imkoniyatini beradi	Munosabat boshqa bir syujetga nisbatan qo'llanishga yaroqsiz	Vaziyat ishtirokchilarining (obyekt va subyekt) vazifalarini belgilab olish imkonini beradi	Dinamik xususiyatni belgilab olish uchun qo'llab bo'lmaydi

Xulosa: Tahlilning barcha turlari ham o'zining afzalligi va kamchiligi bilan bir biridan farqlanadi. Lekin, ular qatoridan pedagogik faoliyat doirasida qaror qabul qilish uchun tizimli tahlildan foydalanish joriy kamchiliklarni bartaraf etishga, mavjud resurslardan maqsadli foydalanishda afzalliklarga egaligi bilan ajralib turadi.

“FSMU” metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o‘zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma’ruza mashg‘ulotlarida, mustahkamlashda, o‘tilgan mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhliy tartibda taqdimot qilinadi.

□

□ FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

Namuna.

Fikr: *“Tizim atrof muhitdan ajralgan, u bilan yaxlit ta’sirlashuvchi, bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan elementlar majmuasi bo‘lib, tadqiqotlar obyekti sanaladi”.*

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

“Assesment” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Siyosiy menejment fanining yo‘nalishi va ijtimoiy faoliyat sifatida. Siyosiy menejmentning genezisi va bugungi holati.

Siyosiy menejment nazariya va amaliyot sifatida Reja

4. *Siyosiy menejment fani va uning jamiyat hayotidagi roli.*
5. *Boshqaruv asoslari va moxiyati.*
6. *Boshqaruv modeli va uning tadrijiy rivoji.*

1. Siyosiy menejment fani va uning jamiyat hayotidagi roli.

Jamiyatda ko‘plab ijtimoiy tizimlar - siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, ta’limiy va boshqalar mavjud. Ularning har birida boshqaruv tizimining nisbatan mustaqil elementlari shakllanadi. Siyosiy sohaga kelsak, ushbu elementlar boshqaruvning subyekti va obyekti, aloqa kanallari va nazorat vositalarini o‘z ichiga oladi.

Siyosiy boshqaruv tizimida uning barcha individual bo‘g‘inlari, kichik tizim elementlari ajralmas jarayonga birlashtirilib, uning asosiy vazifasi barcha ishtirokchilarining maqsadga muvofiq, muvofiqlashtirilgan faoliyatini ta’minlashdan iborat bo‘ladi. Zamonaviy adabiyotlarda siyosiy tizimning boshqaruv nuqtai nazaridan eng keng tarqalgan xususiyatlaridan biri quyidagilar kiradi:

- Boshqarish predmeti - boshqaruv elementi (siyosiy boshqaruv tizimining rahbari yoki siyosiy organi) ijrochilar ustidan nazoratni amalga oshiruvchi, ularning faoliyatini tashkil etuvchi, tartibga soluvchi va muvofiqlashtiruvchi, bir-biri bilan o‘zaro aloqalarini qamrab oladi.

- Boshqarish obyekti - bu ifodalaydigan boshqariladigan element ta'sirida boshqariladigan siyosiy tuzilma, tashkilot yoki ularning alohida bo'linmalari, tashkilotning mansabdor shaxslari.
- Aloqa kanallari (siyosiy kommunikasiyalar) - o'zaro ta'sir yo'nalishlari tizimdagi boshqarish subyekti va obyektining ta'siri (to'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqa), bu ham tashqi muhit ma'lumotlarini qabul qiladi va ularni uzatadi.
- Boshqaruv bositalari - bu siyosiy tizim ichida ham, undan tashqarida ham ma'lumot almashish asosida boshqaruv ta'sirini uzatish va idrok etishni ta'minlaydigan siyosiy texnologiyalar, usullar va proseduralar.

Har qanday fanning obyekti va predmetini ochib berish ushbu turdagi ilmiy bilimlarning jamiyat haqidagi, ijtimoiy haqiqat haqidagi yagona fan tizimidagi o'rnini aniqlashga imkon beradi. Siyosiy menejment bir tomonning zo'ravonlik, majburlash usullarini qo'llamasdan, boshqasiga ta'sir o'tkazishga intilishi bilan tavsiflanadigan, o'zaro ta'sir o'tkazishning maxsus turi sifatida har qanday jamiyatda ifodalanadi va siyosiy tarkibiy qismning barqaror rivojini tashkil etadi. Shu bilan birga, guruh manfaatlarini ilgari surish (lobbichilik), davlat arbobining imidjini shakllantirish yoki ziddiyatli tomonlarni yarashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini ham qamrab oladi.

Siyosiy aloqalar tizimida ushbu o'ziga xos segmentning mavjudligi, turli aktorlar harakatlarida barqarorlik va doimiy takrorlanuvchanlik uni mustaqil tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqishga imkon beradi. Ushbu obyektning o'ziga xos xususiyati siyosiy menejmentni jamiyatda rivojlanayotgan barcha boshqa munosabatlardan ajratib turadigan maxsus elementlar bilan belgilanadi.

Tadqiqot obyekti sifatida siyosiy menejment haqida gap ketganda, biz boshqaruv munosabatlarining barcha turlarini nazarda tutamiz, bu boshqa omillar qatorida ularning aniq ishtirokchilari tomonidan ma'lum bir mamlakatda, ma'lum bir davrda amalga oshirilgan qadamlarda namoyon bo'ladi. Biroq,

siyosiy boshqaruvni barcha aniq tarixiy ko‘rinishlarida tavsiflash shunchaki mumkin emas. Ushbu siyosiy boshqaruv munosabatlarini takror ishlab chiqaradigan insonlar faoliyati juda xilma-xil, harakatchan, o‘ziga xosdir. Ularning mantig‘ini chuqurroq anglash imkonini beradigan barqaror, takrorlanadigan narsalarni aniqlash muhimdir. Boshqacha qilib aytganda, biz siyosiy boshqaruv tadqiqotining predmetini aniq tasavvur qilishimiz lozim.

Ilmiy tadqiqot mavzusi ushbu obyektida nimani o‘rganish kerakligini ko‘rsatadi. Har qanday ijtimoiy obyekt, shu jumladan bizning siyosiy tuzilma yoki uning bir qismi g‘ayrioddiy darajada murakkab, ko‘p qirrali va har xil tomondan ko‘rib chiqilishi mumkin bo‘lganligi sababli nomuvofiqliklar bo‘lishi ham mumkin.

Tadqiqot predmetining xususiyatlariga ikkita asosiy omil ta’sir qiladi:

- bilimning maqsadi, uning amaliy ahamiyati (qaysi maqsadda ushbu obyekt to‘g‘risida bilim olishni istaymiz);
- tadqiqotchining nazariy va uslubiy pozitsiyasi (qanday bilim va qanday olamiz).

Aynan shu ikki omil aniq ilmiy obyektida menejment muammolarini hal qilishda uning tavsifining chuqurligiga ham, amaliy maqsadlarda foydalanishga ham ta’sir ko‘rsatadigan eng muhim hisoblanadi Birinchi omil tadqiqot yo‘nalishini belgilaydi, ikkinchisi - konseptual apparatni shakllantirishga, o‘zaro aloqalarni ta’kidlashga va ichki jarayonlarni tavsiflashga imkon beradi.

Siyosiy boshqaruv obyektini murakkab va ko‘p qirrali. Uni insonlarning kamida uchta o‘zaro bog‘liq va bir-biriga aloqador jamoalariga, bir-biri bilan umumiy, maxsus va individual sifatda bog‘liq bo‘lgan hodisalar va jarayonlar tizimiga bo‘lish mumkin.

Avvalo, bu siyosiy tizimning elementlari sifatida ishlaydigan aktorlarning uyushgan jamoalari. Bunga quyidagilar kiradi:

- ma'lum bir maqsadlarga erishish yoki muayyan muhim vazifalarni hal qilish uchun jamiyatning ijtimoiy instituti sifatida yaratilgan davlat - siyosiy tashkilot;

- tashkilotni yoki uning tarkibiy elementlarini boshqaradigan boshqaruvchi quyi tizim (siyosiy rahbar, siyosiy tuzilmaning ma'muriy apparati);

- boshqariladigan quyi tizim (siyosiy jarayonlar ishtirokchilari) - asosan maqsadga muvofiq tuzilmalarda birlashtirilgan siyosiy qarorni amalga oshiruvchi tashkilot mansabdor shaxslari;

- siyosiy boshqaruv funksiyalari - muayyan xususiy funksiyalarning mas'ul ijrochilari (amalda siyosiy boshqaruv subyektlarining qarorlarini amalga oshiruvchi), boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish, qabul qilish va amalga oshirish jarayoniga xizmat qiluvchi yordamchi xodimlar.

Siyosiy menejment boshqaruv jarayonining barcha ishtirokchilari uchun, avvalambor ularning siyosiy boshqaruvdagi o'rni va roli nuqtai nazaridan, shuningdek qarorlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kasbiy o'zaro ta'sir jarayonlarini tartibga solish va siyosiy tashkilotning professional guruhlarini va alohida mansabdor shaxslari faoliyati samaradorligida namoyon bo'ladi.

Siyosiy menejment siyosiy ta'sir obyektlarini turli qirralardan o'rganadi. Bunday obyektlar, bir tomondan, siyosiy boshqaruv doirasida tizim sifatida paydo bo'ladi. Boshqa tomondan, ular siyosiy sohaga konstruktiv ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalish berish uchun doimiy ravishda siyosiy ta'sirni talab qiladigan siyosiy jarayonlarning barcha jihatlarini qamrab oladi. Nihoyat, uchinchi tomondan, ijtimoiy amaliyot siyosiy menejmentning siyosiy ta'sirining obyekti bo'lib qoladi, buning uchun yerdagi sivilizasiya tarixining barcha bosqichlarida siyosiy ta'sir belgilovchi, tizimni shakllantiruvchi va hukmronlik qiluvchi omil hisoblanagan.

Siyosiy menejment obyektini tashkil etuvchi boshqa elementlar bu boshqaruv jarayonining subyektiv va faoliyat xususiyatlari, shuningdek uning unumdorligini ta'minlash shartlari va omillaridir. Ushbu fazilatlar quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- siyosiy tashkilot rasmiylari tomonidan belgilangan maqom, rol va funksiyalarni bajarishda;
- shaxsiy, kasbiy va tipologik xususiyatlar siyosiy tuzilma, tashkilot mansabdor shaxslarining ma'muriy va ijro etuvchi faoliyati;
- siyosiy tashkilotning maqsadlarini ro'yobga chiqaradigan mansabdor shaxslarning uyushgan va o'zaro aloqador o'zaro ta'siri;
- turli tashkiliy tuzilmalardagi mansabdor shaxslarning o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlari;
- tashkilotning maqsadlari, belgilangan funksiyalari, huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirishda siyosat subyektlarining siyosiy aloqalari.

Siyosiy obyektini tashkil etuvchi muhim elementlar menejment, siyosiy tizimlar va bevosita uning subyektlari o'rtasida siyosiy boshqaruv doirasida paydo bo'ladigan jarayonlar va hodisalar mavjud. Ulardan asosiylari:

- 1) siyosiy boshqaruv ta'siri, uning kelib chiqishi, dinamikasi va natijasi;
- 2) boshqaruvning o'zaro ta'siri (vakolatlar, huquqlar va majburiyatlarni berish; boshqaruv jarayonida o'zaro tushunish va unga erishish shartlari va boshqalar);
- 3) tashkilot mansabdor shaxslari tomonidan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida turli siyosiy tuzilmalardagi siyosat subyektlarining boshqaruv bilan o'zaro ta'sir turlari;
- 4) siyosiy boshqaruvning barcha bo'g'inlari faoliyati

samaradorligini belgilaydigan siyosiy, tashkiliy va boshqa shart-sharoitlar tizimi - tashkilot mansabdor shaxslari tomonidan boshqaruv va ijro funksiyalarini amalga oshirishda yetakchi va boshqariladigan quyi tizimlarga ta'siri.

Shunday qilib, siyosiy menejment jamiyat hayotini siyosiy tartibga solish samaradorligi bilan bog'liq ko'plab narsani o'rganadi. Ilmiy intizom sifatida siyosiy menejment siyosat subyektlarining ma'muriy faoliyatining qonuniyatlari, mexanizmlari, shartlari va omillarini, umuman siyosiy jarayonni, siyosiy tizimlarni obyektiv voqelik hodisalari sifatida o'rganadi. Siyosiy menejment obyektini aniqlashga asosan zamonaviy ilmiy tadqiqotchilarning ushbu ilmiy sohadagi nuqtai nazarlariga mos keladi.

Turli xilligi siyosiy menejment bo'lgan siyosiy boshqaruvda, boshqa siyosiy fanlarda bo'lgani kabi, katta darajada nazariy bahslar va munozaralar mavjud. Hozirgacha uning obykti va mavzusi masalasi munozarali bo'lib qolmoqda. Davlat boshqaruvi amaliyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ushbu zamonaviy ilmiy yo'nalish ko'plab kontsepsiyalar, nazariy modellar, uslubiy yondashuvlar, toifalar va tamoyillarni ishlab chiqdi.

2. Boshqaruv asoslari va mexiyati.

Boshqaruv – turli xususiyatga ega bo'lgan, turfa tabiatli tizimlarning (biologik, ijtimoiy, texnikaviy va b.) faoliyatini ta'minlashga, tartibli tarzda qo'llab-quvvatlashga ularning faoliyati, maqsadi va dasturlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyatining muhim jihatidir.

Boshqaruvning umumiy qonuniyatlari aslida jamiyat, tabiat va texnikaning murakkab tizimlarini boshqarishning umumiy tamoyillari va uslublari to'g'risidagi fan bo'lmish kibernetikadan kelib chiqib shakllangan. Texnik tizimlarni boshqarishning maxsus jihatlari texnik fanlarga oid sohalarda (masalan, uchish qurilmalarini boshqarish haqidagi nazariyalar), biologik tizimlarda – biologik sohalarni o'rganuvchi fanlarda (masalan, hayvonlar

hayotidagi shartli reflekslarni va boshqa shunga o'xshash tuzilmalarni o'rganuvchi fiziologiya) o'z aksini topadi.

Xuddi shuningdek, jamiyat hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni boshqarish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarish nazariyasi doirasida o'rganiladi. Shuningdek, maxsus boshqaruv nazariyasi ham mavjudki, bu fan maxsus obyektlarni, shuningdek iqtisodiyotni tartibga solishni, qolaversa davlat nazariyasi, mintaqaviy va mahalliy boshqaruvning asosiy jihatlarini o'rganadi.

Shu ma'noda davlat boshqaruviga nisbatan "boshqaruv" tushunchasi asosan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishni anglatadi.

Boshqaruv fani bugungi kunda boshqaruv faoliyatini amalga oshirish tamoyillarini tizimlashtiradi va bu sohadagi nazariy va amaliy bilimlarni tarqatish imkoniyatini yaratadi.

Umuman olganda bu shunday oraliq fanki, u iqtisod, sosiologiya, psixologiya, kibernetika va informatika fanlarining tarkibiy qismlarini o'zida uyg'unlashtiradi.

Boshqaruv fanining predmeti – boshqaruv munosabatlaridan tarkib topib, jamiyatga yoki uning tarkibiy qismlariga ta'sir etish va tartibga solish maqsadida amalga oshiriladigan takomillashtirish va rivojlantirish asnosida amal qiladigan siyosiy munosabat va manfaatlarning uyg'un tarzda namoyon bo'lishini ifodalaydi. Boshqaruv fanining predmeti shuningdek boshqaruv texnologiyasi va uslublari, ya'ni amaliy boshqaruvning rivojlanish yo'nalishlarini ham o'ziga qamrab oladi.

Boshqaruvning o'zi fenomen sifatida har qanday jamiyat yoki uning tarkibiy qismiga (tashkilot, jamoa, bo'lim, shahar, mintaqa va b.) tegishlidir. Boshqaruvga bo'lgan zaruriyat shu jihatdan tabiat obyektlari, ayniqsa, odamlar jamoasi moddiy va ma'naviy faoliyatlari mohiyatidan kelib chiqadi.

Boshqaruv obyekti keng qamrovli bo'lib, turli sohalar (sanoat, qishloq xo'jaligi, transport), kishilarning hududiy birliklari (viloyat, rayon, shahar),

shuningdek, alohida ishlab chiqarish jarayonlari (ishlab chiqarish, ta'minot, jihozlar), iqtisodiy faoliyat jihatlari (mahsulot sifati, ta'minoti bilan bog'liq aloqalar, marketing), inson faoliyati, ishlab chiqarish xususiyatlarini (samaradorlik, ishga bo'lgan munosabat, turmush tarzi, bandlik darajasi) o'zida mujassam etadi.

Boshqaruv subyekti esa, har bir boshqaruv obyektini tartibga soluvchi kishi yoki kishilar guruhi, ya'ni direktor, menedjer, direktorlar uyushmasi, shahar hokimi, bo'lim boshlig'i, sifat guruhi, shahar sanoatsavdo palatasi va boshqalardir.

Har qanday ijtimoiy-iqtisodiy tizimning bosh bo'g'ini inson bo'lganligi sababli aynan inson boshqaruvning ham obyektini, ham subyekti hisoblanadi. Jamiyatning har qanday a'zosi uning rivojlanishi uchun mas'ul, demak saylov tizimi, jamoat tashkilotlari faoliyatida qatnashish orqali o'zi ham boshqarishi mumkin. Shuningdek, muayyan tashkilotning har qanday a'zosi u yoki bu darajada shu tashkilotning, muassasaning faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishida ishtirok etadi. Ayni paytda faqat insongagina davlat boshqaruvi doirasida ma'lum bir korxonani, tashkilotni boshqarish yuklatiladi. Texnik tizimlarni boshqarishdan farqli jihati shundaki, boshqaruvchi va boshqarilayotgan tizimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mustahkam bo'lib, odamlarni boshqarishda bu o'zaro faoliyat yanada izchillik kasb etadi. Boshqaruvda inson omili haqida yana shuni ham ta'kidlash zarurki, boshqaruv faoliyatidagi inson umuman passiv harakat qilmaydi, chunki unda avvaldan shaxsiy xatti-harakatlar, mustaqil tahlil qilish va baholash ko'nikmalari mavjud. Umuman, inson o'zining shaxsiy tasavvurlari va manfaatlari, ongi va irodasi bilan har qanday boshqaruv jarayoniga ta'sir qiladi. Inson boshqaruvchi topshirig'iga quloq solishi mumkin, quloq solmasligi ham mumkin. Insonning boshqaruv ta'sirini qabul qilishi – butun boshqaruv tizimining samaradorligiga bog'liq. Shu ma'noda, insonni

boshqarishni, umuman shaharni, tashkilotni, bo'limni yoki mintaqani boshqarishdan ajratib bo'lmaydi.

Boshqaruv funksiyalariga kelsak, maqsadlilik, tahlil, bashorat qilish, rejalashtirish, tashkillashtirish, moslashtirish, motivlashtirish, o'qitish, hisob va nazorat, aloqa, qaror qabul qilish kabi tamoyillarni aytib o'tish zarurdir. Boshqaruv funksiyalari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Har qanday tashkilotning faoliyatida, u tijorat, notijorat, katta yoki kichik, rasmiy yoki norasmiy bo'ladimi, bundan qat'iy nazar, barchasida boshqaruv funksiyalari mavjud bo'ladi. Lekin, tashkilot ish samaradorligini oshirish uchun u yoki bu funksiyalarga alohida ahamiyat berish lozim bo'ladi. Masalan, ko'plab notijorat tashkilotlar maqsadni yetarlicha amalga oshirmaydilar. Ayrim xususiy tashkilotlarda esa ba'zan yetarlicha nazorat bo'lmaydi.

Boshqaruv uslublari o'z navbatida yuqorida ko'rsatilgan funksiyalarni amalga oshirish usullaridir. Boshqaruv uslublari o'z xususiyatlari va qo'llash ko'lamiga qarab: a) umumiy; b) barcha tizimga tegishli; v) xususiy; g) tizimdagi alohida tarkibiy qismga aloqador bo'lishi, shuningdek sohalar bo'yicha - davlat boshqaruvlarida, biznesda, savdoda, sanoatda va shu kabilarga xos bo'lishi mumkin. Odatda, boshqaruv uslublari mazmun jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

- ma'muriy (tashkillovchi-tartiblovchi);
- iqtisodiy;
- ijtimoiy-psixologik. Bunday bo'linish sharti shu ma'nodaki, har bir uslubni alohida aniq chegaralash mushkul. Ular bir-biriga kuchli darajada kirishib ketgan. Ayni paytda boshqaruv obyektiga ta'sir qilishda farq mavjud bo'lib, ular o'z o'rnida namoyon bo'ladi.

Bozor iqtisodiyotining muhim jihatlaridan biri shundaki, bozor ma'muriy boshqaruvdan ko'ra ko'proq iqtisodiy uslublarga moyildir va bir vaqtning o'zida ijtimoiy-psixologik omilning rolini oshirib yuboradi. Shuningdek, davlat va

shaxsiy sektorlarda qo'llanayotgan uslublar o'z farqli jihatlarini saqlab qolmoqdalar. Davlat xizmatida ko'proq ma'muriy uslublar, ustunlikka ega bo'lsa, ko'plab xususiy korxonalarda iqtisodiy uslublar ustuvordir.

3. Boshqaruv modeli va uning tadrijiy rivoji.

Menejment amaliyotining XX asr davomidagi o'zgarish jarayoni umumiy tarzda 1-jadvalda berilgan. XIX oxiri - XX asr boshlarida keng tarqalgan boshqaruv modeli avtokratik modeli edi: bunda boshqaruv xo'jayin yoki menejer hokimiyatiga, rahbar obro'siga, uning to'g'ridanto'g'ri ko'rsatmalariga asoslanar edi.

Bunda har bir ishchining o'z boshlig'iga shaxsiy tobeligi mavjud bo'lib, avvalo topshiriqni bajarishdagi mas'uliyat qadrlanardi va butun tizim teylorizmga asoslangan edi.

1-jadval

Tashkilotni boshqarish modellari

Buyruqlar	Iqtisodiy	Yangi
2okimiyat	Iqtisodiy majburlash	Ijodiy yondashuv
Obro' ko'rsatmalar	Moddiy rag'batlantirish	Kollektivizm, axloqiy stimullar
Shaxsiy tobelik	Motivasiya	Sodiqlik
Teylorizm	Iqtisodiy stimullar	Iqtisodiy va axloqiy stimullar
Bajaruvchanlik	Tashabbus	Yalpi ijodkorlik

XX asr o'rtalarida avtoritar boshqaruv tizimi o'rniga iqtisodiy majburlashga asoslangan iqtisodiy tizim keldi. U har bir ishchi tomonidan yuklatilgan vazifani

bajarish, shuningdek ishchilarning faol tashabbuskorligiga tayanar edi. Avtokratik modeldan iqtisodiy boshqaruvga o'tish avvalo yuqori natijalarga erishgan firmalarda ro'y berdi.

Keskin kurash oqibatida boshqaruvning yangi modeli g'alaba qildi va o'zini oqladi. Zero, firma yoki jamoani iqtisodiy va ma'naviy rag'batlantirishni teran uyg'unlashtirgan, jamoaviylik va o'z ishiga sodiqlik tamoyillarining muvofiqligiga asoslanar edi. Boshqaruvning bu modeli uchun har bir kishining ishga bo'lgan ijodiy yondashuvi ham xos edi. Tashkilot faoliyatida qatnashayotgan har bir ishchi nafaqat o'ziga qarashli bo'lgan topshiriqni bajarishi, balki doimiy tarzda yangi texnologiyalarni, ish uslubi, xizmat ko'rsatishning yangi-yangi qirralarini izlab topishi zarur edi. Boshqacha aytganda, tashkilot faoliyatida uning har bir ishtirokchisi o'zining aqliy qobiliyatini faol safarbar etibgina qolmay, ish uslubining yaxshilanishi yuzasidan yangiyangi takliflar bilan tashkilot faoliyatining sifat jihatdan o'sishiga, uning rivojlanishi uchun o'z hissasini tinimsiz ravishda qo'shishga harakat qilar edi. Bu model XX asrning oxirida rivojlangan G'arb va Sharq mamlakatlarining yetakchi firmalarida yanada takomillashdi.

o'z o'rnida aytib o'tish joizki, jadvalda ko'rsatilgan turli modellar xususiyati nisbiydir. Aslida har qanday tashkilot menejmenti barcha uch model elementlarini o'zida mujassam etadi. So'nggi o'n yilliklar tajribasi shuni namoyon qilmoqdaki, innovasion firmalarning ko'p jihatdan muvaffaqiyati yangi modelga to'g'ri kelmoqda. Menejment amaliyotida shu tufayli asta-sekinlik bilan bo'lsada, tijorat, notijorat tashkilotlarda yangi model hukmronlik qila boshladi. Shu ma'noda boshqaruvning yangi modeli davr talabiga nisbatan real javob, zamonaviy bozor sharoitida ish yuritishning zaruriy tarkibiy qismi bo'lib qoldi.

Nima uchun menejment XX asr mobaynida ko'p o'zgardi? Bu avvalo hayotning o'zi tez o'zgarganligidandir. Asr boshlarida korxonalarda, savdo

firmalarida, davlat tashkilotlarida u doira tarzida, ya'ni biznesda va har qanday faoliyatda boshqaruvdagi mavjud bir xil usul, yo'l, qoidalarni takrorlashdan iborat edi. Bunday holatda menejmentning eng yaxshi samarali modeli avtoritar boshqaruv edi.

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hayot mislsiz tarzda tez o'zgardi. 2ar bir keyingi hayot lahzasi avvalgisiga o'xshamay, tez o'zgaruvchan sharoitlarga aylandi. 2ar qanday tashkilotning muhim xususiyati bu davrda hayotiy muhim o'zgarishlarga moslashish bo'lib qoldi. Boshqaruvning yangi modeli tevarak olamning shiddat bilan yuz berayotgan o'zgarishlariga tezkor javob bera oladigan tizim sifatida shakllandi. Buni hozirgi paytda ham firma yoki tashkilotlarning doimiy tarzda tashqi tevarakatofga nisbatan mumkin qadar yangilikni his etib yashayotganligida ko'rish mumkin.

Bu ta'sir turfa xil tarzda, xususan raqobatchilik, ishlab chiqarishdagi yangi texnologiyalar va albatta kam talofatlar orqali iste'molchini katta samaradorlik asosida ta'minlovchi yangi xizmatlar paydo bo'lishi, valyuta kursi o'zgarishi kabi beqaror sharoitlarda qobiliyat-bardosh komandalarning faoliyat ko'rsatishida yuz berdi. Shu bilan birga, tashkilotning ishchanligini, uning samaradorlik bilan faoliyat ko'rsatishi va moslashishini hisobga olishda menejment zarur vositalar bilan ta'minlanib bormoqda.

Boshqaruv g'oyalaridagi tadrijiylik boshqaruv modellarida o'z ifodasini topadiki, ularni olimlar va mutaxassislar ishlab chiqmoqdalar va keyin esa mavjud muammolarni bartaraf qilish uchun amaliyotda foydalanmoqdalar.

Hayot oldimizga qo'yayotgan savollarga javoblar tamoyillar, yondashuvlar, konseptual qarashlar yig'indisidan iborat bo'lib, ular operativ, taktik va strategik vazifalarni hal qilishga qaratilgan.

Bularning barchasi boshqaruv modellarining mohiyatini belgilaydi.

Aslida ham jamiyatdagi bo'layotgan islohotlarga hamda o'zgarishlarga muvofiq tarzda modellar ham o'zgaradi. Model hayot talabini adekvat tarzda

ifoda etmasligi mumkin va shunda u iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishni orqaga tortadi. Rahbarning asosiy vazifasi ham shundan iboratki, u muhim yo‘nalishni to‘g‘ri anglab, eng samarali boshqaruv modeli bilan qurollanishi kerak.

“Boshqaruv modeli” tushunchasi boshqaruvning asosiy tizimlarining mazmunini ochishga yordam beradi. Boshqaruv modeli mohiyatan real obyektning (boshqaruv tizimining) nusxasidir. Uning real xususiyatiga ega bo‘lgan, uning ishlash faoliyatini qayta harakatga keltirish qobiliyatidir. ²ar qanday rahbar oldida asosiy hayot-mamot muammosi, ya’ni unga yuklatilgan obyektни qaysi bir texnologiya usuli, boshqaruv strategiyasi tajribalaridan foydalangan holda boshqarishdan iborat muammo turadi. Boshqaruv modeli bularni amalga oshirish imkonini beradi.

Boshqaruv modelini tanlash tayyor savdo qatorlaridan kerakli tovarni tanlash degani emas, tovar tayyor bo‘lganda uning aniq qilib chizilgan iste’mol xususiyati paydo bo‘ladi. Bu yerda xuddi shunday teng o‘xshashlik bor. Ona bolani sotib ololmaydi, u avval onalik tomondan yetilib, bolani paydo qiladi, tug‘adi, ona mehri bilan ko‘p yillar davomida tarbiyalaydi, g‘amxo‘rlik qiladi va so‘ngra avlod qilib yetishtiradi. Shundan ko‘rinadiki, mana shunday metaforik mazmunda F.Teylor ta’kidlaganidek, boshqaruv modeli - bu shunchaki ixtiro emas, balki tajrijiy rivojlanishdir.

Yuqorida keltirilgan o‘xshatishni boshqacha ta’riflagan holda aytish mumkinki, boshqaruv modeli ham bola kabi o‘n yillar va hatto asrlar davomida vujudga keltiriladi, shakllantiriladi. Uni import qilib bo‘lmaydi, u faqat o‘ziniki, asl, muvofiq an’ana, madaniyat va o‘z xalqining ruhiga mos bo‘lishi kerak.

Bu degani boshqaruv modeli chet el ko‘nikmalariga berilmasligi kerak degani emas. Bu narsa zarur. Beriluvchanlik, o‘ziga singdirish, dunyo bilimlari bilan tillashish malakasi har qanday boshqaruv tizimidagi, har qanday tashkilotdagi, har qanday insondagi hurmat uyg‘otadigan, havas qiladigan

fazilatdir. Ayni paytda har qanday o'zgarish o'zining asl mazmuniga, ma'lum bir shart-sharoitlarga mos tarzda yuz berishi, ya'ni:

- birinchidan, o'zgarishlar murakkablashgan boshqaruv modellari tayanadigan asoslarni buzmasligi kerak;
- ikkinchidan, o'zgarishlar kam darajada bo'lsada, kim boshqarayotgan yoki boshqarilayotgan bo'lsa, ularning ko'ngliga, joniga tegib salbiy holatlarni qo'zg'atmasligi kerak.

Bizning iqtisodiyotimizni isloh qilish shuni yorqin ko'rsatmoqdaki, Vatan tarixi, o'tmishga bo'lgan hurmatsizlikni hech kim kechirmaydi. Vatan tarixidagi saboqlarni bilish har doim foydalidir.

Boshqaruv modellari to'g'risidagi masala dolzarbligicha qolmoqda. ²aqiqatda ham mutlaqo ko'plab boshqaruvchilar o'zining va o'zgalar muvaffaqiyatini ma'lum bir boshqaruv modeli bilan mujassamlashtiradilar.

**2-mavzu. Siyosiy menejmentning turlari. Siyosiy menejmentda
saylov, referendum va saylov tizimlari. Siyosiy menejmentda
axborotning o'rni va ta'siri. Reja**

4. *Siyosiy kampaniya tushunchasi va mohiyati.*
5. *Saylovlar - siyosiy jarayonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida. Saylov kampaniyasining tarkibiy qismlari.*
6. *Saylov kampaniyasi strategiyasi va taktikasi*

1. Siyosiy kampaniya tushunchasi va mohiyati.

Siyosiy kampaniya - bu majburlashning ochiq shakllaridan foydalanishni istisno qiladigan usullar va vositalar bilan muayyan siyosiy maqsadlarga erishish uchun siyosiy aktyor tomonidan boshlangan boshqarish jarayoni.

Har qanday siyosiy kampaniya ma'lum bir siyosiy aktyorning (siyosatchi, tashkilot) aniq belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan subyektiv irodasiga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, siyosiy kampaniya o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi. Bizga siyosiy aktyorning kerakli maqsadga erishish niyati va buning uchun tegishli choralarni ko'rishga tayyorligi shaklida turtki kerak. Ushbu tayyorlik, avvalambor, siyosiy maqsadga erishish uchun qarorni amalda tatbiq etadigan guruhni yaratishda namoyon bo'ladi. Ushbu guruhni "menejment subyekt" atamasi bilan belgilaymiz.

Siyosiy nazorat subyekt tomonidan boshlangan har bir o'zaro ta'sir uni ko'zlangan maqsadga yaqinlashtirishi kerak. Biroq, amalda siyosiy kampaniya natijasi har doim ham kerakli maqsad bo'lib chiqavermaydi. Shunday qilib, bir mandatli saylov okrugida bir nechta nomzodlar saylovoldi tashviqotida ishtirok etishlari mumkin, parlament deputati mandatini olishni xohlashadi, ammo bittasi g'olib chiqadi. Siz siyosiy partiyalar bilan ba'zi shartlarda ittifoq tuzishni maqsad qilib qo'yishingiz mumkin, ammo amalda bu ittifoq boshqa shartlarda amalga oshirilishi mumkin. Siyosiy kampaniya natijasida biz belgilangan maqsadga emas, balki ma'lum bir natijaga erishishni belgilab oldik. Boshqarish subyekt tomonidan qo'yilgan maqsad va olingan natija o'rtasida nomuvofiqlikning ko'p sabablari bor: noto'g'ri tanlangan ishontirish kommunikasiyasi strategiyasi, siyosiy kampaniya ishtirokchilari motivasiyasi xususiyatlarini bilmaslik, siyosiy bozorni noto'g'ri segmentasiya qilish, va boshqalar. Keyingi boblarda biz ushbu masalalarning barchasini batafsil ko'rib chiqamiz.

2. Saylovlar - siyosiy jarayonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida.

Saylov kampaniyasining tarkibiy qismlari.

Saylovlar demokratik jamiyatlardagi siyosiy jarayonlarning ajralmas qismi sanaladi. Saylovlar kishilarga vakillik organlariga saylanish imkonini beradi. Ayni paytda, saylov davrida fuqarolar siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanadi. Bunda saylovchi o'z tanlovi naqadar ahamiyatli ekanini, oliy davlat idoralari tarkibiga ta'sir ko'rsata olishini his etadi.

Saylov jarayonida siyosiy texnologiyalarni qo'llash mamlakatdagi saylov tizimiga, bu jarayonni tartibga soladigan qonunlar va jamiyatdagi an'analarga bog'liq bo'ladi. Nomzodlarga qo'yiladigan talablar, saylovlarni tashkil etishga javobgar organlar faoliyatining asosiy yo'nalishlari, saylovchilar va saylov birlashmalarining maqomi, saylovoldi tashviqoti qoidalari, ovoz berish tartibi va shikoyat qilish usullari huquqiy meyorlarda o'z aksini topadi.

Bu meyorlar saylovoldi kurashning barcha ishtirokchilarini yagona elektoral qoidalarga amal qilgan holda faoliyat yuritishga majbur etadi. Garchi turli davlatlarning saylovga doir qonunchiligi mamlakat taraqqiyotining tarixiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy xususiyatlarini ifoda etib, bir-biridan farqlansa-da, bu saylov tizimlarini bir necha turga ajratish imkonini beradigan umumiy tamoyillar mavjud. Odatda, uch xil saylov tizimi - **proporsional**, **majoritar** hamda **aralash** saylov tizimlari ajratiladi.

Proporsional saylov tizimidan ko'pmandatli saylov okruglarida tashkil etilgan saylovlarda foydalaniladi. Bunda saylovchi vakillik organlariga ko'rsatilgan bitta nomzod uchun emas, balki saylov birlashmasi yoki partiya syezdida tasdiqlangan bir necha kishilik nomzodlar ro'yxatiga ovoz beradi. Natijada, tegishli organdagi o'rinlar partiya olgan ovoziga qarab, proporsional ravishda taqsimlanadi.

Proporsional saylov tizimi uncha katta bo'lmagan saylov bloklari va siyosiy partiyalarning vakillik organlaridan joy egallashiga imkon beradi. Amaliyotning ko'rsatishicha, bu holat parlamentdagi siyosiy kuchlarning kichik guruhlariga parchalanishiga olib keladi. Natijada, parlament faoliyati «falajlanib» qolishi ehtimoli paydo bo'ladi. Bunday holatning oldini olish uchun vakillik organi tarkibiga kirish uchun o'ziga xos «chegaralovchi to'siq» o'rnatiladi. YA'ni, partiyalar saylovchilar ovozining ma'lum foizini to'plashlari talab etiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, proporsional saylov tizimida saylovchi bir nomzodga emas, balki partiya yoki saylov birlashmasi tomonidan taklif etilgan nomzodlar ro'yxatiga ovoz beradi. Odatda, bu ro'yxatda ko'rsatilgan nomzodlar soni mandatlar sonidan ortiq bo'ladi. Shu sababli ro'yxatda ko'rsatilgan nomzodlardan kim parlament deputati bo'lishi ikki tamoyil asosida hal qilinadi. Birinchisi - *navbatiga ko'ra*, ya'ni ro'yxatning boshida turganlar birinchilardan bo'lib, parlament a'zoligiga o'tadi. Ikkinchisi - *preferensiallik* tamoyiliga ko'ra, ya'ni saylovchiga ro'yxatda ko'rsatilgan biror nomzodni belgilash huquqi beriladi. Ta'kidlash joizki, proporsional saylov tizimi faqat kollegial organlarga (masalan, parlament) o'tkaziladigan saylovlardagina qo'llanishi mumkin.

Majoritar saylov tizimining (fransuzcha majorite - ko'pchilik) asosini «ko'pchilik tamoyili» tashkil etadi. Bunday tizim, odatda, bir mandatli okruglarda amal qiladi va eng ko'p ovoz olgan nomzod g'olib hisoblanadi. Majoritar saylov tizimining ikki shakli mavjud, bular: nisbatan ko'pchilik va mutlaq ko'pchilik ovoz olish tizimlaridir. Birinchi shaklda, nomzod mandat olish uchun raqiblaridan ko'proq ovoz to'plashi lozim. Ikkinchi shaklda esa nomzod kamida ellik foiz (50%+1) ovozga ega bo'lganidagina g'alaba qozonadi. Agar nomzodlardan birortasi ham 50 foizdan ko'p ovoz yi¹/₄olmasa, u holda ikkinchi tur saylovi o'tkaziladi. Ikkinchi turda faqat eng ko'p ovoz olgan ikki nomzod qatnashadi, xolos. Majoritar saylov tizimi proporsional saylov

tizimidan ko'ra ancha universal bo'lib, uni nafaqat vakillik organlariga saylovlarda, balki prezident saylovlarida ham qo'llash mumkin. Majoritar saylov tizimining yagona kamchiligi shundan iboratki, u uncha katta bo'lmagan partiya va harakat vakillarining davlat idoralariga saylanish imkoniyatini toraytirib qo'yadi.

Aralash saylov tizimi majoritar va proporsional saylov tizimlari nuqsonlarini kamaytirishni nazarda tutgan holda, ularning uyg'unlashuvidan hosil bo'lgan. Bu uyg'unlik parlamentning bir qismi - majoritar, boshqa qismi esa proporsional tizim asosida saylanishida namoyon bo'ladi.

Saylov tizimlari saylovoldi kurash ishtirokchilarini saylov qoidalariga amal qilishga undaydi, saylovoldi ittifoqlar tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. Hokimiyatning vakillik organlariga saylovlar, odatda, keskin kurashlar ostida o'tadi. Chunki mandatga da'vogarlar soni ko'p bo'lib, ular saylovchilarning e'tiborini qozonish maqsadida turli vositalardan foydalanadi. Siyosat sahnasida turli voqea-hodisalar sodir bo'ladi: miting va yig'ilishlar uyushtiriladi, nomzodlar saylovchilar bilan uchrashadi, siyosiy yetakchilar ommaviy axborot vositalarida tanqidiy nutqlar va dasturlar bilan chiqish qiladi, ko'chalarda reklama plakatlari paydo bo'ladi, varaqalar tarqatiladi va hokazo.

Davlat organlariga saylovlardan avval va saylov vaqtida tashkil qilinadigan turli tadbirlar bir so'z bilan «saylov jarayoni», deb ataladi. Saylov jarayoni mamlakatda saylovlar bilan bog'liq ravishda kechayotgan siyosiy jarayonlarni qamrab oladi. Saylovlar turli shaxslar va guruhlariga o'z ehtiyojini hokimiyat orqali qondirish imkoniyatini beradi. Saylovoldi kurashda ishtirok etayotgan nomzodlar yoki siyosiy bloklar o'z oldiga qo'ygan vazifani bajarish uchun qanday harakat qilish lozimligini belgilab oladi. Nomzodlar, nomzodga xizmat ko'rsatayotgan jamoa, partiyalar va saylov birlashmalarining o'z maqsadini amalga oshirish yo'lida qilgan barcha xatti-harakatlari yig'indisi **saylov kampaniyasi** deb ataladi.

Saylov kampaniyasi siyosiy boshqaruvning o'ziga xos shakli bo'lib, unda nomzod boshchiligidagi guruh subyekt vazifasini o'taydi. Saylovchilar esa bu jarayonning obyekti hisoblanadi. Nomzodning maqsadiga qarab, boshqaruv vazifalari belgilanadi. Amaliyotning ko'rsatishicha, barcha nomzodlar ham saylovda g'alaba qozonishni maqsad qilib qo'ymaydi. Ayrimlar kishilar e'tiborini jalb qilish maqsadida, boshqalari kuchli raqibga berilishi mumkin bo'lgan ovozlarni kamaytirish uchun saylovda o'z nomzodini qo'yadi.

Saylov kampaniyasi raqobatli jarayon bo'lib, uning ishtirokchilari siyosiy iyerarxiyaning yuqori po'lonalaridan o'rin egallashga harakat qiladi. Bu raqobat shafqatsiz kurashga, keskin ziddiyatlarga aylanib ketmasligi uchun saylov jarayonini tartibga soladigan qonunlar qabul qilinadi. Albatta, saylovoldi kurash ishtirokchilarining barcha harakatlarini qonun orqali nazorat qilib bo'lmaydi. Lekin shunday bo'lsa-da, bu ishtirokchilar uchun amal qilishi shart bo'lgan o'ziga xos «huquqiy doira» yaratiladi. Mazkur doiradan chiqqan ishtirokchilarga nisbatan esa turli jazo choralari qo'llaniladi.

Saylov kampaniyasini tashkil etishda quyidagilarni e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim: bu jarayonda subyekt saylovchilarni o'z irodasiga bo'ysundira olmaydi; hech bir nomzod yoki siyosiy kuch fuqarolarning elektoral fe'l-atvorini belgilovchi qaror chiqara olmaydi; subyekt saylovchilarga ta'sir ko'rsatishda turli jazo choralarni qo'llaydi; legitim kuch ishlatish imkoniyatiga ega bo'lmaydi; saylovchini muayyan nomzodga ovoz berishga majburlash mumkin emas. Demak, kishilarning ongi va qalbiga ta'sir ko'rsatish orqali ularni biror nomzod yoki kuchga ovoz berishga undash, kishilarning e'tiborini qozonish saylov kampaniyasining bosh maqsadi hisoblanadi.

Kishilarning elektoral fe'l-atvoriga ta'sir ko'rsatib, ularni biror-bir nomzodga ovoz berishga undash maqsadida qo'llaniladigan vositalar yig'indisi **saylov texnologiyalari** deb ataladi. Saylov texnologiyalarining asosiy jihati shundan iboratki, bunda ijtimoiy psixologik mexanizmlarga tayangan holda

kishilarning kayfiyati, manfaati, qadriyati va maslaklariga murojaat qilinadi. XX asrning o'rtalariga qadar saylov kampaniyalari partiya faollari, nomzodning maslakdoshlari, siyosatchilarga yordam berishni istagan xayrixoh fuqarolar yordamida amalga oshirilar edi. Yordamchilar shaxsiy tashabbus ko'rsatib, nomzodga, partiyaga yoki g'oyaga sodiqligi tufayli ko'maklashardi. Bunday yordamchilar orasidan saylov texnologiyalarining mohir ustalari yetishib chiqdi. Lekin ular saylov texnologiyalarini va kishilarning elektoral fe'l-atvorini ilmiy o'rganmay turib, o'zlarining tajribalariga tayanar edilar.

Saylov texnologiyalarida siyosiy kurashlarda to'plangan amaliy tajriba va ilmiy bilimlar uyg'unlashgan. Bunda sinalgan usullarni qo'llash bilan bir qatorda muayyan texnologiyalar tufayli qozonilgan g'alaba yoki mag'lubiyatning asl sabablarini ham o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki jamoatchilik fikrini zaruriy o'zanga yo'naltirish uchun kampaniya tashkilotchilari sharoitni to'g'ri baholab, kishilar ongi va kayfiyatidagi «og'riqli nuqtalar»ga ta'sir o'tkazishi lozim. Bu holat saylov texnologiyalari borasida zaruriy bilim, tajriba va ko'nikmalarga ega malakali siyosiy texnolog mutaxassislar yordamiga ehtiyoj tu'ldiradi.

Saylov texnologiyalari kishilar e'tiborini biror nomzodga tortish, uning nufuzini oshirish va saylovchilar ishonchini qozonishda kuchli qurol bo'lib xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, bu texnologiyalar ilmiy asoslangan saylov strategiyalarga mos ravishda kompleks tarzda qo'llanganida, raqiblar xatti-harakatlari o'rganilib, jamoatchilik fikridagi o'zgarishlar chuqur tahlil qilinganida o'z samarasini beradi.

Har bir saylov kampaniyasi o'ziga xos tarzda o'tadi va ma'lum muddat o'tganidan so'ng u aynan takrorlanishi mumkin emas. Masalan, bir okrugdan ikkinchi marta deputatlikka nomzodini ko'rsatgan kishi besh yil ilgari qo'llagan shiorlari va reklama plakatlaridan foydalana olmaydi. Zero, vaqt o'tgan sari kishilarning manfaatlari, qadriyatlari, fikrlari o'zgarib boradi, natijada har safar

saylov kampaniyasi yangitdan boshlanadi. Uzoqni ko'zlagan siyosatchilar saylov kuni e'lon qilinishi va saylovoldi tashviqotga rasman ruxsat berilishdan avval ishga kirishadi. Ular okrugdagi ahvolni o'rganishdan ish boshlashadi. Bu saylovoldi ishlarni aniq strategiya asosida tashkil etishga zamin yaratadi va tavakkalchilikning oldini oladi. Shu yo'l bilan saylov kampaniyasi tahliliy axborot bilan ta'minlanadi. Saylovoldi tadqiqotlar yo'nalishi kampaniya tashabbuskorlari tomonidan belgilanadi va imkon qadar ko'proq kishilar e'tiborini jalb etishni maqsad qilib qo'yadi. Masalan, biror nomzodning ijobiy qiyofasini yaratishda uning okrugidagi saylovchilar qanday kishiga ovoz berishlari mumkinligini o'rganish zarur. Saylovchilarga qanday g'oyalar yoqishi, ularning qadriyatlari va manfaatlarini, jamoatchilik fikrini o'rganmay turib, nomzodning saylovoldi dasturini tuzish mumkin emas.

Saylovlardan avval okrugdagi ahvolni har tomonlama o'rganish mazkur jarayonning **birinchi bosqichi** hisoblanadi. Bu vazifani bajarishga, odatda, saylovdan 3-6 oy avval kirishiladi. Bu vaqt ichida okrug haqida (aholi soni, aholining etnik va sosial tarkibi, asosiy diniy birlashmalar, qishloq xo'jalik va sanoat tizimi, yirik korxonalar va moliyaviy muassasalar, ta'lim muassasalari, o'rta va kichik biznes) va uning aholisi to'g'risida (qiziqishlari, qadriyatlari, manfaatlari, qanday nomzodni ma'qul ko'rishi va hokazo) tegishli ma'lumotlar yig'iladi. To'plangan ma'lumotni chuqur tahlil qilish asosida saylovoldi kampaniyasining strategiyasi ishlab chiqiladi. Agar bu tadbir o'z vaqtida, bilimlarga tayanilgan holda amalga oshirilsa, saylov kampaniyasining samaradorligi yanada ortadi. Chunki uning tashkilotchilari saylovchilar nomzoddan nima kutayotganini o'rganib, shunga qarab harakat qilishadi.

Ikkinchi bosqich - saylov kampaniyasini tahliliy axborotlar bilan ta'minlashdan iborat. Boshqaruv subyekti o'z faoliyati samaradorligini ta'minlash uchun amalga oshirilayotgan ishlar kishilarga qanchalik ta'sir ko'rsatayotgani haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishi lozim. Bu ishni yanada

samarali tashkil etish imkonini beradi. Saylov kampaniyasini tahliliy axborot bilan ta'minlash natijasida ikki tomonlama, bir tomondan - nomzod, ikkinchi tomondan - saylovchilar o'rtasida o'ziga xos muloqot o'rnatiladi. Bu muloqot subyektga harakat taktikasini ishlab chiqishda, vujudga kelgan muammolarni zudlik bilan hal qilishda, raqiblarning xurujlariga to'g'ri javob qaytarishda qo'l keladi. Bu vazifa nomzodga nisbatan jamoatchilik fikrining o'zgarishi, raqiblar va saylovga jalb qilingan boshqa siyosiy kuchlarning harakatlarini kuzatish imkonini beradigan monitoring shaklida amalga oshiriladi.

Saylov kampaniyasi tashkilotchilari uchun muhim axborot turli usullar bilan olinishi mumkin. Okrugdagi iqtisodiy o'sish, aholining demografik tarkibi, turmush darajasi ko'rsatkichlari, avvalgi saylov natijalari haqidagi ma'lumotlar statistik hujjatlarni o'rganish yo'li bilan; aholi o'rtasida sosiologik so'rovlar o'tkazish orqali; fokusguruhlar¹ yordamida; raqiblarning harakatlarini zimdan kuzatish va ularning nutqlarini kontent tahlil qilish asosida to'planadi.

Saylov kampaniyasini tahliliy axborot bilan ta'minlash – sermashaqqat, professional mahorat va ko'nikmalar talab qiladigan jarayon. Chunki bu ishga yuzaki yondashish saylovoldi strategiyasini ishlab chiqishda ko'p imkoniyatlarni boy berib qo'yishga olib keladi.

Maqsadga erishish yo'llari belgilab qo'yilgan aniq strategiyani ishlab chiqmasdan turib, saylov kampaniyasini boshlab bo'lmaydi. Agar nomzod va uning jamoasi aniq strategiyaga ega bo'lmasa, harakatlar tartibsiz, ayrim hollarda bir-biriga teskari kechadi va oxir-oqibat barcha urinishlar zoye ketadi.

Saylov strategiyasini ishlab chiqish «Qanday mavzudagi axborotlar saylovchilarning elektoral fe'l-atvorini istalgan o'zanga yo'naltiradi?» degan savolga javob topishdan boshlanadi. Nomzodning qiyofasi (imiji)ni yaratishda, uning nutqlari va dasturida nimalarga e'tibor berish lozim? Qanday yo'l bilan

¹ Bu guruilar nomzod tomonidan e'lonilgan shiorlar, nutelar, reklama roliklari va nomzodning kelgusi iarakatlari iacida ba's yuritadi, o'z fikrini bildiradi. Bu fikrlardan xulosa chi'arilib, foydalanilgan vositalar keng jamoatchilikka eanday ta'sir eilishi mumkinligi aniqlanadi.

saylovchilar ishonchini qozonib, ularning ovozini olish mumkin? Bu savollar saylov kampaniyasining asosiy mavzusiga aylanadi. Mavzu tanlashning ikki usuli mavjud: birinchisi - saylovchilarning fikrlari, qarashlari, qadriyatlarini o'rganish asosida mavzu tanlash; ikkinchisi - shaxsiy tajribaga tayangan holda mavzu tanlash. Ochig'ini aytish kerakki, ikkinchi usul qo'llanganida saylov strategiyasini ishlab chiqishda xatoga yo'l qo'yish mumkin. Chunki inson fikri o'zgaradi, bu esa faqat shaxsiy tajribaga tayanib ish tutish mumkin emasligini ko'rsatadi.

Albatta, raqobatlashayotgan kuchlarning saylovoldi strategiyasi birbiridan farq qiladi. Bu farq nomzodning maslagi, siyosiy ta'sir darajasi, o'z dasturida qanday muammolarni ko'tarib chiqishi va aholining qaysi qatlamiga ko'proq tayanishiga bo'liqlik bo'ladi. Turli ijtimoiy qatlamlarning qadriyatlari, qarashlari va manfaatlari birbiridan farq qilgani bois turli siyosiy kuchlarning saylovoldi strategiyasi ham farqlanadi.

Har bir saylovchi, albatta, biror-bir ijtimoiy qatlamga mansub bo'ladi. Nomzodga yoki boshqa siyosiy kuchga munosabatiga qarab elektoratni quyidagi besh guruhga ajratish mumkin:

- 1) **faol qo'llab-quvvatlovchilar** - bu guruh a'zolari muayyan sabablar tufayli (masalan, qadriyatlari, maslaklari, fikrlarining mos kelishi tufayli) nomzod va uning jamoasi bilan faol hamkorlik qiladi, ularning harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Bu guruhga mansub kishilar «o'z» nomzodi yoki partiyasiga ovoz beradi va boshqalarni ham shunga da'vat qiladi;
- 2) **passiv qo'llab-quvvatlovchilar** - bu guruhdagilar o'zlarini biror nomzod yoki saylov birlashmasiga xayrixoh deb biladi, lekin unga hech qanday amaliy yordam ko'rsatmaydi. Bu guruh saylovlarda «o'z nomzod»iga ovoz berishi mumkin. Passiv qo'llab-quvvatlovchilarni bu harakatlarga,

odatda, siyosatga aloqasi bo'lmagan omillar (masalan, nomzodning oilaviy ahvoli, ish joyi kabi omillar) undaydi;

- 3) **mo'tadil pozisiyadagilar** - bunday kishilar nomzod yoki partiya haqida kam ma'lumotga ega bo'lishlari sababli nomzodning dasturiy maqsadlarini yaxshi bilishmaydi. Ularning nomzodga nisbatan pozisiyalari ham aniq bo'lmaydi. Chunki ular o'z muammolariga butunlay «sho'ng'ib ketgan» insonlardir. Ularning kimga ovoz berishlari u yoqda tursin, hatto saylovga kelish-kelmasliklari ham aniq bo'lmaydi;
- 4) **ishonchsizlik kayfiyatidagi kishilar** - elektoratning bu qatlami, odatda, hech bir partiya yoki nomzod mamlakatdagi, viloyatdagi muammolarni hal qila olishiga ishonmaydi. Bunday saylovchilar avvaldan tanlagan nomzodiga ovoz beradi yoki atayin saylovga kelmaydi.
- 5) **qat'iy qarshi kayfiyatdagilar** - bu guruhni raqib partiya a'zolari va ularning faol tarafdorlari tashkil qiladi. Bunday kayfiyatdagilar o'z nomzodiga ovoz berish bilan birga, boshqa nomzodlar va raqib siyosiy kuchlarga dushmanlik kayfiyatini namoyon qilib, ularning faoliyatiga xalal beradi.

Saylov kampaniyasi tashkilotchilari birinchi va ikkinchi guruhdagilarni o'z ta'sir doiralarida saqlab qolishga, uchinchi guruhni o'z tomonlariga og'dirishga, to'rtinchi va beshinchi guruhdagilarni esa «zararsizlantirish»ga harakat qilishlari lozim. Odatda, biror nomzodni tanlamagan, mo'tadil kayfiyatdagi kishilar elektoratning ko'pchiligini tashkil qiladi. Nomzodlar aynan mana shu guruhning e'tiborini qozonish uchun kurashadi.

Bu kurashda nomzod va uning jamoasi mo'tadil kayfiyatdagi kishilarga o'z manfaatlari, fikrlari va rejalariga ega bo'lgan shaxslar sifatida qarashlari kerak. Demak, ilgari suriladigan shiorlar, nutq va reklamalar ularning har biriga turlicha ta'sir ko'rsatishini inobatga olish talab etiladi.

Zamonaviy texnologiyalarni qo'llashda ijtimoiy tabaqalanishni hisobga olish zarurligi qator mutaxassislar tomonidan ta'kidlangan. F.Gouldning ta'kidlashicha: «Biz hammaga va har bir kishiga murojaat qilib, ko'pincha xatoga yo'l qo'yamiz. Siyosatda muvaffaqiyatga erishish uchun qat'iy tanlovni amalga oshirish lozim. Tan olishimiz kerak - biz hammaga murojaat qila olmaymiz, biz kimnidir (biror guruhni) tanlashimiz kerak».

Ta'sir ko'rsatish maqsadida tanlangan tor doiradagi ijtimoiy qatlamlar **adres guruhlari** deb ataladi. Saylov kampaniyasi tashkilotchilari tegishli adres guruhlarini tanlashi natijasida ko'p mablag'lar tejab qolinadi. Chunki hammaga ta'sir ko'rsatish maqsadida minglab reklama mahsulotlari ishlab chiqarilmay, tegishli guruhlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan usullardan foydalaniladi.

Hozirgi kunda elektorat demografik (yoshlar, keksalar, erkaklar, ayollar), yashash joyi (shahar va qishloqda yashovchilar, katta va kichik shaharlarda yashovchilar), etnik (ayniqsa, ko'pmillatli hududda e'tiborga olinadi), mulkiy farqlanish (katta mulk egalari, yo'qsillar, o'rta tabaqa vakillari) va hokazo omillarga qarab segmentlanadi. Elektoratni bunday segmentlash oson bo'lib, mavjud statistik ma'lumotlar asosida har bir guruhga qancha kishi tegishli ekanligini aniqlash mumkin. Elektoratni segmentlashdan maqsad - iloji boricha ko'proq kishilarga murojaat qilish, ularni qiynayotgan muammolarga javob berish, reklama mahsulotlarini ta'sirchan va tushunarli tarzda yetkazish va kengroq ommani qamrab olishdir.

Har qanday saylov kampaniyasida nomzod asosiy o'rin egallaydi. Garchi saylovlar proporsional tizim asosida o'tkazilib, saylovchilar nomzodlar ro'yxatiga ovoz bersalar ham, baribir bu ro'yxatning boshida turganlar hal qiluvchi rol o'ynaydilar. Saylovchilarning nomzod haqidagi fikrlari va tasavvurlari saylovda qozoniladigan g'alaba yoki mag'lubiyatga sabab bo'ladi. Shuning uchun nomzodning saylovchilar uchun maqbul qiyofasini yaratish uning jamoasi oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

Nomzodning bunday qiyofasini qanday tamoyillar asosida shakllantirish maqsadga muvofiq? Eng avvalo, uning imiji, ya'ni kishilarda taassurot uyg'otadigan xususiyatlari haqida o'ylab ko'rish lozim. Bunday qiyofani yaratishda quyidagi omillar hisobga olinadi:

- kishilar ongida nomzod haqida azaldan shakllangan tasavvurlar (saylovoldi kampaniyasida uning qiyofasini butkul o'zgartirib bo'lmaydi);
- saylovchilar nomzoddan nima kutayotgani (hozirgi vaziyatda saylovchilar qanday kishiga ovoz berishlari mumkin);
- tanlangan saylovoldi strategiyasining mohiyati (nomzodning qiyofasi bu strategiyani shiorlar, reklamalar, chaqiriqlar orqali o'zida ifodalashi lozim).

Nomzodning qiyofasi tanlanganidan so'ng imijmeykerlar uning imijini yanada takomillashtirishga kirishadi. Bu ish, avvalo, nomzodning tarjimai holini yaratishdan boshlanadi. Tarjimai holda nomzodning hayotida yuz bergan, kishilar e'tiborini o'ziga jalb qiladigan, uni yuqori lavozimga munosibligini ko'rsatadigan voqealar bayon qilinadi. Tarjimai holda nomzod qiyofasiga mos voqealarni yoritishga alohida e'tibor beriladi.

Saylov shtabining barcha targ'ibot-tashviqot ishlari nomzod imijini ochib berishga xizmat qiladi. Yoziladigan nutqlar, ko'rsatiladigan reklamalar, dasturlar nomzodning imijiga mos kelishi lozim. Ayni paytda, psixologlar ham nomzod imiji ustida jiddiy ishlashiga to'g'ri keladi. Chunki uning xatti-harakatlari, yurish-turishi, gap-so'zlari tanlangan qiyofaga mos kelishi lozim. Kishilar nomzodning faqat so'zlariga qarab emas, balki o'zini tutishiga qarab ham baho beradilar. Uning ruhiy holati, his-hayajonlari kishilarning xotirasida² o'rnashib qoladi. Nomzodning harakatlari uning imijiga mos kelishi uchun tajribali psixologlar kuzatuvda maxsus psixotreninglar o'tkaziladi. Televideniyaedagi va boshqa uchrashuvlardagi muhim chiqishlar oldindan mashq qilinadi. Mashq davomida nutqning mazmuni, qayerda ovozni balandlatib, qayerda pastlatish kerakligi mashq qilinadi, kiyim-

² Inson bosh miyasining ongosti soiasi bo‘lib, unda kishining iayoti davomida ko‘rgan-bilgan axborotlari saelanadi. Imijmeykerlar ko‘pincha xuddi shu ongorti soiaga murojaat eiladilar. Chunki kishi earor eabul eilishda ongorti soiadan keladigan impulslardan (masalan, nomzod unga shunchaki yoedi yoki yoemadi) kelib chi^{oo}an ³olda iarakat eiladi.

² M.Tetcherning siyosiy konsultanti B.Bryusning eslashicha, saylovoldi kompaniyasida ular televideniya yoritilishi mumkin bo‘lgan Tetcher bilan bojlie voeyealar dasturini tuzib chieeanlar. Kampaniya tashkilotchilari, iattoki, bu voeyealar kechki dasturlarda yoritilishi uchun eachon sodir bo‘lishi kerakligini iam nazarda tutganlar. Shunday eilib, deyarli iar kuni teletomoshabinlar M.Tetcherning goi yangi moslamada yuragini tekshirtirayotganiga, goi yangi tujilgan buzoechani silayotganiga, goi ayollarga ko‘ylak tikishni o‘rgatayotganligiga guvoii

bosh tanlanadi. Biror qiyofaga kirish, ko‘pchilik oldida o‘zini tutib turish mashaqqatli ish bo‘lib, kishini ruhiy toliqtiradi. Nomzod imijini shakllantirishda mayda narsalarga ham e‘tibor berish lozim. Chunki yo‘l qo‘yilgan kichik xatodan ham raqiblar ustalik bilan foydalanishlari mumkin.

3. Saylov kampaniyasi strategiyasi va taktikasi

Saylov kampaniyasida texnologik usullarni qo‘llash saylovoldi kurash taktikasiga bog‘liq bo‘ladi. Taktikaning maqsadi saylovchilarga zaruriy axborot yetkazish yo‘li bilan ularning nomzodni qo‘llabquvvatlashiga, nomzodga ijobiy munosabat bildirishga va oxir-oqibat unga ovoz berishlariga erishishdir. Saylovoldi kurashning strategiyasi «nima qilmoq kerak?» savoliga javob bersa, uning taktikasi maqsadga erishish uchun «qanday choralar ko‘rmoq kerak?» savoliga javob berishi lozim.

Taktikani belgilash saylov kampaniyasi tashkilotchilaridan o‘z ishiga ijodiy yondashuvni talab etadi. Chunki har bir saylov kampaniyasida saylovchilar ovozini olish uchun yangi vositalar qo‘llash talab etiladi. Saylov kampaniyasini samarali tashkil etish uchun uning **asosiy yo‘nalishlarini** belgilab olish zarur.

Shiorlar yaratish ana shunday yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Shiorlar saylov kampaniyasi davomida barcha reklama roliklarida, plakatlarda takrorlanadi, kishilarga nomzodni eslatib turadi. Shiorlarda qisqa iboralarning

ishlatishi saylovchiga partiya yoki nomzodni, uning dasturiy maqsadini eslab qolish imkonini beradi. Shu bois, bu iboralar reklama chaqiriqlarida qaytariladi. Chunki shiorlar nafaqat nomzodni eslab qolish, balki uni boshqa nomzodlardan oson ajrata olish imkonini beradi. Demak, shiorda ishlatilgan ibora nomzod dasturidagi asosiy g'oyani ifodalashi, yodda qoladigan, qisqa va lo'nda bo'lishi lozim.

Ikkinchi asosiy yo'nalish - nomzod haqida axborot yetkazish uchun **bahona, sabab topishdir**. Hozirgi vaqtda jamoatchilikka har kuni yangi axborotlar yetkaziladi. Yangi axborotlar oqimi eski ma'lumotlarni kishilar xotirasidan o'chirib yuboradi. Saylovchilar yodidan ko'tarilmaslik uchun nomzodlar ko'p harakat qilishlari, televideniye, radio, gazetalarda axborot sifatida yoritishga arzigulik amaliy ishlar qilishlari kerak³.

Uchinchi asosiy yo'nalish sifatida **siyosiy reklama tayyorlash va uni tarqatishni** ko'rsatish mumkin. Ko'pincha, kishilar saylov kampaniyasi ishtirokchilarining barcha harakatlarini siyosiy reklama deb baholaydilar. Biroq faqat nomzodga ovoz berishni targ'ib qiluvchi nashrlarni, televideniye va radioda tayyorlangan mahsulotlarnigina siyosiy reklama deb atash mumkin. Bu - videoroliklar, radiatorliklar, plakatlar, internet, gazeta va jurnal sahifalaridagi reklamalardir. Saylov kampaniyasi tashkilotchilari o'zlari yaratayotgan reklamaning kishilarga qanday ta'sir ko'rsatayotganini doimo kuzatib borishi zarur. Avvalo, har qanday reklama nomzodning strategik g'oyalari mohiyatini ochib berishi lozim. Reklama nafaqat poligrafik jihatdan yuqori sifatli bo'lishi, balki nomzod imijiga ham mos kelishi lozim. Ikkinchidan, reklama e'tiborni tortishi zarur. Shundagina odamlar billboardni sinchiklab ko'rishlari, varaqani oxirigacha o'qib chiqishlari, videorolikni zerikmay tomosha qilishlari mumkin. Uchinchidan, reklama kishilarni biror-bir harakatga undashi ham muhim sanaladi. To'rtinchidan, tarqatib qilinayotgan nomzod kishilarning xotirasida

uzoq vaqt saqlanishi, ularda yaxshi taassurot uygʻotishi kerak. Shundagina reklama saylovchilarning elektoral feʼl-atvoriga taʼsir koʻrsatishi mumkin.

boʻlishgan.

Reklama samaradorligini oshirishda uning tayyorlanishiga ham eʼtibor beriladi. Masalan, plakatni tayyorlashda uning hajmi, rangi, qogʻoz sifati, harflarning kattaligi, nomzod suratining joylashtirilishi, partiya ramzining kattaligini inobatga olish muhim. Reklama roliklarini tayyorlashda harakatchanlik, orqa fon, tasvirlar va musiqani eʼtibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Saylovoldi kampaniyasining toʻrtinchi asosiy yoʻnalishi **nomzodning saylovchilar oldida nutq soʻzlashi** bilan boʻliq. Bunday uchrashuvlarni toʻgʻri tashkil etish yaxshi samara beradi. Chunki nomzod saylovchilar bilan uchrashganida ular bilan yuzma-yuz koʻrishib, muloqotga kirishadi va bu bilan elektoratning ishonchini qozonish imkoniyatiga ega boʻladi. Ammo bunday uchrashuvlar nafaqat nomzoddan yetakchilik mahoratini talab etadi, balki uning jamoasini ham ter toʻkishga majbur qiladi. Ular uchrashuvdan avval kishilarning kayfiyati, muammolarini oʻrganadi, qulay savol beradigan kishilarni oldindan tayyorlab qoʻyadi. Bunday uchrashuvlar kishilarda yaxshi taassurot uygʻotishi uchun ularga ruhiy taʼsir koʻrsatiladi (masalan, zalda notiqning ayrim gaplariga «qoyil qolib», luqma tashlab, uni qoʻllab-quvvatlab turuvchi kishilar oʻtiradi). Saylovoldi kampaniyasini tashkil etishda qator ishlar amalga oshirilgani bois, ularni doimo tartibga solib turish lozim. Nomzodning jamoasi qilinadigan vazifalarni oldindan rejalashtirib, oʻzaro kelishib olishi saylovoldi kampaniyani pala-partishlikdan saqlaydi.

Zamonaviy jamiyatda saylovoldi kampaniyalari keskin raqobat ruhida oʻtadi. Bu raqobat uch yoʻnalishda amalga oshiriladi:

- nomzodning ijobiy imijini yaratish;
- raqiblarni tanqid qilish va kamchiliklarini fosh etish;

- nomzodning kuchsiz jihatlarini raqiblar tajovuzidan himoya qilish.

Bu uch yoʻnalishning qay birini tanlash nomzod va uning jamoasiga bogʻliq. Odatda, birinchi yoʻnalishni amaliy ishlari bilan saylovchilarga tanish boʻlgan nomzodlar, hokimiyat tepasida turgan partiyalar tanlaydi. Ikkinchi yoʻnalish esa koʻproq muxolifatdagi partiya va nomzodlarga xos. Agar nomzod saylovoldi kampaniyasining uchinchi yoʻnalishini tanlasa, bu uning zaifligini koʻrsatadi. Uchinchi yoʻnalishni tutgan nomzod magʻlubiyatga mahkum. Chunki kishilar tafakkurida «oʻzini oqlayaptimi, demak aybdor» qabilidagi fikr shakllangan.

Koʻp hollarda nomzodlarning bir-birini tanqid qilishi ochiqdanochiq «obroʻsizlantiruvchi kurash»ga aylanib ketadi. Nomzodlar raqiblariga turli ayblar qoʻyadi. Bu bilan ularning ruhiy muvozanatini buzmoqchi boʻladi. Natijada, raqiblar xatoga yoʻl qoʻyib, oʻzini oqlay boshlaydi, hissiyotga berilib, oxir-oqibat saylovda yengiladi. Shu sababli, saylov kampaniyasi tashkilotchilari oʻz xatolarini yaxshi bilishlari, raqibini sinchiklab oʻrganishlari lozim.

Afsuski, koʻpincha saylovoldi kampaniyalarida «qora texnologiyalar» ham qoʻllaniladi. Masalan, saylov kampaniyalarida raqiblar obroʻsini toʻkadigan axborot tarqatilishi hozirgi kunda yangilik emas. Bunga avvaldan hozirlik koʻrib, raqibning tarjimai holi sinchiklab oʻrganilmoqda. Uning shubhali kishilar bilan aloqalari, yoʻl qoʻygan xato-kamchiliklari aniqlanib, oshkor etilmoqda. Saylovning bunday “qora” texnologiyalarini qoʻllyotganlar raqibga hamla qilishda vaqtni eʼtiborga oladilar. Chunki aybnomalar saylovdan ancha ilgari eʼlon qilinsa, vaqt oʻtishi bilan odamlar yodidan chiqib ketishi mumkin. Shu bois, bu kabi obroʻsizlantiruvchi harakatlar saylovga oz qolganida amalga oshirilmoqda, shunda raqib oʻzini oʻnglab olgunicha saylov kuni yetib keladi. Taassufki, raqibning obroʻsini toʻkishga yetarli dalillar topilmaganida, u gapirayotganida tutilib qolgan, duduqlangan, esnayotgani tasvirlangan kadrlar topilib, xalqqa koʻrsatilmoqda. Bundan tashqari, raqibning obroʻsini toʻkadigan dalillar toʻplab oʻtirmay, unga ochiqdanochiq tuhmat qilish hollari ham yoʻq

emas. Saylovchilarni sotib olish, raqibning familiyadoshlarini topib, ular yordamida nomzodni obro'sizlantirish, targ'ibot taqiqlangan kunlarda raqib nomidan varaqa tarqatish ham «qora texnologiyalar»ga misol bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, saylov texnologiyalari - siyosiy maqsadga yo'naltirilgan saylov kampaniyasini samarali o'tkazish usullari yig'indisidir. Bu kampaniyaning samarali tashkil etilishi, avvalo, mavjud vaziyat qanchalik chuqur o'rganilganiga, ikkinchidan, saylovchilarga ta'sir ko'rsatishning qanday yangi usullaridan foydalanilganiga va kishilarning muammolariga qay darajada e'tibor berilganiga bog'liqdir.

Prezident Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga hamda Prezident saylovlari arafasida: «Urra-urrachilik, yashasinchilik kayfiyati, bugungi siyosatni orqa-o'ngiga qaramay faqat maqtash bilan hech narsani hal qilib bo'lmaydi. Birorta ham muammo yechilmaydi. Shuni barchamiz yaxshi anglab olishimiz zarurki, ayni vaqtda minbarbozlik, mitingbozlik, turli xil havoyi baqiriq-chaqiriqlar bilan ham biror tup daraxt ko'karib yoki birorta imorat bitib qolmaydi.

3-mavzu. Siyosiy menejmentda siyosiy kompaniya va jarayon.

Siyosiy maslahatlashuvning siyosiy menejmentda tutgan o'rni.

Siyosiy qaror qabul qilishning siyosiy menejmentdagi roli. Reja

- 1. Davlat boshqaruvi sohasida qarorlar qabul qilish.*
- 2. Davlat siyosatini shakllantirish texnologiyalari*
- 3. Siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining bosqichlari.*

1. Davlat boshqaruvi sohasida qarorlar qabul qilish

Siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoni siyosat subyektlarining davlat hokimiyati bilan bog'liq maqsadlarga erishish yo'lidagi sayharakatlari

yig'indisidan iborat. "Qarorlar qabul qilish" atamasi ilk bor XX asrning 30-yillarida amerikalik olimlar CH.Bernard, E.Stin va boshqalar tomonidan qo'llanilgan. O'sha paytda ular ijtimoiy va tashkiliy jarayonlarni nomarkazlashtirishni ta'riflashda bu atamadan foydalanishgan. XX asrning 60-yillarida esa bu nazariya G.Saymon va D.March tomonidan yanada rivojlantirildi. Hozirgi kunda iqtisod, sosiologiya, siyosiy fan, ijtimoiy jarayonlarni modellashtirish nazariyasi doirasida ushbu nazariyaning turli yo'nalishlari ishlab chiqilmoqda.

Ijtimoiy jarayonlarning xilma-xilligi tufayli fanda qarorlar qabul qilishning universal va yagona algoritmi²ni ishlab chiqish masalasi ko'tarilmagan. Buni ushbu hodisaning turlicha talqin qilinishi bilan tushuntirish mumkin. Ta'riflarga ko'ra, siyosiy qarorlar qabul qilish:

- 1) maxsus aqliy va tashkiliy "mahsulot" olishga qaratilgan harakatlarning muayyan texnologik zanjiridir;
- 2) konkret subyektlarning manfaatlarini ro'yobga chiqarish usulidir;
- 3) maqsadga erishish strategiyasi va taktikasini tuzatishni nazarda tutadigan xitloflarini bartaraf etish usulidir va h.k.

Bugungi kunda siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonini tavsiflovchi ikki xil yondashuvni ajratish mumkin. *Meyoriy yondashuv* namoyandalarining fikricha, qarorlar qabul qilish jarayoni - oqilona maqsadlar qo'yish va ularga erishishning eng maqbul vositalarini ilgari surishga xizmat qiladi (R.Abelson, A.Levi). Bunday qarashlar insonni o'zi uchun maqbul, foydali va samarali qarorlar qabul qilishga qodir ongli mavjudot sifatida tushunishdan kelib chiqadi. Shunday qilib, qarorlar qabul qilish jarayoni mavjud muammoni o'rganish, uni baholash, muammo yuzasidan biror qarorga kelish hamda kutilayotgan ijobiy natijaga erishish bilan bog'liq harakatlarni bir-biri bilan uzviy bog'lab qo'yadi.

² Algoritm - muammoni ³al qilish dasturi b'olib, eaysi ³arakatlar eanday ketma-ketlikda amalga oshirilganida natijaga erishish mumkinligini anie belgilab beradi.

Fe'l-atvor bilan bog'liq yondashuv namoyandasi G.Saymon inson oldida turgan maqsadni nihoyatda murakkab deb bilib, uni muayyan uslublar yordamida tavsiflab bo'lmaydi, deb hisoblaydi. Boz ustiga, muammolarning yechimini beradigan usullarning muqobillari shu qadar ko'pki, inson ularning barchasi bilan tanishish, ularni anglashga ojizlik qiladi. Shu bois, qarorlar qabul qilish - vaziyatga bog'liq jarayon bo'lib, muayyan muammoning o'zgarishiga qarab uni hal qilish vositalari ham o'zgaradi ³. Biroq amaliyotda, ko'pincha, har ikkala modelning afzalliklarini o'zida ifoda etuvchi yaxlit yondashuvdan keng foydalaniladi.

Qarorlar qabul qilishda qo'llaniladigan texnologiya va mexanizmlar:

- 1) sifat jihatidan muayyan ko'rinish va shaklga ega jarayonlarga;
- 2) ushbu jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlariga;
- 3) mazkur jarayonlar kechayotgan sohaga;
- 4) bu jarayonlarda ishtirok etayotgan subyektlarga;
- 5) barqaror shart-sharoitlarga va boshqa omillarga bevosita bog'liqdir.

Shundan kelib chiqib, *korporativ sektorda* (alohida muassasalar darajasida), *ommaviy munosabatlarda* (ijtimoiy sektorda) va *davlat boshqaruvida* qarorlar qabul qilishning o'ziga xos xususiyatlari farqlanadi. Davlat boshqaruvi sohasida qarorlar qabul qilish nihoyatda muhim bo'lib, millionlab kishilarning taqdiriga ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi.

Hokimiyat organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarda siyosiy kuchlar nisbati, millatlar va turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlari o'z ifodasini topadi. Shu bois, davlat boshqaruvi sohasi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu ham tasodifiy emas, chunki davlat mamlakatning siyosiy yo'nalishini belgilashdan tortib, to oddiy fuqaroning murojaatiga javob berishgacha bo'lgan juda keng

³ Carang: Pankett L., Xeyli G. Virabotka i prinyatiye upravlencheskix resheniy. -M., 1984.

qamrovli ishlarni amalga oshiradi. Qarorlar qabul qilish jarayoni ko'p jihatdan davlat boshqaruvining qonuniyligiga bog'liqdir. Buni davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning huquqiy asosi bor-yo'qligiga qarab aniqlash mumkin. Bunda davlatning, avvalo, jamiyatga xizmat qilishi nihoyatda muhim hisoblanadi.

Shu bilan birga, jamiyat faqat boshqaruvning ko'lamini belgilab bermaydi, balki qarorlar qabul qilishda ishtirok etish imkoniyatlariga ham ega bo'ladi. Boshqacha aytganda, siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonida nafaqat shu sohaning mutasaddilari, balki jamoat tashkilotlari, ommaviy uyushmalarning vakillari ham ishtirok etadilar. Shu bois, davlat darajasida qarorlar qabul qilish professionallar va jamoatchilik o'rtasidagi muloqot shaklida amalga oshiriladi. YA'ni, bu jarayonda boshqaruvchilar ham, boshqariluvchilar ham ishtirok etadilar. Davlat nomidan qaror qabul qiluvchi (vazifalarni belgilab beruvchi va harakatlar uchun javobgar) shaxslarni aniqlaydigan bo'lsak, ular:

- 1) davlat boshqaruvining ma'muriy organlari vakillari;
- 2) siyosiy elitaning turli (hukmron va muxolifatdagi) guruhleri;
- 3) maslahatchi va ekspert-mutaxassislar;
- 4) turli jamoat tashkilotlari (partiyalar, bosim guruhleri, OAVlari) vakillaridan iborat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Bu subyektlarning manfaatlari, his-tuyg'ulari va istaklari birbiridan farqlangani bois, qarorlar qabul qilish jarayonida ular to'qnashadi. Ba'zan qarorlar qabul qilish jarayoniga norasmiy usullar bilan ham bosim o'tkazishga harakat qiluvchi kuchlar paydo bo'ladi. Natijada, qarorlar qabul qilish jarayoni manfaatlarni uyg'unlashtirish, har bir tarafning maqomi va resurslarini tenglashtirish jarayoniga aylanib ketadi.

Davlat qarorlarini qabul qilish jarayoniga jamiyatdagi iqtisodiy, informasion, moliyaviy va boshqa resurslarni boshqaruvchi kuchlarning manfaatlarini o'zida

ifoda etuvchi bosim guruhlari ⁴ sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular, odatda, mamlakatning siyosiy yo'nalishini belgilab bermaydi, biroq o'z sohalariga oid qarorlarni qabul qilishga ta'sir ko'rsatadi. Tajribaning ko'rsatishicha, deyarli barcha mamlakatlarda bosim ko'rsatishning turli vositalaridan foydalaniladi. Bu vositalarning qanday bo'lishi esa davlat tomonidan bosim guruhlari qanchalik boshqarilishiga bog'liq bo'ladi. Masalan, Fransiyada lobbizm taqiqlangan, AQShda esa ularning faoliyati qonun orqali qat'iy belgilab berilgan. Rossiyada esa bugungi kunda davlat organlariga muttasil ta'sir ko'rsatuvchi "yovvoyi lobbi" shakllanganligini kuzatish mumkin.

Davlatning qarorlar qabul qiluvchi siyosiy markaz sifatidagi asosiy vazifasi - davlat tuzumini, mustaqillikni hamda hududiy yaxlitlikni saqlashdan iborat. Davlat maksimal darajada siyosiy hokimiyatga ega bo'lsa-da, qarorlar qabul qilish jarayonida o'z hokimiyatini boshqa siyosiy institutlar bilan "bo'lishishi"ga to'g'ri keladi. AQShning sobiq davlat kotibi G.Kisinjerning ta'kidlashicha, qarorlar qabul qilish aqliy faoliyatdir. U Jon Kennedining davlat mahslahatchisi lavozimida ishlagan vaqtida "Qaror qabul qilish uchun kishi prezidentning kabinetiga kirib, o'zining haqligiga uni ishontira olsa bas", deb hisoblar ekan. Ammo vaqt o'tgach, qarorlarni bunday usulda qabul qilish keng urf bo'lgan bo'lsa-da, u mukammal emasligini tushunib yetadi.

Umuman olganda, davlat qarorlar qabul qiluvchi subyekt sifatida jamiyat rivojining pirovard maqsadlarini belgilovchi hamda butun boshqaruv tizimiga rahbarlik qiluvchi organ sifatida namoyon bo'ladi. Uning boshqaruvchilik imkoniyatlarini bosim ko'rsatuvchi kuchlar, jamiyatda shakllangan axloqiy an'analar, sud hokimiyati, jamoatchilik fikrining ta'siri chegaralab turadi.

Ta'kidlash joizki, davlat qarorlar qabul qilish jarayonida *makroiqtisodiy boshqaruv organi* sifatida ham ishtirok etadi. Bunda hokimiyatni saqlab qolish emas, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash davlatning

⁴ Bosim guruhlari – lobbi.

asosiy vazifasi hisoblanadi. Ushbu jarayonda hukumat ijtimoiy-siyosiy maqsadlarni qadriyatlar bilan huquqiy jihatdan uyg'unlashtirishi hamda barcha resurslarni samarali xo'jalik yuritishga safarbar etishi zarur. Qonuniylik, oqilonalik hamda iqtisodiy samaradorlik - qarorlar qabul qilishdagi asosiy mezonlardir. Bu bosqichda davlat boshqaruvi oqilona maqsad va vazifalarni belgilashga, kam vositalarni sarflash evaziga maksimal natijaga erishishga qaratilgan bo'ladi.

Qarorlar qabul qilish jarayoniga *ma'muriy darajada* ham o'ziga xos hissa qo'shiladi. Bu bosqichda davlatning asosiy vazifasi - iyerarxik aloqalar bilan bog'liq vazifalarni amalga oshirish hamda sog'liqni saqlash, maorif va boshqa sohalarda aholiga xizmat ko'rsatishdan iborat. Shu maqsadda davlat organlari hukumatning oliy darajadagi farmoyishlarini ma'muriy hujjat - ko'rsatmaga aylantiradi, xodimlar va jamoalarni farmoyishlarni bajarishga safarbar qiladi. Ushbu vazifalarni amalga oshirish chog'ida davlat tuzilmalari xizmat ko'rsatmalariga amal qiladi, ichki kodekslariga bo'ysunadi, professional bilimlaridan foydalanadi. Bunda davlat o'z fuqarolariga davlat organlaridan biror tovar yoki xizmatni sotib olayotgan mijoz sifatida munosabatda bo'ladi. Boshqacha aytganda, davlat boshqaruvining ushbu "ma'muriy bosqichi" muayyan qaror qabul qilish jarayoniga jalb etilgan qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatlarining o'zaro munosabatlarini, qarorlar va loyihalarning tayyorlanishini, ichki idoraviy muhokamalarni va shu sohadagi boshqa munosabatlarni o'zida ifodalaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan bosqichlardan tashqari *o'zini o'zi boshqarish* qarorlar qabul qilish tabiatiga ta'sir ko'rsatadi. O'zini o'zi boshqarish tufayli qarorlar qabul qilish jarayoniga davlat aralashuvining cheklanishi, ba'zi muammolarni hal qilish davlat yelkasidan soqit qilinishi, bu vazifalar turli jamoat birlashmalari zimmasiga yuklanishi mumkin.

Davlat boshqaruvining yuqorida sanab o‘tilgan bosqichlari shuni ko‘rsatadiki, qarorlar qabul qilishda maqsadlarni belgilash turlicha mantiqqa bo‘ysundiriladi, turlicha sabablarga asoslanadi. Davlat mas‘uliyati doirasidagi har qanday sohada qabul qilingan qarorlarda turli xil, ba‘zan bir-biriga zid yondashuvlar inobatga olinadi. Bular davlat va jamiyat o‘rtasida o‘ziga xos muvozanatni saqlashga, qabul qilingan qarorlarning samaraliligini oshirishga, boshqaruv organlarining kuch-qudrati va professionalizmini namoyish etishga xizmat qiladi.

2. Davlat siyosatini shakllantirish texnologiyalari.

Davlat siyosati ijtimoiy, iqtisodiy, mudofaa va jamiyatning boshqa sohalariga oid muammolarni hal qilishda, hokimiyatni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda namoyon bo‘ladi. Nazariyotchi olim J.Anderson: “Davlat siyosiy yo‘nalishini ishlab chiqish jarayoni – faoliyatning muayyan ketma-ketlikdagi sxemasidir. Bunda eng muhim muammolar aniqlanadi, siyosiy yo‘nalish belgilanadi, bu yo‘nalish tasdiqlanadi, uni amalga oshirishga kirishiladi hamda faoliyat natijalari baholanadi⁵”.

Davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish texnologiyalari davlat boshqaruvining tabiatiga, davlatning moliyaviy imkoniyatlariga va boshqa qator omillarga bog‘liq ravishda tanlanadi. Bundan tashqari, siyosiy qarorlar qabul qilishning **bashorat qilish, rejalashtirish, dasturlashtirish** kabi texnologik bo‘g‘inlari ajratiladi. Ular davlat siyosatini ishlab chiqish, manfaatlar uyg‘unligiga erishish, maqsad va vositalarni aniqlashga qaratilgan bo‘ladi.

Siyosiy bashorat siyosatning kelgusi rivojini taxminiy ko‘ra bilish shakli bo‘lib, unda hozirgi paytdagi voqealarning kechishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar inobatga olinadi. Boshqacha aytganda, bashorat qilish - kelajakni aks ettirishning taxminiy va loyihaviy uslublaridan biridir. Kelajakka bunday nazar tashlash

⁵ Anderson J.E. Publik Policymaking. Boston. Houghton Mifflin, 1990. P.35.

nafaqat ilmiy tavsiyalarni, muayyan sohada orttirilgan tajribalarni o'rganishni, balki loyihalarni amalga oshiradigan kishilar haqida ham ma'lumotga ega bo'lishni talab etadi.

Bashorat qilishda obyektiv omillar bilan (masalan, aholining turmush darajasi) subyektiv omillar (boshqaruvchilar ko'zlagan maqsadlar) teng ko'riladi. Bu omillarning uy¹/₄unlashuvi, birinchi navbatda, muammoning hududiy jihatlarini hisobga olishni talab etadi. Bunda tahlil qilayotganlar muammolarni hal qilishga davlatning aralashuvi (yoki aralashmasligi) shu hududda yashovchi aholi uchun qanday oqibatlar keltirib chiqarishini o'rganishlari lozim.

Bashorat tarkibida voqea-hodisalarning ham retrospektiv (o'tmishga qaratilgan), ham perspektiv (kelajakka qaratilgan) baholarini ko'rish mumkin. Ushbu tarkibiy qismlarning nisbati bashorat qilishning *izlanish* tabiatiga yoki *meyoriy* tabiatiga qarab o'zgarishi mumkin. Izlanish tabiatiga ega bashorat qilishda taraqqiyotning ehtimol tutilgan yo'nalishlari aniqlanadi, mavjud vaziyatning kelgusidagi o'zgarishi oldindan tahlil qilinadi. Bunda "bugundan kelajakka qarab" mantig'iga amal qilinadi. Meyoriy bashorat esa ongli ravishda qo'yilgan maqsadlarga eltuvchi aniq harakatlarni belgilash bilan bog'liq. YA'ni, unda maqsadga erishishning ustuvor yo'nalishlari belgilanadi, subyektlarning fe'l-atvor usuli aniqlanadi. Bunda "kelajakdan bugunga qarab" mantig'iga amal qilinadi.

Bashoratning har ikkala shaklida ham turli xil uslublar qo'llaniladi. Biroq eng muhimi - *voqealar rivojining ssenariysini* tuzishdir. Mohiyatan ssenariotexnika voqelarning taxminiy rivojini qadamma-qadam tavsiflash imkonini beruvchi asosiy texnologik vosita hisoblanadi. Bu uslub harakatning muqobil variantlarini topish, voqealar rivojidadagi burilish nuqtalarini izlashni ham o'z ichiga qamrab oladi. Vazifalarning turi, ko'lami va bajarilish muddatiga ko'ra ssenariylar:

- 1) voqea-hodisalarga insoniy munosabatni aks ettiruvchi erkin shakldagi publisistik esse shaklida;
- 2) voqealar-hodisalar haqidagi asosiy ma'lumotlarni, ularning rivojlanish tendensiyalarini qisqacha izohlovchi tahliliy tadqiqot ko'rinishida;
- 3) miqdoriy asoslangan fikrlarni umumlashtirish natijasida tayyorlangan rasmiy axborot shaklida tayyorlanishi mumkin. Bashorat qilish - maqsadlarning tabiati va ko'lamini aniqlashdan boshlanib, dastlabki taxminlarni belgilashdan asosiy tahminiy modelni qurishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga qamrab oladi.

Davlat siyosatining maqsadi va tabiati bashoratning ko'lamini belgilab beradi. Ushbu belgiga ko'ra, bashoratlarning quyidagi turlari ajratib ko'rsatiladi:

- 1) makroiqtisodiy darajadagi bashorat;
- 2) hududiy darajadagi bashorat;
- 3) alohida muassasa, tashkilot darajasidagi bashorat;
- 4) alohida xizmat turini taklif etishga oid bashorat va h.k.

Bundan tashqari, bashoratlar uzoq va o'rta muddatga mo'ljallangan, qisqa muddatli hamda operativ (tezkor) bashoratlarga ajratiladi.

Rejalashtirish ham kelajakni taxminiy ko'ra bilishning bir ko'rinishi bo'lib, maqsadga erishish yo'lida muayyan sharoitda va aniq vaqt davomida harakat qilayotgan subyektlarning faolligi va majburiyatlarini o'zida ifoda etadi. Bu o'ziga xos loyihalashkonstruktorklik faoliyati bo'lib, uning maqsadi – maqsadli istiqbolni tasvirlab berish hamda bugungi kunda qabul qilinayotgan qarorlarning kelgusidagi vaziyatga ta'sirini hisobga olishdan iborat.

Rejalashtirishda davlat muassasalarining tashkiliy tuzilishiga doir takliflar beriladi, alohida shaxslar (kadrlar)ning faoliyati belgilanib, foydalaniladigan resurslar aniqlanadi va ijro ustidan nazorat qilish uchun meyorlar ishlab chiqiladi. Davlat siyosatini bunday ishlab chiqishda bashoratga xos kamchilik -

vaziyatdagi noaniqlik bartaraf etiladi. Rejalashtirishda maqsad va vazifalarni belgilashga birinchi darajali ahamiyat beriladi.

Rejalashtirish texnologiyalari rejalashtirishning strategik yoki taktik tabiatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, strategik rejalashtirishda uzoq vaqtga mo'ljallangan harakatlar belgilanadi, vaziyatga ta'sir ko'rsatuvchi turli omillar hisobga olinadi, oqibatlarini oldindan ko'ra bilishga urg'u beriladi. Biroq tajriba davlat doirasida o'rta muddatli va qisqa muddatli rejalashtirishning ancha samarali ekanligini ko'rsatadi.

Davlat siyosatini shakllantirishning yana bir texnologik usuli *dasturlashtirishdir*. Dasturlashtirish muayyan muammoni hal qilishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar yig'indisidan iborat bo'lib, unda maqsadli vazifalar va ularga erishish yo'lidagi faoliyat hajmlari qat'iy belgilangan bo'ladi. Dasturlashtirishda aniq maqsadga erishish jarayonini uyushtirish, byudjetdan moliyalashtirish, turli sheriklarning harakatlarini muvofiqlashtirish, jarayon haqida axborot berib borish masalalarini hal qilish talab etiladi.

Dasturlashtirishda foydalaniladigan texnologiyalar uchun yagona uslubiy asosni yaratish muammosi asosiy hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan yagona meyoriy negizni yaratish, jarayonni institutlashtirish va, eng asosiysi, vazifalarni hal etish jarayonini uzluksiz moliyalashtirishni ta'minlash dasturlashtirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, davlat siyosatini texnologik ta'minlashning bu turi uchun moliyalashtirish jarayoni hamda jamoadagi harakatlarni uyushtirish ustuvor ahamiyatga ega.

Davlat siyosatini shakllantirishning mazkur texnologiyalari aniq davlat dasturlarida o'z ifodasini topadi. Bu dasturlar idoralararo muammo va vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan bo'lishi, shuningdek muayyan muassasa yoki idora tomonidan hal qilinadigan muammolarning yechimiga qaratilgan bo'lishi ham mumkin.

Davlat siyosatini shakllantirish texnologiyalari ko‘p jihatdan xavf-xatar⁶ larning oldini olishga qaratilgan bo‘ladi. Xavf-xatar ijtimoiy jarayonlarni boshqarish bilan bog‘liq har qanday faoliyatga xos universal xususiyat hisoblanadi. Mohiyatan, subyektlarning qo‘yilgan maqsadlardan chetlashishi ham xavf-xatar hisoblanadi. Yoxud boshqaruv tizimi uchun zararli oqibatlar ehtimolining o‘shishi ham xavf-xatar sanaladi.

Xavf-xatarlarni tug‘diruvchi sabablar turli-tumandir. Ko‘pincha quyidagi omillar xavf-xatarlarni keltirib chiqaradi:

- 1) faoliyatning aniq taxminiy modelini yaratish mumkin emasligi;
- 2) mazkur taxminiy modellarni ro‘yobga chiqarish oqibatlarini oldindan ko‘ra bilmaslik;
- 3) boshqaruvchilar faoliyatining ijodiy tabiatga ega ekanligi;
- 4) boshqaruvchilar bilim darajasining cheklanganligi;
- 5) jamoatchilikning hukumat maqsadlari va rejalarini tushunib yetmasligi;
- 6) qarorlarning puxta o‘ylanmaganligi.

Xavf-xatarlarni oldindan ko‘ra bilish qarorlar qabul qilish jarayonidagi alohida faoliyat bo‘lib, unda maqsadni ro‘yobga chiqarishga ta’sir ko‘rsatuvchi xavf-xatarlarning oldini olishga qaratilgan texnologiyalar qo‘llaniladi.

Xavf-xatardan himoya qiluvchi texnologiyalar xavf-xatarlarning tabiatiga (global⁷ va lokal¹⁰ xavf-xatarlar) bog‘liq holda tanlanadi. Masalan, ba’zi mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan xavf-xatarlar reytingini tuzish amaliyoti qo‘llaniladi. Boshqa davlatlarda texnologik yoki ekologik fojealar keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar aniqlanadi. Biroq davlat boshqaruvida qo‘llaniladigan texnologiyalar, asosan, boshqaruv tizimini xavfxatarlardan saqlashga, kutilmagan uzilishlar va salbiy holatlarning

⁶ Xavf-xatar – risk.

⁷ Global – umumbashariy, insoniyatga taallueli. ¹⁰

Lokal – mailliy, ma’lum bir joyga xos.

oldini olishga, boshqaruvchilarning subyektiv xatolarini oldini olishga qaratilgan bo‘ladi.

Shunday qilib, davlat boshqaruvida asosiy xavf-xatarlarning oldini olishda gumanitar yoki intellektual texnologiyalar qo‘llaniladi. Bu texnologiyalar xavf-xatar omillari va belgilarini farqlash imkonini beradigan taxliliy tizimdan iborat. *Xavf-xatar omillari* – xavf-xatar darajasi, uning ortishi yoki pasayishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan o‘zgaruvchan miqdordir. Turmush darajasining iqtisodiy ko‘rsatkichlari, ijtimoiy tengsizlik, dinlararo va millatlararo nizolarning ko‘rsatkichlari shular jumlasidandir. *Xavf-xatar belgilari* – vaziyatning ehtimoliy yomonlashuvi alomatlaridir. Xavfsizlik darajasining pasayishi, norozilik kayfiyatining kuchayishi va beqarorlikning avj olishi bunga misol bo‘la oladi.

Ushbu texnologiyalar muayyan voqea-hodisaning kechishi haqida, shuningdek, sodir bo‘lgan o‘zgarishlar, voqea rivojining yo‘nalishlari to‘g‘risida batafsil va to‘liq axborot olish imkonini beradi. Bu texnologiyalar maqsadga erishish jarayonining zaif jihatlarini topishga, ancha xavfsizroq muqobillarni tanlashga, og‘ir ahvolga tushib qolishning oldini olishga, xavf-xatar qiymatini aniqlashga, zararni zudlik bilan qoplash imkoniyatlarini topishga yordam beradi.

Ehtimol tutilgan xavf-xatarlarni baholash modellarini ishlab chiqishda turli uslub va texnikadan foydalaniladi. Ssenariylar texnikasi, mustaqil va davlat ekspertizalarining turli shakllari bunga misol bo‘la oladi. Bu jarayonda tavsiflovchi va baholovchi modellar muhim rol o‘ynaydi. Shu o‘rinda BERI, WPRF (xalqaro siyosiy xavf-xatarlarni bashorat qilish) usullariga alohida to‘xtalish joiz. Bu usullar yordamida o‘rganilayotgan jarayonning barcha muhim ko‘rsatkichlari tavsiflanadi. Masalan, makrodarajada, ya’ni jamiyat darajasidagi xavf-xatarlarni baholash uchun qator omillar - siyosiy barqarorlikdan tortib, to mahalliy o‘zini o‘zi boshqaruv jarayonlarigacha o‘rganiladi. Mamlakatdagi xavfxatarlarni pasaytiruvchi omil sifatida matematik metodlardan ham keng

foydalaniladi. A.Dauns tomonidan taklif etilgan saylovlarda saylovchilarning ishtirok etishi dinamikasini hisob-kitob qilishni bunga misol tariqasida keltirish mumkin:

$$T = (P \times I \times B) + C - D.$$

Bunda T - saylovchilarning ishtiroki ko'rsatkichi, R - saylovlarga yaqinlashish darajasi, I - saylovlarning muhimligi darajasi, V – nomzodlar o'rtasidagi farq darajasi, S – saylovdagi ishtirokni ta'minlash uchun sarflangan harajatlar, D - saylovda ishtirok etishga ta'sir qiluvchi subyektiv omillardir⁸.

Tahliliy tadbirlardan tashqari qarorlar qabul qilishda sosial texnologiyalardan ham keng foydalaniladi. Bu texnologiyalar xavfxatarlarni kamaytirishga qaratilgan muayyan tashkiliy choralar ko'rishni nazarda tutadi. Xavf-xatarlarni baholovchi mutaxassislarining ijro tuzilmalaridan mustaqilligini kuchaytirish, muammoni hal qilishdan manfaatdor kishilar doirasini kengaytirish, muammoni baholashning oshkoraligini kuchaytirish shular jumlasidandir. Bunda jamoatchilik fikriga xavf-xatarlarning muqarrar ekanligini singdirish, makroboshqaruvning katta xarajatlar talab qilishini insonlarga tushuntirish ham muhim hisoblanadi. Natijada, boshqaruvda yo'l qo'yilgan xatolarga nisbatan salbiy munosabatning paydo bo'lish ehtimoli kamaytiriladi. Bundan tashqari, qarorlarga rasmiy tus berish, ularni qonuniylashtirish, meyor va tamoyillar nufuzini kuchaytirish ham muhim omil hisoblanadi.

Xavf-xatarlarning kuchayishi va davlat uchun inqirozli vaziyatlarning vujudga kelishi davlat boshqaruvida alohida texnologiyalardan foydalanishni taqozo etadi. Davlat organlari inqirozli vaziyatlarning oldini olishga xizmat qiladigan texnologiyalarni shakllantirish hisobiga inqirozlar bilan kurashadilar. Demak, davlat nafaqat vujudga kelgan inqirozlarga javob berishi, balki inqirozlarni oldindan ko'ra bilib, bunday jarayonlarga doimo shay turishi lozim. Inqirozli vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rish davlat boshqaruvining kadrlar

⁸ Carang: Politicheskaya nauka. Novije napravleniY. - M., 1999. 676-bet.

zaxirasini, texnik zaxirasini, axborot zaxirasi tizimini yaratishni taqozo etadi. Chunki bu zaxiralar asosiy boshqaruv markazlari ishdan chiqqan vaqtda qarorlar qabul qilish vazifasini o'z zimmasiga oladi.

Bu holat turli sohalarda ehtiyot choralari ko'rish zarurligini bildiradi. Bunda, avvalo, siyosiy-huquqiy sohada ish olib borish, ya'ni inqirozli va favqulodda vaziyatlarda boshqaruv tuzilmalari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar, hukumat qarorlari qabul qilinishi zarur. Bundan tashqari, inqirozli vaziyatlarga tayyorgarlik ko'rib, fuqarolarning hayotini kafolatlash maqsadida zarur zaxiralar to'plash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Inqirozlarning oldini olish texnologiyalari ko'p jihatdan shaxsga bog'liq bo'lib, ular siyosatchilar yoki boshqaruvchi elita tomonidan qo'llaniladi. Natijada, texnologiyalarning qo'llanishi yetakchilik uslubiga, boshqaruvchi elitaning tabiatiga, uning a'zolari faolligiga bog'liq bo'lib qoladi.

Davlatning inqirozlarini bartaraf etishga doir faoliyati uning partiyalar, muxolifat va xorijlik hamkorlar bilan munosabatlarini tartibga keltirishni taqozo etadi. Chunki ularning faoliyati davlatning inqirozlarni oldini olishdagi vositalari va usullarini sezilarli darajada cheklashi mumkin. Masalan, muxolifat, odatda, davlat tomonidan favqulodda vaziyatlar holati o'rnatilishiga doimo qarshi bo'ladi. Chunki bu holat konstitusion erkinliklarni cheklashi, muxolifatning hokimiyatga ta'sir qilishi va uni nazorat qilish imkoniyatlarini toraytirishi mumkin. Shu bois, muxolifatning bunday jarayonlarga ta'sirini inobatga olmaslik inqirozlarni yanada chuqurlashtirishi mumkin.

Inqirozlarning oldini olishning tezkor tabiatga ega texnologiyalarini shakllantirish uchun inqirozning turini (harbiy, moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va b.) aniqlash zarur. Ta'kidlash joizki, inqirozlar boshqaruv tizimi faoliyatini rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruv tizimiga tashqaridan bo'ladigan tahdidlar turlicha bo'lishi mumkin. Boshqaruv tizimidagi professional faoliyatda taranglikning kuzatilishi, faoliyatni tashkil etishda xarajatlarning ko'payib

ketishi, boshqaruv tizimining yaxlitligiga tahdidlar, boshqaruv tizimining jamiyat bilan o‘zaro munosabatlarining yomonlashishi shular jumlasidandir. Inqirozlarning oldini olish texnologiyalari vaziyatga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni aniqlashni ham taqozo etadi. Bu omillarning tabiati, yo‘nalishi va jaddalligi aniqlaganidan so‘ng boshqaruv tizimining amaliy harakatlarini belgilash mumkin bo‘ladi. Davlatdagi inqirozlar menejmenti, shuningdek, harakatlarni amalga oshirish muddatini qisqartirish bilan bog‘liq o‘zgarishlar qilishga undaydi. Masalan, vaziyatga tashhis qo‘yish hamda harakatlarning muqobil variantlarini ko‘rib chiqish muddatini qisqartirish shular jumlasidandir.

3. Siyosiy qarorlar qabul qilish jarayonining bosqichlari.

Qaror qabul jarayonida davlat tomonidan qo‘llaniladigan texnologiyalar mazkur jarayonning aniq bosqichlari bilan bog‘liq. Bu jarayonda boshqaruv faoliyati uchun muhim harakatlar amalga oshiriladi, turli manfaatlar muvofiqlashtiriladi, boshqaruvchilarning muayyan xatti-harakatlariga ruxsat beriladi, davlat boshqaruvida qo‘llaniladigan texnika va tadbirlar ketma-ketligi belgilanadi.

Prezident Islom Karimovning «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda» nomli asarida qaror qabul qilish jarayonining bosqichlari quyidagicha sharhlangan: «Barcha siyosiy o‘zgarishlarning o‘ziga xos asab tolalari bo‘lgan siyosiy qarorlar ishlab chiqish jarayoni bir qancha bo‘g‘inlarni o‘z ichiga oladi. Birinchi ana shunday bo‘g‘in sifatida siyosiy qarorlar qabul qiluvchi muassasalarga fuqarolarning siyosiy manfaatlarini taqdim etish bosqichini ko‘rsatish mumkin. Bu yerda manfaatlarni bir tizimga soluvchi turli xil uyushmalar, fuqarolar siyosiy ishtirokining turli shakllari namoyon bo‘ladi. Siyosiy jarayonning

ikkinchi bosqichi qarorlar ishlab chiqish va qabul qilish bilan belgilanadi. Siyosiy jarayonning uchinchi bosqichi qarorlarni amalga oshirish hisoblanadi»⁹.

Odatda, qaror qabul qilish jarayoni turli bosqichlarga ajratiladi. Noaniqliklarning oldini olish maqsadida uning **uch asosiy bosqichi**: tayyorgarlik, maqsadlarni belgilash bosqichi hamda ularni amalga oshirish bosqichlari ajratib ko'rsatiladi.

Tayyorgarlik bosqichida muammo aniqlanadi va tavsiflanadi. Bunda muammoni hal qilish uchun zarur ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi, hal qilinishi zarur muammolar ro'yxati tuziladi (kun tartibi belgilanadi), ular orasidan eng muhim muammolar ajratib olinadi hamda muammoni hal qilishda erishilgan yutuqlarni aniqlash mezonlari ishlab chiqiladi.

Mazkur bosqichda qo'llaniladigan texnologiyalar quyidagi sxemaga muvofiq amalga oshiriladi: vaziyatni tahlil qilish asosida muammo aniqlanadi, davlat muammoning mavjudligini tan olganidan so'ng quyidagi muqobil harakatlardan biri tanlanadi:

- 1) muammoga betaraf munosabatda bo'lish yoki unga nisbatan o'z nuqtai nazarini bildirib, boshqa harakatlardan o'zini tiyish;
- 2) muammoni hal qilish bilan bog'liq xatti-harakatlarni atayin orqaga surish;
- 3) muammoni hal qilish bo'yicha faol harakat olib borish. Agar davlat uchinchi yo'nalishni tanlasa, quyidagi harakatlardan birini amalga oshiradi:
 - vaziyatni chuqur tahlil qilmay turib, muammoni hal etishga qaror qiladi;
 - ixtilofni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash hamda uni hal qilishning eng samarali usullaridan birini tanlash maqsadida aniq harakatlar qilish orqaga suriladi;

⁹ jzbekiston XXI asrga intilmo^oda. – T., jzbekiston, 2000, 134-bet.

- muammoni hal qilishni boshqa bo‘g‘inlar (jamoat tashkilotlari)ga uzatish hamda vaziyatni yumshatishning tezkor choralari ko‘riladi.

Bashorat qilish, rejalashtirish hamda maqsadni amalga oshirish jarayonining uzluksizligi tufayli boshqaruv davrasining doiraviy modeli yuzaga keladi. Bu model vaziyatni tahlil qilish bilan ayni paytda "kun tartibini" belgilashni nazarda tutadi. Davlatning tahliliy tuzilmalari tomonidan vaziyatning muammo sifatida talqin etilishi uchun, albatta, huquqiy asos bo‘lishi kerak. Bundan tashqari, vaziyat barcha uchun tushunarli talqin qilinishi, ijtimoiy ixtiloflarning sabablari qayd qilinishi, zararli oqibatlari aniqlangan bo‘lishi zarur.

Tayyorgarlik bosqichining pirovard natijalari quyidagilardan iborat:

- 1) muammoli vaziyatning mavjudligi tan olinadi;
- 2) hal qilinishi zarur masalalarning muhimligi nuqtai nazaridan ularning iyerarxiyasi belgilanadi;
- 3) mavjud muammolar aniq tavsiflanadi. Qisman tushunilgan hamda noto‘g‘ri tavsiflangan muammolar davlat va uning fuqarolari uchun salbiy oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin.

Maqsadlarni belgilash bosqichida faoliyatning aniq maqsadlarini belgilash markaziy o‘rin egallaydi. Davlat siyosatining maqsadini ishlab chiqishda boshqaruv organlari muammoni hal qilishning turli muqobillarini tahlil qiladilar va ularni bir-biriga qiyoslaydilar. Natijada, har bir tanlangan variant bo‘yicha voqealarning kechishi modellashtiriladi. Bunda kamida uchta muqobil: maksimalistik, xavfsiz (betaraf) va minimal muqobillar ko‘rib chiqiladi. Bu muqobillarning har biri o‘zining “yuqori” va “quyi” chegaralariga ega bo‘ladi. Aynan shu chegaralarni aniqlash mazkur bosqichdagi asosiy tahliliy vazifa sanaladi.

Davlat boshqaruvida muammoli vaziyatlar va ularni hal qilish vazifalarining asosiy uch turi kuzatiladi. Shulardan birinchisi - *standart vazifalar*

bo‘lib, davlat vaqti-vaqti bilan bu vazifalarni hal qilishga kirishadi (masalan, kommunal xizmatlarni qishki mavsumga tayyorlash, hosilni yig‘ib olish va h.k.). Bunda ilgari amalga oshirilgan shu kabi ishlar tufayli to‘plangan tajriba, belgilangan muddatlar, qo‘llanilgan odatiy vositalar qo‘l keladi. Boz ustiga, qarorlarning ilgari qo‘llanilgan algoritmlaridan keng foydalaniladi. Odatda, bu turdagi vazifalar tezda maqsadga aylanadi.

Ikkinchi tur vazifalar - *zaif tuzilishga ega vazifalar* bo‘lib, ularni hal qilish bilan bog‘liq bashoratlar u qadar ishonchli natijalar bermaydi. Va, nihoyat, vazifalarning uchinchi turi - *tuzilishga ega bo‘lmagan vazifalar* (noan’anaviy vazifalar)dir. Bu vazifalarni obyektiv baholash mezonlari bo‘lmay, ular maqsad nuqtai nazaridan ham, vosita nuqtai nazaridan ham, ularni amalga oshirish sur‘atlari va resurslari nuqtai nazaridan ham tushunarsiz bo‘ladi. Bunda qaror qabul qilish uchun zarur bo‘lgan tarkibiy qismlarni aniq tavsiflab bo‘lmaydi va ular faqat voqealar rivojiga qarab namoyon bo‘ladi. Shu bois, bu turdagi vazifalarni hal qilish insondan ijodiy yondashuvni talab etadi. Bunda barchaga ma‘lum yondashuvlar va andozalardan voz kechish talab etiladi. Natijada, bunday holatlar bilan bog‘liq ravishda qabul qilingan qarorlar samaradorligi ancha past bo‘ladi.

Maqsadlarni aniqlash, muvaffaqiyat mezonlarini ishlab chiqish, vaziyatga miqdor va sifat jihatidan tavsif bera olish imkonini yaratadigan tahliliy uslublarni qo‘llash noan’anaviy vazifalarni bajarishning asosiy vositasi hisoblanadi. Bunda zaif muqobil variantlarni tahlildan chiqarib tashlash, tomonlarning manfaatlariga monand (ularning manfaatiga to‘la mos kelmasa-da) harakat variantlarini taklif etish mumkin.

Maqsadlarni belgilash bosqichida:

- 1) turli modellarni qiyosiy tahlil qilgan holda harakatlarning eng maqbul modeli tanlanadi;
- 2) tanlangan model asosida pirovard maqsadlar belgilanadi;

- 3) voqea-hodisaning kechishiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar aniqlanadi;
- 4) amalga oshiriladigan ishlardan kutilayotgan samara baholanadi.

Bunda davlat organlari pirovard natijaga qarab harakat qilishlari, shu bois o'z oldilariga nafaqat maqbul maqsadlarni, balki erishish mumkin bo'lgan maqsadlarni qo'yishlari, amalga oshirish mumkin bo'lgan dasturlarga tayanishlari zarur. qaror qabul qiluvchi kishilar xayoliy tasavvurlardan voz kechishga, mavjud holatni hisobga olishga, cheklangan resurslarni oqilona sarflashga, kutilmagan holatlarning paydo bo'lishi mumkinligini nazarda tutishga majburdirlar. Qaror qabul qilish jarayonida paydo bo'ladigan qo'shimcha muammo va ziddiyatlarni bartaraf etish - maqsadni belgilashning asosiy mezoni hisoblanadi. Boshqaruvchilar shunday harakat qilishlari lozimki, biror sohada qabul qilingan muvaffaqiyatli qaror natijasida boshqa sohalarda ziddiyatlar kelib chiqmasligi hamda davlatning zimmasidagi muammolar yuki ortib ketmasligi zarur.

Bunday maqsadlarga erishish ko'p jihatdan qaror qabul qilish jarayonida qo'llanilgan uslublarga bog'liq bo'ladi. Davlat boshqaruvida qo'llaniladigan uslublar rang-barang bo'lib, ular o'z ichiga intuitiv metodlardan tortib, matematik modellar asosida qo'llaniladigan rasmiyrasional metodlargacha qamrab oladi. Bu uslublarni tanlash va ulardan foydalanish qaror qabul qiluvchi kishilarga, vaziyatga, strategik yo'nalishga va boshqa qator omillarga bog'liq bo'ladi. Umuman, qaror qabul qilish jarayonida foydalaniladigan uslublarni quyidagi olti turkumga ajratish mumkin:

- 1) hissiy bilishga asoslangan, subyektning hissiy va taxminiy tasavvurlarini o'zida aks ettiradigan uslublar;
- 2) subyekt tomonidan ilgari sodir bo'lgan o'xshash hodisalarda foydalanilgan uslublarni mexanik qo'llashni nazarda tutadigan presedent uslublar;

- 3) vaziyatni baholashda obyektiv fikrlash usullariga asoslangan matematik, rasional, ilmiy uslublar. Bunda "xarajat va foyda", "xarajat va faoliyat", "ilgarilab borayotgan tadqiqotlar", "bozorni va kayfiyatlarni o'rganish" kabi uslublar haqida gapirish mumkin;
- 4) vaziyatning fundamental jihatlariga daxl qilmaydigan, uni sezilarli darajada o'zgartirmaydigan inkremental uslublar;
- 5) aniq muammoli vaziyatni empirik tadqiq etishda ijtimoiy tahlilning umumnazariy yondashuvlarini qo'llashni nazarda tutadigan aralash uslublar;
- 6) muammoli vaziyatni sun'iy modellashtirishni nazarda tutadigan tajribaviy uslublar.

Quyidagi omillar davlatning to'g'ri maqsadlar tizimini yaratish imkonini kamaytiradi: mavjud vaziyat haqida to'la va ishonchli axborot tanqisligi; qaror qabul qiluvchi shaxsning qadriyatlari, ruhiyati va boshqa subyektiv xususiyatlari; vaziyat bilan bog'liq shart-sharoit (qaror qabul qilish uchun vaqt va resurslarning yetishmasligi, ahvolning yaxshi o'rganilmaganligi, vaziyatning o'zgarishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning aniqlanmaganligi); tashkiliy shart-sharoit (ma'muriy qoidalarning kamligi, tashkiliy tuzilmalarning qaror qabul qilishga tayyor emasligi, apparatning qo'yilgan maqsadlarga nisbatan rasmiy-byurokratik

munosabatda bo'lishi va h. k.)

Qabul qilingan qaror - maqsadga erishish yo'lidagi imkoniyat, xolos. Shu bois, maqsadni aniqlash uchinchi bosqichga – **maqsadni amalga oshirish bosqichiga** o'tish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu bosqichning asosiy xususiyati shundan iboratki, bu jarayonga boshqariluvchilarni jalb qilish evaziga boshqaruv davrasi ishtirokchilarining safi kengayadi. Bunda qaror qabul qilgan shaxslar emas, balki fuqarolar va ko'p sonli tuzilmalar mazkur qarorlarni amalga oshiradilar (shu jumladan, mazkur qarorlarga qarshi bo'lgan kishilarga ham u yoki bu vazifani bajarish yuklatiladi).

Bu bosqichda qo'llaniladigan boshqaruv texnologiyalari quyidagi tamoyillarga asoslanadi: direktivlik (qarorlarni buyruq-tavsiya shaklida yetkazish); manzillilik (ya'ni, aniq guruhlar, tuzilmalar, tashkilotlarga murojaat qilish va ularning zimmasiga shunga mos mas'uliyat yuklash); qonuniylik; qarorlarni amalga oshirishning zaxira tizimining mavjudligi; qarorlarning amalga oshirilishini nazorat qilishning tartibga solinganligi; talablarning bir-biriga zid emasligi; maqsadlarning amalga oshirilishi haqida uzluksiz axborotning yetkazilishi va h.k.

Davlat oldida turgan vazifalarning xilma-xilligi maqsadlarni amalga oshirish bosqichini yana ikki bosqichga bo'lishni taqozo etadi. Bu bosqichlar o'ziga xos alohida texnologiyalar qo'llashni nazarda tutadi. Bulardan birinchisi - maqsadlarni amalga oshirishga tayyorgarlik bosqichidir. Bu bosqich harakatlar rejasini tahlil qilishni, maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni izlab topishni hamda boshqa bir qator tadbirlarni o'z ichiga qamrab oladi. Ikkinchi bosqich - maqsadlarni amalga oshirishni tezkor boshqarish bosqichidir. Bu bosqich subyektlarning motivatsiyasini, "ikkinchi darajali" qaror qabul qilishni, ushbu jarayonni yo'naltirib turishni, resurslardan qanday foydalanilayotganligini kuzatishni va mansabdorlarning faoliyatini nazorat qilishni nazarda tutadi.

Asosiysi, qarorlarning amalga oshirilishi (ko'zlangan rejalarning o'z vaqtida bajarilishi) uchun boshqaruv markazini iloji boricha joylarga yaqinlashtirish, boshqaruv tizimini nomarkazlashtirish va shu bilan birga quyi tuzilmalarning mustaqil harakat qilishlarini ta'minlash zarur.

4-mavzu. Siyosiy jarayoni va saylov kompaniyasining o'zaro aloqadorligi va ularning siyosiy menejmentda tutgan o'rni. Reja

1. Zamonaviy jamiyatlarda siyosiy boshqaruvning o'rni va roli.

2. *“Siyosiy elita” tushunchasining mazmun-mohiyati. Siyosiy elitaning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillar.*
3. *Siyosiy yetakchilik. Rollar orqali boshqarish.*

1. Siyosiy boshqaruv: mohiyati, maqsad va vazifalari.

Boshqaruv bizni qurshab turgan dunyoga xos universal va zaruriy xususiyat hisoblanadi. Keng ma’nodagi boshqaruvni turli munosabatlarda kuzatish mumkin. Insonning irodasiga bo’liq ravishda fizik jarayonlar (yadro energiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish), texnik tizimlar (temir yo’l transporti harakati), jamoa faoliyati (siyosiy partiya faoliyati), alohida kishilar xatti-harakati boshqarilishi mumkin.

Boshqaruv - zaruratdir. Boshqaruvsiz kishilar faoliyatini maqsad sari yo‘naltirish, tegishli sohalarni rivojlantirish mumkin bo‘lmaydi. Boshqaruv bo‘lmagan joyda tartibsizlik, boshboshdoqlik yuzaga keladi.

Boshqaruv - serqirra jarayon. Oilani boshqarish texnik tizimlar (transport, aloqa)ni boshqarish jarayonlaridan tubdan farq qiladi. Davlatni boshqarish bilan hududlarni boshqarishni aynan bir narsa deb hisoblash noto‘g‘ri bo‘lar edi. Siyosiy partiyani boshqarish uslublari diniy tashkilotlarni boshqarish uslublariidan jiddiy farq qilishi tabiiy. Turli sohalarni boshqarish masalalariga chuqur to‘xtalmay, siyosat sohasidagi boshqaruvga to‘xtalamiz.

Boshqaruv – jamiyat siyosiy hayotining muhim va ajralmas qismidir. Boshqaruv jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va sosial jarayonlarni muvofiqlashtirish bilan bo’liq keng miqyosli vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Siyosatdagi boshqaruv munosabatlari nihoyatda serqirra.

Siyosiy boshqaruv – siyosatdagi boshqaruv munosabatlarini o‘zida ifoda etadi hamda siyosiy sohadagi mavjud muammolarni hal qilish imkonini beradi. Davlat arbobi yoxud siyosiy arbobning nufuzi va obro‘e’tiborini mustahkamlash, davlat

idorasi yoki siyosiy partiya faoliyati uchun maqbul shart-sharoitlar yaratish, omma ongida muayyan siyosiy kuchning jozibali qiyofasini qaror toptirish, aholining elektoral mayllarini shakllantirish, siyosiy nizolar yuzaga kelganida raqiblarga ta'sir ko'rsatish va hokazo muammolar shular jumlasidandir. Yuqorida zikr etilgan muammolarning muhimligi shubhasiz. Chunki mamlakatni samarali boshqarish uchun rahbarlar fuqarolar hurmatini qozonishi, saylovlarda $\frac{1}{4}$ alaba qozonish uchun siyosiy kuchlar saylovchilarning xayrixohligiga erishishi, nizoli vaziyatdan tezda chiqish uchun raqiblarga ta'sir ko'rsatish talab etiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan siyosiy vazifalarni boshqaruvning an'anaviy usullari yordamida hal qilish mumkin emas. Xususan, ijro uchun majburiy qarorlar qabul qilish, muayyan meyor, qoida va qonunlar ishlab chiqish yo'li bilan yuqorida zikr etilgan masalalarni hal qilib bo'lmaydi. Siyosiy boshqaruvning o'ziga xos xususiyati ham shunda namoyon bo'ladi – boshqaruv subyekti belgilangan maqsadga erishish yo'lida o'z vakolatlari, maqomi, majburlash huquqidan foydalanmaydi, qonun va boshqa umummajburiy meyorlar yaratmaydi. Siyosiy boshqaruvda subyekt¹⁰ o'z manfaatlarini qondirish va maqsadlariga erishish yo'lida insonlarning qarashlari va fe'l-atvorida o'zgarishlar yasashga yo'naltirilgan o'ziga xos usul va vositalardan foydalanadi.

Boshqaruv munosabatlarining bu turi siyosiy amaliyotda ko'pdan beri mavjud. Aytish mumkinki, siyosat qanchalik qo'hna bo'lsa, siyosiy boshqaruv ham shu qadar qadim tarixga ega. ²ar qanday davlat hukmdori o'z nufuzini oshirish haqida doimo qay $\frac{1}{4}$ urgan, maslahatchilari esa unga bu vazifani amalga oshirishda ko'maklashgan. Davlat ishlarini hal qilishda murakkab, chigal vaziyatlar yuzaga kelganida uzoqni o'ylaydigan siyosatchilar kuch bilan emas,

¹⁰ Siyosiy boshqaruv subyekti – siyosatda boshqaruvga o'z ta'sirini, irodasini otkazuvchi taraf, siyosiy boshqaruv obyektini shu ta'sirga beriluvchi, irodaga bo'ysinuvchi taraf.

yaxshi gap bilan muammoni hal qilishni, ommani majburlab emas, balki o'z ¼oyalariga maftun etib yo'naltirishni afzal ko'rgan.

Biroq XX asrning o'rtalariga qadar siyosiy boshqaruv faqat amaliyot sifatida mavjud bo'lgan. Siyosiy boshqaruv fanga aylanishi uchun esa ilmiy bilim tizimida chuqur o'zgarishlar yuz berishi talab etilar edi. Sosiologiya, psixologiya, siyosiy fan, boshqaruv haqidagi fanlarning rivojlanishi tufayli siyosiy boshqaruv ilmiy bilim obyektiga aylandi. Siyosiy boshqaruv fani siyosiy arbobning imijini yaratish, elektoral mayllarni shakllantirish, siyosiy tashkilot uchun maqbul axborot muhitini yaratish, xullas, turli siyosiy maqsadlarga erishish imkonini beradigan bilimlarni manfaatdor kishilarga yetkazadigan fanga aylandi.

Jamiyat hayotida siyosiy boshqaruvning tutgan o'rni va rolini tushunish uchun uning ko'rinishlarini ajratish maqsadga muvofiq. Siyosiy boshqaruvning birinchi ko'rinishi – substansional ¹¹ shakldir. Siyosiy boshqaruvning substansional ko'rinishi obyektiv ravishda amal qiladigan ijtimoiy mexanizm va jarayonlarni o'zida ifoda etadi. Substansional boshqaruv yordamida siyosiy tizimning yaxlitligi ta'minlanadi, unga xos sifat ko'rsatkichlari saqlanadi, uning taraqqiyoti ta'minlanadi. Siyosiy tizim doirasida kechadigan siyosiy ijtimoiylashuv, institutlashuv, legitimlashuv kabi jarayonlar ana shu jarayon-mexanizmlarga misol bo'la oladi. Amaliyotda substansional boshqaruv insonlarning jamiyatda qabul qilingan meyor va qoidalarga bo'ysunishi, madaniy qadriyatlarga monand ish tutishda namoyon bo'ladi.

Boshqaruvning relyasion ¹² ko'rinishi siyosatdagi “subyekt-obyekt” munosabatlarini qamrab oladi, bunda boshqarayotganlar (boshqaruv subyektlari) va boshqarilayotganlar (boshqaruv obyektlari), ya'ni boshqaruv qarorlarini ijro etuvchilar aniq ajratiladi. Shuningdek, siyosiy boshqaruv uni amalga

¹¹ Substansiya – boshlan¼ich asos.

¹² Relyatsion - fransuzcha “relation” tushunchasidan olingan b¼olib, obyekt va subyekt ¼rtasidagi munosabatlarni nazarda tutadi.

oshirayotgan kishilarning ongli faoliyatiga, maqsadlariga, boshqalarga ta'sir qilish imkoniyatlariga, demakki, boshqaruv jarayonida band bo'lganlarning individual xususiyatlariga bo'liq bo'lishi nazarda tutiladi.

Siyosiy boshqaruvda subyekt-obyekt munosabatlari uch ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bulardan birinchisi - davlatning mansabdor shaxslari va davlat idoralari (boshqaruv subyektlari) bilan aholi va uning guruhleri (boshqaruv obyektlari) o'rtasidagi munosabatlardir. Boshqaruvning bu turi, odatda, davlat boshqaruvi deb nomlanadi, chunki bunda davlat, uning idoralari va mansabdor shaxslar boshqaruv subyekti hisoblanadi. Bunday boshqaruv davlatning ma'muriy boshqaruvini ham o'z ichiga qamrab oladi. Boshqaruvning bu turi, shuningdek, ijroiya hokimiyati organlari (hukumat, vazirliklar, idoralar va boshqa davlat muassasalari) tomonidan amalga oshiriladigan boshqaruv faoliyatini qamrab oladi.

Davlat boshqaruvining asosiy xususiyati shundan iboratki, unga "legitim kuch ishlatish" huquqidan foydalanish imkoniyati beriladi. Bundan tashqari, boshqaruv subyekti siyosiy qarorlarni hayotga joriy etishda o'z vakolatlari, maqomi bilan bo'liq resurslardan foydalanishi mumkin. Ta'kidlash joizki, zamonaviy jamiyatda davlat boshqaruvi, asosan, meyoriy tartibga solish orqali, ya'ni tegishli idoralar tomonidan qonun, qaror, farmon, farmoyish va boshqa meyoriy hujjatlar ishlab chiqish va ularning ijrosini ta'minlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Siyosiy boshqaruvdagi subyekt-obyekt munosabatlarining ikkinchi ko'rinishi davlat idoralari, siyosiy tashkilotlar faoliyatini tartibga solish va faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ular ichida shakllanadigan boshqaruv munosabatlarini qamrab oladi. Bunday boshqaruv munosabatlari alohida tashkilotlar (davlat muassasalari, siyosiy partiyalar va hokazo) doirasidan tashqariga chiqmaydi. Bu turdagi munosabatlar boshqaruv subyektiga o'z maqomi bilan bo'liq resurslarga tayanish, tashkilot a'zolari uchun majburiy

meyorlar ishlab chiqish va bu meyorlarni buzganlarga nisbatan jazo choralari qo'llash huquqini beradi.

Siyosiy boshqaruvdagi subyekt-obyekt munosabatlarining yana bir ko'rinishi boshqaruv subyekti (siyosiy tashkilot, ta'sir guruhlari, davlat arbobi) o'z maqsadiga erishishda "legitim kuch ishlatish" huquqiga, o'z maqomi bilan bo'liqlik resurslarga tayana olmasligi, barcha uchun umummajburiy qonun yoki farmon qabul qila olmasligi oqibatida boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatishning boshqa usul va vositalarini qo'llashga majbur bo'lganida yuzaga keladigan munosabatlarni qamrab oladi.

Siyosiy boshqaruv doirasida qanday siyosiy maqsadlarga erishish, qanday vazifalarni hal qilish mumkin? Bu savolga javob topish bu fanning o'ziga xos xususiyatlarini tushunish imkonini beradi. Siyosiy boshqaruv quyidagilarga xizmat qiladi:

1. Davlat arbobi yoki siyosiy arbobning nufuzini, obro'-e'tiborini mustahkamlash. Siyosatchi uchun obro'-e'tiborga ega bo'lish – aholi nazarida ahamiyatli bo'lish, keng ommaning ishonchi va qo'llabquvvatlashiga erishish, siyosatda muvaffaqiyat qozonish, turli siyosiy vazifalarni hal qilish imkoniyatidir. Shuning uchun har qanday davlatda uning rahbari nufuzini oshirishga qaratilgan harakatlar dasturi ishlab chiqiladi. Saylov orqali boshqaruv vakolatlariga ega bo'ladigan siyosatchilar, ayniqsa, aholining qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'ladi, shuning uchun yuqorida zikr etilgan vazifa ular uchun muhim ahamiyat kasb etadi.
2. Davlat idorasi, siyosiy partiya, jamoat tashkiloti faoliyati uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, omma ongida ularning jozibali qiyofasini shakllantirish. ²ar qanday davlat idorasi fuqarolar nazarida davlat boshqaruvining bilimdon idorasi sifatida tanilishdan manfaatdor bo'ladi. Shundagina uning boshqaruv qarorlari jamiyat tomonidan ijro etilishi talab qilinadigan muhim qarorlar

sifatida idrok etiladi. oʻtkir raqobatli siyosiy kurashda ¼olib chiqish uchun har bir siyosiy tashkilot saylovchilarning qoʻllab-quvvatlashiga muhtojlik sezadi. Biroq bunga erishish uchun omma bu tashkilotda oʻz manfaatlarining himoyachisini koʻrishi, unga ishonishi darkor. Shuning uchun ham yuqorida zikr etilgan vazifani bajarmasdan turib, siyosiy muvaffaqiyatga umid boʻlmas mumkin emas.

3. Muayyan davlat dasturi, siyosiy dastur yoki siyosiy loyiha tarafdorlari sonini koʻpaytirish. Jamiyat hayotini isloh qilish davomida boshqaruv qarorlarini amaliyotga joriy etishda qiyinchiliklar paydo boʻlayotganini tan olish lozim. Buning asosiy sabablaridan biri – ommaning yangi dastur va loyihalarga gumon bilan qarashi, ularni tushunmasligi oqibatida qabul qila olmasligi bilan boʻladi. Demak, demokratik oʻzgarishlarni amalga oshirishda bu yangilanishlarning kishilar tomonidan qanday qabul qilinayotganini oʻrganish, kishilarning istaklariga taʼsir koʻrsatish, ularning kayfiyatlari va qadriyatlarida oʻzgarishlar yasash talab etiladi. Bunday zaruratni anglash mazkur vazifani siyosat subyektlari faoliyatining asosiy yoʻnalishlaridan biriga aylantiradi.
4. Aholining elektoral ¹³ mayllarini shakllantirish. Davlat organlariga saylovlar – demokratiyaning ajralmas belgisidir. Deyarli barcha siyosiy kuchlar, partiyalar bu vazifaning ulkan ahamiyatini anglab yetgan. Shafqatsiz raqobat ularni saylovchilarning ovozlari uchun kurash texnologiyalarini doimiy ravishda takomillashtirib borishga undaydi.
5. Siyosiy ittifoqlar, bloklar tuzish. Kelishuv va hamkorlik siyosati siyosat subyektlariga murakkab vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Biroq har bir siyosiy ittifoq murakkab va sinchkovlik bilan amalga oshirilgan faoliyat natijasida oʻz sheriklariga taʼsir koʻrsatib, muayyan natijaga erishadi.

¹³ Elektoral – saylov bilan boʻladi.

Bunday faoliyat kuch ishlatishni inkor etadi, o'z ittifoqdoshlariga zargarona ta'sir ko'rsatish, ustalik bilan harakat qilish negiziga quriladi.

6. Siyosiy nizolar sharoitida raqib va opponentlarga ta'sir ko'rsatish. Siyosiy nizo taraflarning murosasizligi, tajovuzkorligi va umumiy qoidalarga amal qilishni istamasligi bilan xarakterlanadi. Siyosiy ixtiloflar jamiyatda beqarorlik keltirib chiqaradi, jamiyat a'zolari o'rtasida nizo uruqlarini sochadi, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini falajlantiradi. Shuning uchun ham siyosiy nizolarni hal qilish yo'llarini izlash muhimdir. Kuch ishlatish yo'li bilan nizoni bartaraf etib bo'lmaydi. Bunda ixtilofli vaziyatlarni tartibga solishning alohida texnologiyalarini qo'llash talab etiladi.
7. Davlat qarorlarini qabul qiladigan shaxslarga ta'sir ko'rsatish. Zamonaviy jamiyatlar haddan tashqari tabaqalashgan, ularda turli ijtimoiy guruhlar mavjud, bu guruhlar o'z navbatida, o'z manfaatlarini ilgari surish va himoya qilishga intiladi. Guruhiy manfaatlarni himoya qilish usullaridan biri davlat idoralari va mansabdor shaxslarga ta'sir ko'rsatish, bosim o'tkazish bilan bo'liq. Bunday ta'sirning shakl va uslublari xilma-xil, ular doimiy ravishda takomillashib boradi.
8. Siyosiy qo'llab-quvvatlash uchun ommani safarbar etish. Aniq siyosiy vazifalarni hal qilishda siyosat subyektlari xalqqa, uning manfaat-ehtiyojlariga tayanishini namoyish qilishi lozim. ²ukmron kuchlar ham, muxolifatdagi kuchlar ham ular yuritayotgan siyosatga kishilarning ishonchi darajasi yuqori ekanini ko'rsatishga intiladilar. Demokratik jamiyatda insonlarni biror ¹oyani qo'llabquvvatlashga majburlash mumkin emas, biroq ularni ishontirish orqali bunga undash mumkin. Shuning uchun ham bu vazifa siyosiy boshqaruvga taalluqli sanaladi.

Siyosiy munosabatlar maydonida amal qilayotgan turli subyektlar uchun yuqorida sanab o'tilgan vazifalarning muhimligi shubhasiz. Zamonaviy

jamiyatda bu vazifalardan jillaqursa bir qismini hal qilmasdan turib, muhim siyosiy natijalarga erishish murakkab. E'tiborlisi shundaki, boshqaruv subyekti bu vazifalarni hal qilishda o'z vakolatlaridan foydalana olmaydi, qonun yoki farmon qabul qilish yo'li bilan bu muammoni hal qila olmaydi, kuchni qo'llay olmaydi. Zero, ta'sir obyektini boshqaruv subyektiga bevosita bo'ysunmaydi.

Shunday qilib, siyosiy boshqaruv davlat boshqaruvidan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

Birinchidan, siyosiy boshqaruvda boshqaruv subyekti kuchga tayanish, jazo choralarini qo'llash huquqidan mahrum bo'ladi, demakki, shaxsning istaklariga ta'sir ko'rsatishning boshqa shakllaridan foydalanadi.

Ikkinchidan, siyosiy boshqaruvda boshqaruv subyekti barcha uchun umummajburiy meyorlar yaratish huquqidan ham mahrum bo'ladi, shuning uchun inson ruhiyati haqidagi bilimlarga tayangan holda ta'sir ko'rsatishga majbur bo'ladi.

Uchinchidan, siyosiy boshqaruv doirasida o'ziga xos vazifalar hal qilinadi. Bu vazifalarning hal qilinishi siyosat subyektlariga siyosiy maydonda o'z pozitsiyasini mustahkamlashga, raqobatli kurashda $\frac{1}{4}$ alaba qozonishga, ommaga ta'sir ko'rsatishga yordam beradi. Jamiyatda o'z ta'sir doirasini kengaytirishga, o'z rejalari, siyosiy dastur va loyihalarini amalga oshirishga intilayotgan siyosat subyektlari uchun bu vazifalar nihoyatda muhim sanaladi. Biroq aholining bu vazifalarga munosabati birday yaxshi bo'lmaydi, chunki bu vazifalar ortida ayrim hollarda shaxsiy izzat-nafs, guruhiy manfaatlar, $\frac{1}{4}$ arazli maqsadlar yashiringan bo'ladi. Bunday sharoitda bu vazifalar oshkor etilmaydi. Axir, biror siyosiy kuchning nufuzini oshirish yoki siyosiy ittifoqchilarga ta'sir ko'rsatish kabi maqsadlarni ochiqdan-ochiq e'lon qilinishini tasavvur etish qiyin.

To'rtinchidan, siyosiy boshqaruv doirasida boshqaruv vazifalarini hal qilishning alohida usul va vositalari shakllanadi. Bu usullarning $\frac{1}{4}$ indisini siyosiy texnologiyalar deb nomlash qabul qilingan.

Demak, **siyosiy boshqaruv** insonlar ruhiyati, ongi va qalbiga mohirona ta'sir ko'rsatishning shunday usullarini o'z ichiga oladiki, bunday ta'sir kishilarni siyosat subyektining manfaatiga mos ravishda harakat qilishga undaydi, ayni paytda ularda o'z tanlovining erkinligiga, harakatlarining tabiiyligiga ishonch tu¹/₄diradi. Bu usullar yordamida omma ongiga yangi tasavvurlar, qadriyatlar, ko'rsatmalar, ¹/₄oyalar, maslaklar singdiriladi.

Ta'kidlash joizki, siyosiy boshqaruv jamiyat oldida qator axloqiy muammolarni ham ko'ndalang qiladi. Shaxsiy, guruhiy va ijtimoiy manfaatlarning mos kelmasligi, siyosiy makondagi keskin raqobat, siyosat subyektlarining ¹/₄oyaviy qarashlari va qadriyatlaridagi farqlar hamda o'z muammolarini har qanday usullar bilan hal qilish istagi bu muammolarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, siyosiy boshqaruv – siyosatdagi boshqaruvning alohida turi bo'lib, muayyan siyosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi hamda umummajburiy meyorlar ishlab chiqish va legitim kuchga tayanish imkoniyati bo'lmagan muhitda muammolarni hal qilishning alohida usul va vositalarini, turli siyosiy texnologiyalarni qo'llashni nazarda tutadi.

Siyosiy boshqaruv uzoq tarixga ega. Deyarli barcha jamiyatlarda hukmdorlar nufuzini oshirish, aholining keng qatlamlariga o'z ta'sirini kengaytirish muammolari dolzarb bo'lgan, turli guruhlar hukmron doiralarga samarali ta'sir ko'rsatish yo'llarini izlaganlar. Biroq hozirgi kunda siyosiy boshqaruv ancha keng ko'lam kasb etdi. Bunday holat XIX-XXI asrlarda avj olgan qator muhim jarayonlar bilan bo'liq.

Siyosiy boshqaruv rolining o'sishiga sabab bo'lgan jarayonlardan biri – jamiyat siyosiy hayotida omma rolining o'zgarishi bilan bo'liq. Bu jarayonni ispan faylasufi X.Ortega-i-Gasset yorqin va jonli ifodalagan. Uningcha, aynan XIX asrda keng omma tarix sahnasiga chiqdi. Ilgari keng ommaning sustligi, xalqning siyosiy hokimiyat muammolariga aralashmasligi sababli barcha muammolar jamiyatdagi ozchilikni tashkil etgan oqsuyaklar tomonidan hal

qilingan bo'lsa, endilikda omma o'sha ozchilikka itoat qilmay, boshqaruv vakolatlarini qo'lga olmoqda. Jamiyat siyosiy hayotida omma rolining o'sishi oqibatida aholining keng qatlamlariga bosim ko'rsatish usullari o'rniga ta'sir ko'rsatishning yangi vositalarini axtarish zarurati tug'ildi.

Siyosiy boshqaruvning ahamiyatini kuchaytirgan yana bir jarayon – omma ongining erkinlashuvi va demokratlashuvi bilan bog'liq. Oxirgi ikki asr davomida odamlar ongida demokratiya va liberal mafkura qadriyatlari qaror topganini kuzatish mumkin. Insonlarga shaxs erkinligi, fuqarolik va siyosiy huquqlar, barchaning qonun oldida tengligi, siyosiy plyuralizm va xalq hokimiyati qo'yalari yaqin bo'la borgani sari insonlar har qanday shakldagi zo'ravonlikka qarshilik ko'rsata boshladilar. Bunday sharoitda erkin va haq-huquqini taniydigan insonni boshqarish alohida mahorat talab eta boshladi.

Siyosiy boshqaruvning rivojlanishiga turtki bo'lgan yana bir jarayon jamiyatning demokratlashuvi bilan bog'liq. Bu jarayon hokimiyatlar bo'linishi, asosiy davlat idoralarining saylov yo'li bilan shakllantirilishi, barchaning qonun oldidagi tengligi, inson huquqlarining davlat huquqlaridan ustunligi, ko'ppartiyaviylik tamoyillarining mustahkamlanishida o'z ifodasini topdi. o'z xatti-harakatlarida qonun bilan chegaralangan mansabdor shaxslar va siyosiy arboblarda o'z nufuzi va ta'sirini oshirish uchun siyosiy boshqaruv nazariyasi va amaliyotiga murojaat qilishlari ham ehtiyoj, ham zaruratga aylandi.

Garchi saylovlar demokratlashtirish jarayonining uzluksiz qismi bo'lsa-da, lekin uni alohida ajratib ko'rsatish joiz. Zero, umumiy saylov huquqining joriy etilishi ham siyosiy boshqaruvning rivojiga turtki bo'ldi. Ma'lumki, siyosiy boshqaruv fani doirasida saylov kampaniyalarini uyushtirish yo'llari haqida ham bilim beriladi. Aynan saylovoldi kurash davomida ommaga ta'sir ko'rsatish texnologiyalari yaratilgan va tajribada sinalgan. Shu boisdan, saylov kampaniyalarini tashkil etish va boshqarish muammolari siyosiy boshqaruvning eng muhim masalalaridan biri sanaladi.

Ta'kidlash joizki, siyosiy partiya va jamoat tashkilotlari, manfaat guruhlarining siyosiy maydonda faol rol o'ynayotgan mustaqil subyektlarga aylangani ham siyosiy boshqaruvning ahamiyatini yanada oshirdi. Shuningdek, elektron ommaviy muloqot vositalarining rivojlanishi, radio, televideniye va internet paydo bo'lishi bilan ommaga axborot orqali ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari kengaydi. Bu axborot vositalari nafaqat odamlarga axborot ulashish vazifasini bajaradi, balki bu axborotni hissiy idrok etishga ham kuchli ta'sir ko'rsatadi, ommaviy kayfiyatlarni shakllantiradi. Siyosiy boshqaruvda siyosiy fe'l-atvorga ta'sir ko'rsatish uchun qo'llaniladigan ko'pgina usullar shu axborot vositalaridan samarali foydalanishni nazarda tutadi, aynan shu vositalar orqali uzatilayotgan axborotning ishontiruvchi ta'siri va kuchini bir necha barobar kuchaytirish imkonini berdi.

Shunday qilib, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida insoniyat tarixida sodir bo'lgan jiddiy o'zgarishlar siyosiy maqsadlarga erishish usullarini jiddiy tahrir qilishni talab etmoqda. Bir tomondan, jamiyatni samarali boshqarish zarurati mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan turli ijtimoiy guruh va qatlamlarning manfaatlarini kelishtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday vaziyatda turli siyosiy kuchlar tomonidan siyosiy boshqaruvga qiziqishning ortishi tabiiydir.

2. “Siyosiy elita” tushunchasining mazmun-mohiyati. Siyosiy elitaning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar.

Siyosatning turli subyektlari siyosiy boshqaruvga turlicha ta'sir qiladilar. Alohida fuqarolar va ijtimoiy guruhlar odatda siyosiy hayotda bevosita har kuni, doimiy ravishda ishtirok etmaydilar. Bu narsa bilan siyosiy elita deb ataluvchi kishilarning alohida qatlami shug'ullanadi.

«Elita» so'zi lotincha «eligere» (tanlamoq) va fransuzcha «elite» (tanlangan) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, «eng yaxshi», «a'lo», «saralangan», «tanlangan» degan ma'nolarni anglatadi. Kundalik hayotda bu so'z ikki ma'noda

qo'llaniladi. Birinchi ma'noda bu atama eng yuqori sifat ko'rsatkichlarga ega, o'zining yorqin xususiyatlari bilan ajralib turadigan narsalarga nisbatan qo'llaniladi. Bu ma'noda «elita» atamasi «elitar navli bug'doy», «otning elitar zoti», «elitar sport turi» kabi so'z birikmalarida ishlatiladi. Ikkinchi ma'noda «elita» tushunchasi jamiyatning ozchiligidan iborat va alohida sifatlari tufayli jamiyatni boshqarishda bevosita ishtirok etuvchi guruhga nisbatan ishlatiladi. Siyosiy elita jamiyatning hukmron qismi, boshqaruvchi tabaqa sifatida sharhlanadi.

Siyosatshunoslik fanida «elita» atamasi asosan ikkinchi ma'noda qo'llaniladi hamda siyosiy boshqaruvchilik vazifalarining ijrochilarini ifodalaydi. Bu jihatdan, siyosiy elita - jamiyatning ozchiligidan iborat, nisbatan mustaqil, muayyan imtiyozlarga ega guruh bo'lib, u yoki bu darajada noyob psixologik va siyosiy sifatlarga, qobiliyatlarga ega bo'ladi hamda davlat hokimiyatidan foydalanish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilish va amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi.

Elitar nazariyalarda jamiyatdagi tenglik inkor etiladi, insonlarning davlatga ta'siri bir xil emasligi, hokimiyatning bir tekis taqsimlanmaganligi, siyosiy hayot raqobat asosiga qurilganligi uqtiriladi.

«Elita» atamasi siyosatshunoslik fanida XX asrning boshlarida Sorel va Poretolarning asarlari tufayli keng tarqaldi. Lekin ta'kidlash joizki, siyosiy elitalar haqidagi dastlabki g'oyalar Fransiyada paydo bo'lmagan. Qadim zamonlardan boshlab, ya'ni urug'chilik tuzumining yemirilishi davridayoq jamiyatning yuqori va quyi tabaqalarga, olijanoblar va avom xalqqa, aristokratlar va oddiy kishilarga bo'linganini uqtiruvchi qarashlar paydo bo'lgan. Konfusiy, Platon, Makiavelli, Karleyl, Nisshelarning asarlarida bu g'oyalar mantiqiy asoslab berildi va rivojlantirildi. Biroq bu kabi elitar nazariyalar jiddiy ilmiy tahlilga muhtoj edi. Elitalar haqidagi ana shunday zamonaviy, mumtoz nazariyalar XIX asr oxiri - XX asr boshlarida paydo bo'ldi. Ularning vujudga

kelishi Gaetano Moska, Vilfredo Pareto va Robert Mixelslarning nomlari bilan bog'liq.

Buyuk italyan sosiologi, siyosatshunosi professor Gaetano Moska (1858 - 1941) har qanday jamiyatning ijtimoiy maqomi va roli jihatidan teng bo'lmagan ikki guruhga bo'linishi muqarrarligini isbotlab berishga harakat qilgan. U o'zining 1896 yilda yozgan «Siyosatshunoslik fani asoslari» kitobida yozgan edi: «Har bir jamiyatda - o'rtacha rivojlangan va endigina sivilizasiya kurtaklari ochilgan jamiyatdan tortib, to kuchli va ma'rifatli jamiyatlargacha ikki sinf mavjuddir: boshqaruvchilar sinfi va boshqariluvlar sinfi. Birinchisi doimo oz sonli bo'lib, barcha siyosiy vazifalarni bajaradi, hokimiyatni o'z qo'lida to'playdi va berilgan imtiyozlardan foydalanadi. Ikkinchi sinf esa ko'p sonli bo'lib, birinchisi tomonidan boshqariladi va idora qilinadi hamda unga (birinchisiga) siyosiy organizmning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy vositalarni yetkazib turadi»¹⁴.

Moska siyosiy elitaning shakllanishini va uning o'ziga xos xususiyatlarini chuqur tahlil qildi. Unga ko'ra, siyosiy elitaga mansub bo'lishning muhim mezoni - boshqa insonlarni boshqarish qobiliyati, ya'ni tashkilotchilik qobiliyatidir. U shuningdek, elita jamiyatning qolgan qismidan o'zining moddiy, ma'naviy va intellektual ustunlikka egaligi bilan ajralib turishini ta'kidlaydi. Unigcha, bu tabaqa boshqalarga nisbatan boshqaruvga layoqatli bo'lsa ham, biroq uning barcha vaqillari ham bu jihatdan yuqori ko'rsatgich va alohida iste'dodga ega bo'lmaydilar.

Boshqaruvchilar tabaqasining birdamligini va ularning jamiyat hayotida yuqori o'rin tutishini ta'kidlab, Moska ularni siyosiy sinf deb ataydi. Bu sinf muntazam ravishda o'zgarib borishga moyil bo'ladi. Uning taraqqiyotida ikki yo'nalishni kuzatish mumkin: aristokratik va demokratik. Birinchi yo'nalish

¹⁴ P.T.Muxayev. PolitologiY. Uchebnik dlya studentov yuridicheskix i gumanitarnix fakultetov. M.:»PRIOR», 1997 yil, 163-164-betlar.

siyosiy sinfning huquqiy boʻlmasa ham amalda meros sifatida uzatiladigan boʻlishga intilishida namoyon boʻladi. Aristokratik yoʻnalishning ustuvorligi bu tabaqaning «yopiq» boʻlib qolishiga, uning aynishiga va oxir-oqibat ijtimoiy turgʻunlikka olib keladi. Natijada, jamiyatda hukmron mavqeni egallashga intiluvchi yangi ijtimoiy kuchlarning kurashi faollashadi.

Ikkinchi, demokratik yoʻnalish siyosiy sinfning boshqarishga qodir va faol quyi tabaqalar hisobiga yangilanishida oʻz ifodasini topadi. Bu yangilanish elitadagi zaiflashuvning oldini oladi, uning jamiyatni samarali boshqarishiga turtki boʻladi. Aristokratik va demokratik yoʻnalishlarning muvozanati jamiyat uchun nihoyatda foydalidir. Chunki aynan shu narsa bir tomondan, mamlakatni boshqarishdagi vorisilylik va barqarorlikni taʼminlasa, ikkinchi tomondan, siyosiy elitaning sifat jihatidan yangilanishiga olib keladi.

Moskaning siyosiy sinf nazariyasi elitar gʻoyalarning rivojlanishiga kuchli taʼsir koʻrsatgan boʻlsa-da, siyosiy omilni mutlaqlashtirish va iqtisodga yetarli darajada eʼtibor bermaganlik tufayli tanqidga uchradi. Zamonaviy plyuralistik jamiyatlar uchun bunday yondashuv uncha toʻgʻri kelmasa-da, «siyosiy sinf» nazariyasi koʻplab totalitar davlatlarda oʻz ifodasini topganligini taʼkidlash joiz. Bu davlatlarda iqtisod va ijtimoiy hayotning boshqa sohalari siyosatga boʻysundirildi. Moska taʼriflagan «siyosiy sinf»ga oʻxshash tabaqa - byurokratiya nomenklaturasi paydo boʻldi. Totalitar davlatlarda siyosiy nomenklatura tarkibiga kirgan, hokimiyatga va boshqaruvga yaqin boʻlganlar «boshqaruvchilar sinfi» sifatida ham iqtisodiy, ham ijtimoiy hukmronlikka ega boʻldilar.

Taxminan Moska bilan bir vaqtda, lekin undan mustaqil ravishda Vilfredo Pareto (1842 - 1923) ham siyosiy elita nazariyasini ishlab chiqdi. U ham Moska kabi quyidagi fikrdan kelib chiqdi: «dunyoni hamma vaqt elita deb atalmish tanlangan ozchilik boshqargan va boshqaradi. Elita tarkibiga kirganlar oʻzlarining psixologik (tugʻma) va ijtimoiy (tarbiya va taʼlim natijasida

orttirilgan) alohida xususiyatlari bilan ajralib turadilar. O‘zining «Umumiy sosiologiyadan traktat» asarida u quyidagicha yozadi: «Ba’zi nazariyotchilarga yoqish-yoqmasligidan qat’i nazar, insonlar jamiyati bir xil emas va insonlar jismonan, ma’nan va aqliy jihatdan farq qiladilar»¹⁵. Uningcha, muayyan sohadagi faoliyati o‘zining samaraliligi va yuqori ko‘rsatkichlari bilan ajralib turadigan kishilardan iborat guruh elitani tashkil etadi.

V.Pareto nazariyasida elita hukmron va hukmron bo‘lmagan - kontrelitaga bo‘linadi. Hukmron elita boshqaruvda bevosita yoki bilvosita (lekin samarali) ishtirok etsa, kontrelita elitaga xos sifatlarga ega insonlardan tarkib topadi, lekin ular o‘zining ijtimoiy maqomi va jamiyatdagi quyi tabaqalar uchun mavjud turli to‘siqlar tufayli boshqarish huquqidan mahrum bo‘ladilar.

V.Paretoning ta’kidlashicha, ichki birdamlik, jipslik, o‘z hukmronligini saqlab qolish uchun doimo kurashish boshqaruvchi elitaga xos xususiyatlardir. Jamiyat taraqqiyoti, uning fikricha, ikki asosiy turidagi elitalar: «tulkilar» (epchil rahbarlar bo‘lib, ular boshqaruvning «yumshoq» usullaridan: muzokaralar, yon berishlar, xushmuomalalik, xushomadgo‘ylik va ishontirish kabi usullaridan foydalanadilar) va «sherlar» (qattiqqo‘l va qat’iyatli rahbarlar bo‘lib, asosan kuchga tayanadilar) ning vaqti-vaqti bilan almashinuvi natijasida sodir bo‘ladi.

Jamiyatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar tufayli ana shu ikki ko‘rinishdagi elitlardan birining ustunligiga putur yetadi, deb uqtiradi V.Pareto. Masalan, «tulkilar»ning hukmronligi tarixning sokin bosqichlarida samarali bo‘lsa, qat’iy harakat va kuch ishlatish talab qilingan paytlarda ular yaroqsiz bo‘lib qoladilar. Chunki ularning qat’iyatsizligi jamiyatdagi norozilikni kuchaytirib yuboradi. Ana shunday vaqtlarda jamiyatda kontrelita («she’rlar») kuchayib, xalq kuchini safarbar qilgan holda hukmron elitani ag‘daradi va o‘z hukmronligini o‘rnatadi.

¹⁵ P.T.Muxayev. PolitologiY. Uchebnik dlya studentov yuridicheskix i gumanitarnix fakultetov. M.:»PRIOR», 1997 yil, 167-bet.

Siyosiy elita nazariyasining rivojlantirilishiga Robert Mixels (1876 - 1936) ham katta hissa qo'shgan. U jamiyatning elitarligini keltirib chiqaruvchi ijtimoiy mexanizmlarni tadqiq qildi. Elitarlik sabablarini sharhlashda R.Mixels G.Moska bilan hamfikir bo'lsa-da, u tashkilotchilik qobiliyatlariga alohida urg'u beradi. Uning fikricha, jamiyat tashkiliy tuzilmalarining o'zi elitarlikni kuchaytirishga, boshqaruvchilar tabaqasining martabasini oshirishga xizmat qiladi. R.Mixels jamiyatning tuzilishi elitarlikni talab qilishi va elitalarning mavjudligi qonuniyat ekanligi to'g'risida xulosa chiqaradi.

Jamiyatda «oligarxiyaning temir qonuni» amal qilishi haqidagi fikr ham R.Mixelsga tegishlidir. Bu fikrlarini u «Siyosiy partiyalar. Demokratiyadagi oligarxik yo'nalishlar haqida ocherk» (1911 yil) asarida bayon etadi. «Oligarxiyaning temir qonuni»ga ko'ra, jamiyat taraqqiyotining ajralmas belgisi - yirik tashkilotlarning tuzilishi so'zsiz jamiyat boshqaruvining ozchilik qo'lida to'planishiga

(oligarxiyalashuv) va elitaning shakllanishiga olib keladi. Chunki bunday yirik tashkilotlarni boshqarishda uning barcha a'zolari ishtirok eta olmaydilar. Ularning faoliyati samarali bo'lishi uchun vazifalarning taqsimlanishi va ixtisoslashuv talab qilinadi. Bu esa o'z navbatida boshqaruvchi o'zak va apparatining ajralib chiqishiga olib keladi. Bu apparat asta-sekin, lekin muqarrar ravishda oddiy a'zolarining nazoratidan chiqib boshlaydi, ulardan begonalashadi va siyosatni o'z manfaatlariga bo'ysundiradi, avvalambor o'zining imtiyozli mavqeini saqlab qolish haqida qayg'uradi. Tashkilotning oddiy a'zolari esa yetarli darajada malakaga ega bo'lmaydilar, sustkash bo'ladilar va kundalik siyosiy faoliyatga beparvolik bilan qaraydilar. Natijada, har qanday, hattoki eng demokratik tashkilotni ham oligarxik, elitar guruh boshqaradi. Bunday ta'sirchan guruhlar o'z imtiyozli mavqeini saqlab qolishdan manfaatdor bo'lganliklari uchun bir-birlari bilan aloqa o'rnatadilar, muloqotga kirishadilar, jipslashadilar va xalqning manfaatlarini unuta boshlaydilar.

«Oligarxiyaning temir qonuni» amal qilishidan kelib chiqqan holda R.Mixels demokratiyaning imkoniyatlari va sosial-demokratik partiyalarning demokratik tabiatiga doir pessimistik fikrlar bildirgan, ularga ishonchsizlik bilan qaragan edi. Chunki u demokratiyani keng xalq ommasining boshqaruvda bevosita ishtirok etishi deb bilar edi.

G.Moska, V.Pareto va R.Mixelslarning ilmiy ishlarida siyosiy elita kategoriyasiga mufassal va har tomonlama ta'rif berildi, uning asosiy xususiyatlari ko'rsatib berildi. Shu boisdan, bu olimlar elitologiya - siyosiy boshqaruvni amalga oshiruvchi ijtimoiy qatlamni o'rganadigan maxsus ilmiy yo'nalishning asoschilari deb tan olindilar. Ularning ilmiy ishlarida zamonaviy elitar nazariyalarni ajratish va baholash imkonini beruvchi mezonlar belgilab berildi. Bu mezonlar quyidagilardan iboratdir:

- elita vakillariga xos alohida xususiyatlar, sifatlarning mavjudligi;
- elitar qatlamning jipsligi va guruhiy birdamlik darajasini ko'rsatadigan o'zaro munosabatlar;
- elitaning elitar bo'lmagan omma bilan munosabatlari;
- elitaning rekrutlashuvi, ya'ni u kimlar tomonidan va qanday shakllantiriladi;
- elitaning jamiyatdagi roli (amaliy foydali yoki vayron qiluvchi), uning vazifalari va ta'sirchanligi.

Elitar ta'limotning alifbosini ishlab chiqqan G.Moska, V.Pareto va R.Mixelslarning nazariyalari umumlashtirilib, Makiavelli maktabiga tegishli deb tan olindi. Mazkur maktab elitologiya namoyandalarining birinchi avlodini birlashtirgan bo'lsa-da, ularning nazariyalari hozirgi zamonda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ularni quyidagi belgilar birlashtiradi:

1. Elitaning alohida sifatlari tug'ma iste'dod va tarbiyaga bog'liq bo'lib, elitaning boshqarish qobiliyatida yoki uning hokimiyat uchun kurashida namoyon bo'ladi.

2. Elitadagi guruhiy birdamlik nafaqat kasb-kor va manfaatlardagi umumiylikka bog'liq, balki elitar ong - o'zini jamiyatni boshqarishga layoqatli alohida qatlam, deb idrok etishdan kelib chiqadi.
3. Har qanday jamiyatning elitarligini tan olish, uning hukmron, ijodkor, imtiyozli ozchilik hamda passiv, ijodkor bo'lmagan ko'pchilikka bo'linishi muqarrarligini e'tirof etish. Bunday bo'linish jamiyat va insonning tabiatidan kelib chiqadi. Garchi elitaning shaxsiy tarkibi o'zgarib tursa-da, uning ommaga nisbatan hukmron mavqei o'z asosida o'zgarmasdir. Masalan, tarix davomida qabila boshliqlari, monarxlar, xalq komissarlari, partiya kotiblari, vazirlar va prezidentlar vaqti-vaqti bilan o'zgarib turganlar, lekin ular bilan oddiy xalq o'rtasidagi hukmronlikbo'ysunish munosabatlari doimo saqlanib turgan.
4. Hokimiyat uchun kurash davomida elitaning shakllanishi va yangilanishi. Katta imtiyozlar beradigan yuqori mavqeni egallashga ko'p insonlar intiladilar, lekin hech kim o'z mavqei va mansabini ixtiyoriy ravishda bo'shatib berishni istamaydi. Shuning uchun elitadan o'rin olish uchun yashirin va oshkora kurash bo'lishi muqarrardir.
5. Elitaning jamiyatda amaliy foydali, boshqaruvchi va hukmron rol o'ynashi. Elita ijtimoiy tizim uchun zarur boshqaruv vazifasini (har doim ham samarali bo'lmasa-da) bajaradi. Imtiyozli mavqeini saqlab qolishga intiluvchi elita o'zining noyob sifatlaridan mahrum bo'lish ehtimolini tobora kuchaytiradi.

Psixologik omillarning ahamiyati bo'rttirib yuborilganligi, g'ayridemokratik tabiati hamda ommaning faolligi va qobiliyatlariga yetarli baho berilmaganligi, hokimiyat uchun kurashga hayosizlarcha munosabat bildirilganligi tufayli Makiavelli maktabiga mansub elitar nazariyalar tanqidga uchradi. Bu tanqid ko'p jihatlardan asossiz emas edi.

Elitar nazariyalarning salohiyati va taraqqiyot tajribasiga tayangan holda shuni aytish mumkinki, siyosiy elita, avvalambor, jamiyat va davlatni boshqarishga ixtisoslashgan ijtimoiy guruhdir. Siyosiy elita tarkibiga kirgan shaxslar hokimiyat, davlat, partiyalar va boshqa siyosiy institutlarni boshqarish bilan professional tarzda shug'ullanadilar. Bu jihatdan, siyosiy elita davlat taraqqiyotining yo'nalishlari va mexanizmlarini belgilab beradi.

Siyosiy elitaning mavjudligi muqarrar ekanini quyidagilar bilan tushuntirish mumkin:

- insonlar psixologik va ijtimoiy jihatdan teng emas, ularning qobiliyatlari, imkoniyatlari va siyosatda ishtirok etish istaklari har xildir;
- mehnat taqsimoti qonuniga ko'ra boshqaruv mehnati bilan malakali kishilar shug'ullanishi lozim;
- boshqaruv mehnati katta ijtimoiy ahamiyatga ega;
- boshqaruvchilik faoliyatidan turli xil ijtimoiy imtiyozlar olish uchun foydalanish imkoniyati mavjud;
- elitani keng nazorat qilishning amalda imkoniyati yo'q;
- keng omma asosan siyosiy jihatdan passiv bo'lib, uning asosiy manfaatlari odatda siyosat doirasidan tashqarida yotadi.

Siyosiy elita faqatgina jamiyatda mavjud elitalarning bir qismi, xolos. Jamiyatda hukmron elitalar mavjud bo'lib, ular qatoriga siyosiy elitadan tashqari iqtisodiy, harbiy, g'oyaviy va boshqa elitalarni kiritish mumkin. Bu elitalarni ham qisqacha tavsiflab o'taylik. Demak, siyosiy elita – o'z qo'lida davlat hokimiyatini to'plagan va jamiyatni boshqarish vazifasini bajaruvchi jamiyatning bir qatlamidir. Siyosiy elita asosan yuqori darajadagi professional siyosatdonlardan iborat bo'ladi. Ular jamiyatni rivojlantirish dasturi va strategiyasini ishlab chiqish hamda uni tadbqiq qilish bo'yicha professional tayyorgarlikdan o'tgan davlat xizmatchilaridir. Siyosiy elitaning alohida ahamiyatini ta'kidlash maqsadida ba'zan ularni «siyosiy rahbariyat», «tizimni

boshqaruvchilar», «qarorlarni qabul qiluvchi markaz», «siyosiy tizimning markaziy bo‘g‘ini» kabi atamalar bilan ulug‘laydilar.

Ta’kidlash joizki, «siyosiy elita» va «hukmron elita» tushunchalari bir ma’noga ega emas. Ular butun va qism sifatida namoyon bo‘ladi. Hukmron elita hokimiyatni amalga oshirish bilan bog‘liq jarayonlarda bevosita va bilvosita ishtirok etuvchi turli guruhlarini o‘z ichiga oladi. Uning tarkibiga siyosiy, iqtisodiy, harbiy, mafkuraviy va boshqa elitalar kiradi. Demak, siyosiy elita - hukmron elitaning bir qismi, xolos. Boshqa tomondan, hukmron elitadan farqli o‘laroq siyosiy elita siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda bevosita ishtirok etadi.

Iqtisodiy elita – yirik kapital egalari va xususiy mulkdorlardan iborat ijtimoiy qatlamdur. Unga yirik sanoat korporatsiyalari, banklar, savdo firmalarining direktorlari va boshqaruv kengashi a’zolari kiradi. Elitaning bu qatlami aholining ish bilan bandligi, turmush darajasi, ish haqi va daromadlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. G‘oyaviy elita tarkibiga mafkuraviy faoliyat namoyandalari, maorif sohasida band insonlar va ommaviy axborot vositalarining vakillari kiradilar. Ular insonlarning dunyoqarashlarini shakllantirish, fuqarolik tarbiyasi kabi vazifalarni bajaradilar. Harbiy elita – hukmron elitaning muhim tarkibiy qismidir. Harbiy elita siyosiy jarayonlarda muhim rol o‘ynaydi va siyosatda undan ko‘pincha hal qiluvchi vosita sifatida foydalaniladi. Ko‘pincha siyosatni amalga oshirishdagi muhim rolini inobat olib, uni siyosiy elita tarkibiga qo‘shadilar.

Madaniy elita taniqli va xalq orasida hurmatga sazovor bo‘lgan san’at, maorif, adabiyot namoyondalaridan iborat bo‘ladi. Ularning vazifasi adabiyotni, san’atni, jamiyatning ma’naviy hayotini rivojlantirishdan iboratdir. Ilm-fan sohasidagi elita - qobiliyatli, iste’dodli intellektual elitadir. Bu elitaning roli fan va texnikaning taraqqiyotiga ko‘rsatgan ta’sirida namoyon bo‘ladi.

Siyosiy elita esa hukmron, muxolifatdagi, oliy, oʻrta va maʼmuriy elitalarga boʻlinadi.

1. Hukmron elita - bevosita davlat hokimiyatiga ega elitadir;
2. Muxolifatdagi elita - kontrelitadir;
3. Oliy elita - davlat darajasidagi ahamiyatga ega qaror qabul qiluvchi elita;
4. Oʻrta elita - jamoatchilik fikrining oʻlchovi boʻlib xizmat qiladi;
5. Maʼmuriy elita - xizmatchi-boshqaruvchilar, byurokratiyadir.

Jamiyat hayotida tutgan oʻrniga muvofiq siyosiy elita bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Siyosiy elita bajaradigan vazifalarning mazmuni va chegaralari mamlakat Konstitusiyasi tomonidan belgilangan boʻladi. Avvalambor, siyosiy elita strategik vazifani bajaradi. Bu vazifa jamiyat taraqqiyotining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishda, xatti-harakatlarning siyosiy dasturini belgilashda namoyon boʻladi. Uning ijtimoiy vazifasi davlat va jamiyatni boshqarishda, qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilishda namoyon boʻladi. Uning asosiy vazifalaridan yana biri - aholining turli qatlamlari manfaatini ifoda etish va qondirishdir. Siyosiy elita doimo ommani uyushtirish zarurati bilan toʻqnashganligi bois tashkiliy vazifa elitaning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

Siyosiy elita oʻz vazifalarini amalga oshirishining zaruriy sharti - uning jamiyatni boshqarish uchun barcha imkoniyatlarga ega boʻlishidir. «Bu maqsadda uning qanchalik va qanday tarzda majburlash usulidan foydalana bilishi, sharoitning oʻzgarishiga qarab, tezkorlik bilan kuchli resurslarni qoʻllay bilishi muhim ahamiyat kasb etadi»¹⁶. Koʻrinib turibdiki, elita siyosiy hokimiyat amal qilishining qudratli poydevori boʻlib xizmat qiladi, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va siyosiy dasturlarni ishlab chiqish hamda hayotga tatbiq qilishning tashabbuskori boʻlib maydonga chiqadi.

¹⁶ A.I.Solovyev. Politologiy. Politicheskaya teoriya, politicheskiiye texnologii.M.:Aspekt Press, 2000 yil, 134-bet.

Siyosiy elitaning shakllanishi asosan mamlakatning konstitusiyasi va qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi. Siyosiy hokimiyatning legitimligi ta'minlangan va barqaror mamlakatlarda siyosiy elita faqat shu yo'l bilan shakllanadi. Biroq hayot shunchalik rang-barangki, uni konstitusiya orqali to'la qamrab olishning hech ham iloji yo'q. Shu bois, mamlakatdagi siyosiy vaziyat jiddiy o'zgarishlarga duchor bo'lganida o'tish davrining o'ziga xos xususiyatlari ham siyosiy elitaning shakllanishiga ta'sir qilmay qolmaydi. Bu jarayonga siyosiy tartibot ham kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning strategik yo'nalishlarini belgilash, jamiyat uchun zaruriy islohotlar konsepsiyasini ishlab chiqish siyosiy elita zimmasida ekanligini ta'kidlagan edik. Bu vazifalarning bajarilishi siyosiy elitadan alohida iste'dod va layoqatni talab qiladi. Chunki bu vazifalarni bajarish faqat professional siyosatchilarning qo'lidan keladi. Xo'sh, siyosiy elita vakillari qanday sifat sohiblari bo'lishlari kerak? Ular jamiyatning boshqa qismidan qanday sifatlari bilan ajralib turishlari lozim? Axir, «elita» atamasining o'zi «tanlangan», «eng yaxshi» degan mo'noni anglatadi-ku. Ushbu alohida guruhga tanlov muayyan, qadrlanadigan sifat va qobiliyatlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bu sifatlar uning egalariga muayyan intellektual, ahloqiy va moddiy ustunlik beradi.

Omma bilan qiyoslaganda elita o'z faoliyatining yuqori darajadagi mahsuldorligi va samaraliligi bilan ajralib turadi, degan fikr keng tarqalgan. Albatta, davlatni yuksak zakovat egalari, bilimdonlar, siyosiy donishmandlar boshqaradilar. Lekin siyosiy elita uchun eng asosiysi - boshqarish qobiliyati, tashkilotchilik sifatlari, burch va yuksak mas'uliyat hissidir.

Alohida, o'ziga xos guruh sifatida siyosiy elitaga ichki guruhiy birdamlik xos. Bir maqsad sari yo'nalganlik ularni birlashtiradi. Bu qatlamdan o'rin olish muayyan mavqeni egallashga, moddiy va ma'naviy imtiyozlarga ega bo'lishga intilish bilan shartlangan. Elita o'zining imtiyozli mavqeini saqlab qolishdan

guruhiy manfaatdor bo‘ladi. Biroq siyosiy elitaning ichida ham raqobat bo‘lishi mumkin. Tarixiy tajribaning ko‘rsatishicha, siyosiy hokimiyat bor joyda uning uchun kurash ham bo‘ladi. Biroq bu kurash turli shakllarda amalga oshiriladi - madaniylashgan, demokratik shakllardan tortib, to shafqatsiz shakllargacha. Demak, ko‘p narsa elitaning sifatli kadr tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. Bu esa siyosiy elitani shakllantirish mexanizmi naqadar ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Shu boisdan, siyosiy elitaning shakllanishiga ta’sir qiluvchi omillarni o‘rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Tabiiyki, vaqt o‘tishi bilan siyosiy elitaning shaxsiy tarkibi o‘zgaradi, biroq uning mansab tuzilmasi o‘zgarmay qoladi. Monarxlar, prezidentlar, vise-prezidentlar, bosh vazirlar, vazirlar, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi idora rahbarlari, deputatlar, oliy sud a‘zolari, joylardagi hokimiyat rahbarlari, oliy diplomatik korpus vakillari zamonaviy davlatlarning siyosiy elitesini tashkil etadi.

O‘z vaqtida qator G‘arb davlatlarida (shu jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya va GFRda) siyosiy elita tarkibi tahlil qilingan edi. Unga ko‘ra, elita tarkibiga kirganlarning eng faollari 50-65 yoshda bo‘lib, ularning 60-80 foizi bir yoki ikki oliy o‘quv yurtini tugatganlar, asosiy qismi - yirik mulkdorlardan iborat. Ma’lumotlarga ko‘ra, turli mamlakatlarda siyosiy elitaning miqdori 2-4 ming kishidan ortmaydi, ya’ni siyosiy elita - ancha tor va kam sonli tabaqa hisoblanadi.

Siyosiy elitaning shakllanishi masalasiga e’tibor bermaslik, bunga to‘xtalmaslik tahlilning ilmiy qimmatini kamaytirgan bo‘lar edi. Siyosiy elitaga tanlash tizimining asosida bir nechta omil yotadi. Ulardan asosiylari: ijtimoiy bazaning kengligi, tanlovni amalga oshiruvchi kishilar doirasi, elitani tanlash mezoni va tartibi. Tabiiyki, bu omillar har bir mamlakatda o‘zgacha. Ko‘p narsa shu mamlakatlarda o‘rnatilgan siyosiy tartibotga bog‘liq bo‘ladi. Yuqorida sanab o‘tilgan omillar va siyosiy tartibotning o‘ziga xos xususiyatlari siyosiy elitaning

shakllanishida ikki yo‘nalishni tug‘dirdi. Ularni qiyoslab ko‘raylik. Birinchi yo‘nalish uchun siyosiy elitani shakllantirishning yopiqligi xosdir:

- uni shakllantirishning sosial bazasi juda tor;
- odatda, u jamiyatning hukmron ijtimoiy tabaqalari vakillari hisobiga to‘ldiriladi;
- tanlovni amalga oshiruvchi kishilar doirasi (selektorat) cheklangan bo‘ladi.

Mazkur yo‘nalish avtoritar va totalitar siyosiy tartibotga ega davlatlar uchun xos bo‘ladi. Agar ijtimoiy manfaatlar haqida gap ketsa, u holda bu yo‘nalish turg‘unlikka, inqirozli vaziyatlarning kuchayishiga olib keladi. Siyosiy elita qanchalik biqiq bo‘lsa, u tobora jamiyatni samarali boshqarish qobiliyatini yo‘qotib boradi va demak, o‘z hukmronligini saqlab qolishga qodir bo‘lmaydi.

Aynan shu yo‘nalishga sobiq SSSRdagi siyosiy elita shakllanishining nomenklatura usuli misol bo‘la oladi. Siyosiy elitani shakllantirishning bunday mexanizmi oqibatlarini hozirda ham mustaqil davlatlarning elitalarida sezish mumkin. Demokratik islohotlar yo‘lini tanlagan O‘zbekiston Respublikasida ham shunga o‘xshash holni kuzatish mumkin. Siyosiy elitadan o‘rin olganlarning ba‘zilari yetarli darajada malakaga ega emas, chunki ilgari hech ham siyosiy elita tarkibiga kirmaganlar, unga tegishli bo‘lmaganlar va demak, bunday ish tajribasiga ega emaslar, bu «maktab»ni o‘tamaganlar. Biroq yana boshqa birlari ilgari elitaga tegishli bo‘lganliklari uchun ham malakaga ega emaslar. Chunki bu elita nomenklatur tamoyilga muvofiq shakllangan bo‘lib, eski tushuncha va tasavvurlar ularning ongida chuqur ildiz otgan.

Siyosiy elitaning shakllanishidagi ikkinchi yo‘nalish birinчисiga mutlaqo qarama-qarshidir. Ta’kidlash joizki, bu yo‘nalish demokratik siyosiy tartibotga ega mamlakatlar uchun xos. Demak, bu davlatlarda siyosiy elitaning asosiy qismi tayinlashlar yo‘li bilan emas, balki umumiy saylovlar yo‘li bilan shakllantiriladi. Mazkur yo‘nalish uchun quyidagilar xosdir:

- selektoratning keng doirasi (barcha saylovchilar);

- tanlov jarayonining ochiqligi;
- jamiyatning har qanday ijtimoiy guruhi vakilining siyosiy mansab egallashga da'vogar bo'lish imkoniyatining mavjudligi;
- tanlovning raqobatli ekanligi;
- rahbar lavozimlarga da'vogarlarining shaxsiy sifat va qobiliyatlariga yuqori talablarning qo'yilishi.

Bunday tizim tufayli «eng yuqoridan», ya'ni siyosiy elitadan iste'dodli, irodali, professional malakaga ega, hokimiyat mexanizmi bilan «uzoqdan» emas, «ichkaridan» tanish insonlar o'rin oladilar. Biroq bo' yo'nalishlar siyosiy hayotda sof holda uchramaydi.

Zamonaviy jamiyatda elitaning shakllanishiga elita a'zolarining qaysi ijtimoiy guruhga mansub ekanligi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Aslida, ijtimoiy mansublik ko'p jihatdan elitaga mansublik bilan belgilanadi, chunki siyosiy elitaga «kirish» eski ijtimoiy va kasbkorlik maqomini yo'qotish va yangisiga ega bo'lishni anglatadi. Masalan, parlamentga saylangan ishchi, garchi etnik, diniy, yosh ko'rsatkichlarini yo'qotmasa-da, odatda, eski kasbini tashlaydi.

Elita vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi ularning ijtimoiy yo'nalishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Fermer, ishchi, xizmatchi, turli etnik guruhning vakillari, tabiiyki, shu ijtimoiy guruhning muammolarini, istaklarini yaxshiroq biladilar. Biroq ishchilarning manfaatlarini ishchilar, dehqonlarnikini - dehqonlar, yoshlarnikini - yoshlar himoya qilishi shart emas. Ko'pincha buni jamiyatning boshqa ijtimoiy guruhlaridan chiqqan insonlar - siyosatchi-professionallar yaxshiroq uddalashi mumkin.

Zamonaviy davlatlarda elita bilan aholining ijtimoiy ko'rsatkichlarida o'xshashlik kam. Masalan, G'arb mamlakatlarining elitesida boshqar guruhlariga nisbatan universitet bitiruvchilarining soni ko'proq. Bu esa, o'z navbatida, ularning ota-onalari yuqori ijtimoiy maqomga ega bo'lganligini bildiradi. Egallayotgan lavozimi ko'tarilgan sari siyosiy elitada turli qatlam vakillarining

soni kamayib boradi. Lekin bu narsa elitaning ijtimoiy vakilligini inkor etmaydi. Rahbar kadrlarning tashkiliy mansubligi, ya'ni ularning biron-bir partiya yoki kasaba ittifoqlariga tegishliligi ham muhim omillardan biri sanaladi. Chunki partiyalar va boshqa tashkilotlar o'z vakillariga yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatish imkonini orttiradi.

Siyosiy elitaning shakllanishiga elitalarni tanlash tizimi jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Elitalarni tanlashning ikkita asosiy tizimi mavjud: gildiya tizimi va antreprenorlik tizimi. Elitalarni tanlashning antreprenorlik tizimi demokratik davlatlarda ustun bo'lsa, gildiya tizimi - totalitar davlatlar uchun xosdir. Lekin gildiya tizimining ba'zi elementlari Buyuk Britaniya, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda ham uchrab turadi. Gildiya tizimi uchun quyidagilar xos:

- * yopiqlik - yuqori mansablarga talabgorlarni elitaning quyi qatlamlaridan tanlash, yuqoriga asta-sekin chiqish, qavatma-qavat ko'tarilish;
- * tanlov jarayonida mansab egallash uchun rasmiy talablarning ko'pligi: partiyaviyligi, yoshi, ish staji, ma'lumoti, ilgari egallagan mansabining darajasi va h.k.
- * selektoratning nisbatan yopiq doirasi: odatda unga rahbar idoraning a'zolari yoki birinchi rahbar kiritiladi.

Elitalarga tanlashning antreprenor tizimi gildiya tizimiga qarama-qarshidir:

- * ochiqlik, har qanday ijtimoiy guruh vakillarining rahbar lavozimlarini egallashdagi keng imkoniyatlari;
- * rasmiy talablarning kam sonliligi;
- * selektoratning keng doirasi;
- * tanlovning yuqori darajadagi raqobatlilik;
- * shaxsiy sifatlarning, inson faolligining, keng ommaning qo'llabquvvatlashiga erishishning birinchi darajali ahamiyati.

Odatda, u yoki bu nomzodning tanlovi masalasi ko'ndalang bo'lganida, M.Veberning fikricha, elita vakillari to'rt asosdan kelib chiqadilar. Birinchidan, ular o'z doirasidagi kishilarni tanlashga harakat qiladilar va bu bilan rahbar guruhning birdamligini oshirishga intiladilar. Ikkinchidan, u yoki bu insonga nisbatan his-tuyg'ularidan kelib chiqadilar, uni yoqtirishlari yoki yoqtirmasliklari tanlovga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Uchinchidan, bu nomzodning elita uchun xos fe'l-atvor qoidalari va uning uchun majburiy qarashlarga mos yoki mos emasliklarini baholaydilar. To'rtinchidan, ular ishbilarmonlik nuqtai nazaridan yondashib, nomzodning o'ziga yuklangan vazifalarni qanchalik uddalay olishini chamalab ko'radilar.

GFR tadqiqotchilarning tahlillariga ko'ra, Germaniyada hukmron elita tarkibiga kirish uchun inson quyidagi talablarga javob bermog'i lozim. Birinchidan, otanasining ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy maqomi ancha yuqori bo'lishi kerak. Ikkinchidan, ulardan muayyan turdagi tarbiya va universitet ma'lumoti talab qilinadi. Uchinchidan, elitaga nomzod biror dinni qabul qilgan bo'lishi va muayyan qarashlar tizimiga ega bo'lishi lozim. To'rtinchidan, u «ko'tarilish»ga imkon beradigan kasbkor yoki faoliyat yo'nalishiga ega bo'lmog'i darkor.

Siyosiy elita uchun «yuqoriga ko'tarilish»ning yana ikki yo'li xosdir. Birinchisini nisbiy ravishda byurokratik deb atash mumkin. Unga ko'ra inson avval davlat idoralarida yoki mahalliy hokimiyatlarda ancha kamtarin lavozimni egallaydigan amaldor bo'ladi. Siyosiy faoliyatga o'tish karyerasining o'rtalarida sodir bo'ladi. Odatda, bu yo'l asosiy ko'rsatkichlari ancha past kishilar uchun xos bo'ladi. Ikkinchi yo'l - madaniy, ilmiy, huquqiy yoki pedagogik faoliyatdan boshlanadi va odatda, bu faoliyat jamoatchilik ishlari bilan uyg'un bo'ladi. Kasb-korlik nuqtai nazaridan emas, ko'proq jamoatchilik ishlari tufayli «yuqoriga ko'tarilish» sodir bo'ladi.

Siyosiy elitaning shakllanishiga, uning kadr tarkibiga ta'sir qiluvchi muhim omillardan biri - uni nazorat qilish mexanizmlaridir. Zamonaviy demokratik

jamiyatda siyosiy elitalarni nazorat qilishning qator mexanizmlari shakllangan. Bular: partiyaviy nazorat mexanizmlari, saylovlar, ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik fikrining so'rovlari, bosim guruhlarining nazorati va hokazolar. Ichki nazorat usullari ham kam ahamiyatga ega emas. Bunda rahbar shaxsning professionalizmi, bilimdonligi, mas'uliyati, ahloqi ichki nazorat mezonlari bo'lib xizmat qiladi. Siyosiy elitaning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarning naqadar muhimligi keyingi bobda O'zbekiston Respublikasidagi siyosiy elitaning misolida kengroq yoritib beriladi.

Har qanday jamiyatda elitaning muqarrar mavjud bo'lishi inkor qilib bo'lmas qonuniyatdir. Elita tarkibiga kirishga intilishlarning negizida shu orqali muayyan imtiyozlarga ega bo'lish istagi yotadi. Tabiiyki, elita bu imtiyozlarni xalq ommasi «tajovuzidan» qo'riqlash to'g'risida doimo qayg'uradi. Elitaga xos bu xislat elitarlikni demokratik nazariyalarga qarama-qarshi qilib qo'yadi. Shu o'rinda jamiyatning elitarligini tan olish demokratiyani inkor qilmaydimi, degan tabiiy savol tug'iladi. Bu savolga elitar nazariya tarafdorlari osongina javob berib qutula olmaydilar.

Elitar nazariya tarafdorlarining bir qismi demokratiyani tanqid qilib, jamiyatning malakali va samarali boshqaruvini amalga oshiruvchi kuchli va mustaqil hokimiyatning zarurligini asoslashga harakat qiladilar. Ammo ko'pgina G'arb siyosatshunoslari elitarizm tamoyillarini demokratiya tamoyillari bilan uyg'unlashtirishga harakat qiladilar. Ular demokratik nazariyalarni hokimiyatning elitar strukturasi moslashtirishga intiladilar va «poliarxik demokratiya» yoki «demokratik elitizm» kabi murosali ta'limotlarni yaratadilar.

Elitarizm siyosiy ta'limot sifatida paydo bo'lgan paytdanoq demokratiya tanqid ostiga olinib boshlandi. T.Botgomorning ta'kidlashicha, «elita nazariyalari ijtimoiy iyerarxiyaning eski g'oyalarini jonlantirish va demokratiyaning taraqqiyoti yo'lida to'siqlar o'rnatishga urinishdan bo'lak narsa emas»¹⁷.

¹⁷ Bottomore.T. Op.Cit. P.9.

Elitarizm bilan demokratiya nazariyalari o'rtasidagi ziddiyat quyidagilarda namoyon bo'ladi: **birinchidan**, elitarizm insonlarning teng emasligidan kelib chiqqan bo'lsa, demokratiya ularning tengligini e'lon qiladi; **ikkinchidan**, elitarizmning asosi - hukmron ozchilikning to'la huquqligini e'tirof etishdir, vaholanki, demokratiyaning huquqiy tamoyili - xalq irodasining hokimiyat manbai sifatida tan olinishidir.

Elitaristlar amerikalik demokrat A.Linkolnning «Demokratiya - xalq tomonidan saylangan xalqning xalq uchun boshqaruvi» g'oyasini aynan tushunmaslik kerak, deb ta'kidlaydilar. Ular xalq boshqaruvini, ayniqsa yirik malmakatlarda, amalga oshirish «texnik nuqtai nazardan» mumkin emasligini uqtiradilar va shu boisdan, xalq elitaga siyosiy boshqaruv uchun zarur vakolatlarni berishi kerak, deb hisoblaydilar.

Elitarizmning yana bir g'oyasi - xalq siyosatdan xabardor emas, bu haqda yetarli bilim va axborotga ega emas, shu bois, agar u boshqaruv bilan shug'ullansa, o'ziga o'zi zarar qilib qo'ygan bo'lar edi. Uning manfaatlarini oqil va bunga «tayyorlangan» elita xiyla yaxshiroq ta'minlaydi. Elitaristlarning fikricha, demokratiya eng afzal ko'rinishda elitaning boshqaruv shakli bo'lishi mumkin.

Albatta, demokratik mamlakatlarning konstitusiyasiga muvofiq oliy hokimiyat xalq qo'lidadir. Biroq siyosiy voqelik bu meyordan ancha uzoq ekanligi hech kimga sir emas. Zamonaviy siyosiy tizimlarda ko'pchilik aholining hayotiy muhim qarorlarning qabul qilinishi amalda ishtirok etishi uchun sharoit yo'q va xalq siyosiy hokimiyatdan begonalashgan. YA'ni xalq siyosatning subyekti emas, balki ijtimoiysiyosiy boshqaruvning obyektini tashkil etadi.

Elitaristlarning uqtirishicha, siyosatda ommaning ishtiroki saylovlardagi ishtirok bilan cheklanadi. Bunda omma siyosatni shakllantirmaydi, balki aniq shaxslarni saylaydi, ya'ni ularning ishtiroki konkret elitaning hokimiyatini legitimlashtirishga xizmat qiladi, xolos.

Ko'pgina liberal ruhdagi siyosatshunoslar elitizmni g'ayridemokratik dunyoqarash sifatida tanqid qiladilar. Xususan, D.Shpitsning «G'ayridemokratik tafakkur modellari» deb nomlangan kitobida elitar nazariyalar demokratiya uchun xavfli ekanligi uqtiriladi. Demokratiyaning tanqidchilari esa o'zlarini oqlash uchun ikkita vaj keltiradilar: birinchidan, demokratiya bo'lishi mumkin emas, uni amaliyotga tatbiq etib bo'lmaydi; ikkinchidan, demokratiya, agar uni o'rnatish mumkin bo'lganida ham istalmagan hodisadir, u ko'ngilsizliklarni keltirib chiqaradi. Shunday qilib, ular demokratiyani elita hokimiyatining u yoki bu darajadagi mohirona niqobi, deb e'tirof etadilar.

Biroq oxirgi yillarda elitizm bilan demokratiyaning «tarixiy kelishuvi» sodir bo'lganligini qayd qilish lozim. Bunda demokratiya tushunchasi ancha erkin sharhlanadi. Bu - demokratik ta'limotlarni industrial va postindustrial jamiyat sharoitlariga mos ravishda «zamonaviylashtirishga» urinishdir.

Agar dastlabki paytlarda elitizm demokratiyaga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lgan bo'lsa (buni Platon va Nisshedan tortib, Moska va Paretolarning asarlarida ko'rish mumkin), 30-yillardan boshlab qator siyosatshunoslar elitizmni demokratik institutlarning qadriyatlarini bilan uyg'unlashtirishga harakat qilmoqdalar. Hattoki Moskaning o'zi ham umrining oxirlarida demokratiya haqidagi fikrini o'zgartira boshladi. Bunda u elitarlikdan voz kechish haqida emas, balki uning shaklini biroz o'zgartirish to'g'risida qayg'ura boshladi. Moska o'zi uchun kutilmagan "paradoksal" xulosaga keldi, bunda u demokratik usullardan boshqaruvchi qatlamning kuch-qudrati va barqarorligini orttirish yo'lida foydalanish mumkinligini uqtirdi. Uning fikricha, demokratiya sharoitida "boshqaruvchi tabaqaning qatorlari birmuncha ochiq" bo'ladi va shu bois, elita ommaning ko'z-o'ngida legitim bo'ladi. Bundan tashqari, demokratiya elitaning o'z hokimiyatini amalga oshirish mexanizmini yaxshilashga xizmat qiluvchi quroli bo'ladi.

Keyinchalik "demokratik elitizm" ta'limoti paydo bo'ladi. Bu ta'limot xalq suvereniteti nazariyasini inkor qilmaydi, balki "butun jamiyatning gullab-yashnashi" uchun xizmat qiladigan demokratik elitaning hokimiyatini himoya qiladi.

Elitar nazariyalarni demokratik ta'limotlar bilan uyg'unlashtirish uchun ularni radikal tahrir qilish talab qilindi. Bu tahrir 30-40yillarda J.Shumpeter va K.Manngeymlar tomonidan amalga oshirildi. Shumpeter demokratiya tushunchasini zamonaviylashtirishni taklif qiladi. Demokratiyani «xalqning boshqaruvi» sifatida sharhlash o'rniga u demokratiyani «xalq tomonidan ma'qullanadigan» hokimiyat deb izohlashga undaydi. Shumpeter «mo'tadil demokratiya» tarafdori bo'ladi. U tomonidan taklif qilingan va ancha keng rasm bo'lgan demokratiya ta'rifi jamiyatning elitar tuzilishini hamda ommaga raqobatdagi elitalar orasidan tanlovni amalga oshirish imkoniyatini berishni nazarda tutadi.

Bir-birining ziddi hisoblangan elita nazariyalari va demokratiya ta'limotlari tutash nuqtalarga ega bo'ladilar. Hukmron elita har qanday jamiyat uchun, shu jumladan, demokratik jamiyat uchun ham zaruriy deb tan olinadi; hokimiyat uchun kurashda elitalarining raqobati va ularning ochiqligi asosiy xususiyatlar sifatida esa qayd qilinadi. Bunda omma muayyan tarzda, ya'ni raqobatdagi elitalar orasidan tanlovni amalga oshirgan holda siyosatga ta'sir ko'rsata oladi. Shumpeter demokratiyani «hokimiyat tepasiga insonlarning ovozlari olish uchun raqobatli kurash vositasida kelganlarning siyosiy qarorlarni amalga oshiruvchi instituti» sifatida ta'riflaydi. Demokratiyaning bunday «bozor» ta'limotida turli elitalar o'zlarining dasturlarini «sotishga olib chiqadilar», «xaridor»-omma esa saylovlarda ularni qabul qiladilar yoki rad etadilar.

K.Manngeym ham shunga yaqin pozitsiyani egalladi. O'zining ilk ilmiy ishlarida u elitarizmni avtoritarizm va g'ayridemokratiya bilan bog'lar edi. Biroq vaqt o'tgach, uning nuqtai nazari o'zgaradi va u quyidagi fikrga keladi:

«Siyosatni ishlab chiqish bilan aslida elita shugʻullanadi, lekin bu narsa jamiyatning gʻayridemokratik ekanligini bildirmaydi. Fuqarolar boshqaruvda bevosita ishtirok etish imkoniyatiga ega boʻlmaganliklari tufayli, demokratiyada ular oʻz tuygʻularini ifoda etishlari, saylovlarda u yoki bu elitani maʼqullashlari yoxud inkor etishlarining oʻzi kifoya»¹⁸. Manngeym shuningdek, elitarizmning «teng imkoniyatlar» tamoyiliga zid emasligini taʼkidlaydi. Bunda elitaning insonlarning xizmatlariga muvofiq shakllantirilishi shartdir.

AQShda elitarizmning liberal koʻrinishi G.Lassuel maktabi tomonidan rivojlantirildi. Lassuelning taʼlimotiga koʻra «demokratiya oligarxiyadan elitaning yoʻqligi bilan ajralib turmaydi, balki elitaning ochiq, vakolatli va masʼuliyatli ekanligi bilan farqlanadi»¹⁹. Aynan shunday elita boshqarish koʻnikmasiga va boshqaruv uchun zarur bilimlarga ega boʻladi hamda murakkab va koʻp turkumli ijtimoiy organizmga rahbarlik qilishga mos keladi.

Elitizm va demokratiyaning nisbati haqidagi masala koʻp marotaba xalqaro sosiologik va politologiy anjumanlarda muhokama qilindi. IY xalqaro sosiologik kongressda italiyalik siyosatshunos-olim N.Bobbio «Italiyaning demokratik mualliflari anʼanalarida siyosiy sinf tushunchasi nazariyasi» mavzuida maʼruza qiladi. Oʻz chiqishida u G.Moska, P.Gobetgi va G.Dorsoning izdoshlari elitizmi demokratiya bilan uygʻunlashtirishga erishdilar, deb uqtiradi. Dorso hukmron sinf (siyosiy va intellektual elita bilan birgalikda) bilan siyosiy sinf (boshqaruvchi qoʻmita va hukmron sinfning texnik quroli) oʻrtasidagi farqni koʻrsatdi. Soʻng hokimiyat tepasida turgan siyosiy sinf bilan muxolifat oʻrtasidagi farq koʻrsatildi. Har bir siyosiy sinf boshqaruvchi va muxolifatga boʻlinishi tabiiy ekanligi taʼkidlandi. Demokratiyada sinflar barqaror va muntazam ravishda navbatma-navbat oʻrin almashganidagina ular hukmronlik qilishi mumkinligi uqtirildi. Oʻz maʼruzasining nihoyasida Bobbio quyidagilarni

¹⁸ Ashin G.K., Ponedelkov A.V., Ignatov V.G., Starostin A.M. Osnovi politicheskoy elitologii. M.: 1999, 178-bet.

¹⁹ Hoover Institute Studies «B» Ed. By H. Lassewel. Preface. Stanford.1952.

ma'lum qildi: «Siyosiy sinf nazariyasi o'z taraqqiyoti jarayonida demokratiyaning dushmanlari qo'lidan uning do'stlari qo'lga o'tdi»²⁰.

Biroq o'ylashimizcha, Bobbioning tantana qilishi biroz vaqtlidek ko'rinadi. Elitar va demokratik ta'limotlarning uyg'unlashuvi ko'p jihatdan rasmiy tabiatga ega. Demokratik elitizm nazariyasining ko'zga ko'ringan namoyandaligidan biri amerikalik siyosatshunos P.Baxraxning uqtirishicha, «meyoriy nuqtai nazardan demokratik va elitar nazariyalar o'rtasida fundamental, jiddiy farq mavjud»²¹. Agar demokratiyaning tabiiy tayanchi xalq bo'lsa, «demokratik elitarizm» demokratik yo'naltirilgan elitaga tayanadi. Bunda elitalar nafaqat demokratiyaning saqlanishi uchun mas'ul bo'ladilar, balki demokratik qadriyatlarni himoya qiladilar va ommaga xos g'ayridemokratik intilishlarni jilovlab turadilar.

M.Allening uqtirishicha, «ommaning taqdiri elitaning sifatiga bog'liq bo'ladi». Italiyalik siyosatshunos L.Kavallining fikricha, aynan elita xalqni demokratiya ruhida tarbiyalaydi, demokratik siyosiy institutlarni yaratadi, axborot olish ko'nikmalarini shakllantiradi, mustaqil va shu bilan birga mas'uliyatli qarorlar chiqaradi. Shunday qilib, barcha umidni ommaning havaskorligi bilan bog'lamay, yaxshi va malakali elita bilan bog'lamoq darkor.

«Demokratiya - bu xalq hokimiyatidir, - deb yozadilar T.Day va X.Saygler, - biroq demokratiyaning omon qolishi, taqdiri elitaning qo'lida, zimmasidadir. Bu demokratiyaning kinoyasi - elita «xalq boshqaruvi» omon qolishi uchun elita donishmandlarcha hukmronlik qilishi kerak. Agar Amerika siyosiy tizimining omon qolishi fuqarolarning faolligi, bilimdonligi va siyosiy savodxonligiga bog'liq bo'lganda edi, Amerikada demokratiya allaqachonlar yo'qolib ketgan bo'lar edi, chunki Amerikadagi omma siyosatga befarq va demokratik qadriyatlarga kam mehr qo'ygan. Biroq, baxtni qarangki, amerikalik omma yo'l

²⁰ Ashin G.K., Ponedelkov A.V., Ignatov V.G., Starostin A.M. Osnovi politicheskoy elitologii. M.: 1999, 180-bet.

²¹ Ross E. Sosial Psychology, N.Y.,1919. P.193.

²⁵ De T., Zeigler H. Op, cit. P. 2.

boshlamaydi, balki elitaning orqasidan ergashib boradi... Amerika siyosatining ramzlari demokratiyaga asoslansa-da, voqelikni elitar nazariya nuqtai nazaridan yaxshiroq tushunish mumkin»²⁵.

Demokratik siyosiy tizimlarda elitaning mavjudligi paradoks hisoblanadi. Demokratiya aslida elitani inkor qilishi kerak, chunki elitaning mavjudligi xalq hokimiyatining cheklanishi demakdir. Aslida esa demokratiya elitaning minimal hokimiyati, tiraniya - elitaning maksimal hokimiyati emasmi? Biroq zaif elita - zaif boshqaruv, muqarrar xatolar, ommaning noroziligi, beqarorlik demakdir. Shu boisdan, demokratiya elita va omma munosabatlarining shunday samarali yechimini topishi kerakki, bunda elita ommani bostirmasdan, uning faolligini rag'batlantirishi kerak. Bunda elita maqsad emas, balki samarali va oqilona boshqaruv vositasi bo'lib xizmat qilishi kerak. Demokratik siyosiy tizimlardagi elita mumkin qadar kamtar bo'lishi lozim, chunki u xalq manfaatlariga xizmat qilish uchungina mavjuddir. Demokratik elita xalqning haqiqiy xizmatkorlaridan iborat bo'lishi taqozo etiladi.

3. Siyosiy yetakchilik. Rollar orqali boshqarish.

Hozirgi zamon siyosiy fanida siyosiy yetakchilikka bir necha xil yondashuv mavjud. Xususan, yetakchilik - boshqa kishilarga ta'sir ko'rsatish sifatida tushuntiriladi. Lekin har qanday ta'sir ham yetakchilik maqomini ta'minlamaydi. Buning uchun ta'sir uch xil jihatga ega bo'lishi lozim: ***birinchidan***, ta'sir doimiy bo'lishi kerak; ***ikkinchidan***, yetakchining rahbarlik ta'siri butun guruh, tashkilot, jamiyatga nisbatan amalga oshirilishi kerak, ya'ni ta'sirning kengligi; ***uchinchidan***, siyosiy yetakchi ta'sirda ustunligi bilan ajralib turishi kerak. Boshqa yondashuvlarga ko'ra, yetakchilik - bu boshqaruvchilik maqomi, rahbar mansabdir. YA'ni boshqaruv vazifalarini bajarish bilan bog'liq faoliyat yuritish insonga yetakchilik maqomini beradi.

Boshqaruv tobora murakkablashib, og'irlashib borayotganini tan olish lozim. Raqobat kuchayib, mas'uliyat tobora ortib bormoqda. Ta'kidlash joizki, yetakchi tayinlanmaydi, belgilanmaydi, u shakllanadi. Shunday ekan, yetakchi qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak, degan savol tug'ilishi tabiiy.

Yetakchi:

- o'ziga ishongan bo'lishi;
- xodimlarining xizmatlarini tan olishi va to'g'ri baholashi;
- hamfikrlar komandasini shakllantira bilishi;
- ayrim vaziyatlarda tavakkal qilishi;
- qabul qilgan qarorlari uchun mas'uliyatni bo'yniga olishi;
- qattiqqo'l bo'lishi;
- yuqori ma'lumotli bo'lishi;
- o'z g'oyalari ortidan odamlarni ergashtira bilishi, ularni ruhlantira olishi;
- kuchli xarakterga ega bo'lishi, boshlagan ishini oxiriga yetkazishi,
- o'zgarishlarga tayyor bo'lishi, o'zining doimiy o'sishi haqida qayg'urishi;
- strategik fikrlay olishi;
- har bir qadamini puxta o'ylab bosishi;
- vaziyatga javoban tezkor choralar ko'rishi;
- yuqori kasb malakasiga ega bo'lishi;
- qat'iyat sohibi bo'lishi;
- o'z jamoasiga ishonishi, xodimlarining qobiliyatlari va sifatlarini o'rganishi, ularning shaxsiy hayotidan xabardor bo'lishi;
- irodasi kuchli bo'lishi;
- yaxshi nom chiqargan bo'lishi;
- professionalizm hisobiga, xodimlaridan bir bosh baland bo'lish hisobiga xodimlari bilan o'zi orasida masofa saqlashi lozim.

Siyosiy yetakchilar turlicha tasniflanadi. Avvalambor, avtoritar va demokrat yetakchilar ajratiladi. Avtoritar yetakchi - kuch ishlatishga, majburlashga asoslanadigan bo'lsa, demokrat yetakchi guruh yoki tashkilot a'zolari fikrlarini hisobga olish, ularning boshqaruvdagi ishtirokiga asoslanadi. Yana yetakchilarni uchga ajratish keng tarqalgan: an'anaviy yetakchilar (urug' boshliqlari, monarxlar), legal yetakchilar (demokratik yo'l bilan saylangan yetakchilar) va xarizmatik yetakchilar - alohida sifatлари, nodir xususiyatlari, boshqarish qobiliyatlari bilan ajralib turuvchi kishilar.

Amerikalik tadqiqotchi M.Xerman yetakchining to'rt xil qiyofasini taklif etadi: bayroqdor yetakchi, xizmatchi yetakchi, savdogar yetakchi va o't o'chiruvchi yetakchilar. Bayroqdor - yetakchi hayotni ideal ravishda idrok qiluvchi va ommani shu ideal sari yetaklovchi kishidir. Xizmatchi - yetakchi o'z saylovchilarining manfaatlarini ifoda etuvchi, ularga xizmat qiluvchi kishidir. Savdogar yetakchi o'z g'oya va rejalarini chiroyli qilib ko'rsatuvchi, ularning afzalliklariga ishontiruvchi hamda bu g'oyalarni "sotib olishga" majbur qiluvchi odamdir. O't o'chiruvchi yetakchi eng dolzarb ijtimoiy muammolarga qarab ish tutadigan yetakchidir.

Yetakchilarga quyidagi vazifalarni bajarish nisbat beriladi:

- * jamiyatni, ommani birlashtirish;
- * samarali siyosiy qarorlar qabul qilish;
- * ommani qonunbuzarlikdan, byurokратиyaning o'zboshimchaligidan himoya qilish;
- * nazorat yordamida tartibni saqlash;
- * hokimiyat bilan xalqni yaqinlashtirish va shu orqali fuqarolarning siyosiy boshqaruvdan begonalashuvining oldini olish.

O'zi boshqarayotgan sohada muvaffaqiyatga erishish uchun yetakchi bir paytning o'zida bir necha xil rol o'ynashi kerak. Bugungi kunda yetakchi tor doirada fikrlab, o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarish bilangina cheklanishi

mumkin emas. Tizimli yondashuv va harakatchanlik – muvaffaqiyat garovi bo‘lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, rahbar tomonidan qator rollarning bajarilishi uning faoliyati samaradorligini ta’minlaydi. Jumladan, rahbar kadrlardan quyidagi rollarni bajarish talab etiladi:

1. Tashkilot vakili;
2. Ekspert;
3. Axborot egasi;
4. Siyosatchi;
5. Resurslar taqsimlovchi;
6. Baholovchi;
7. Nazoratchi;
8. Muxarrir;
9. Tadbirkor;
10. Ma’muriyatchi;
11. Rejalashtiruvchi;
12. Ichki munosabatlarni tartibga soluvchi;
13. Rag‘bat va jazo manbai;
14. O‘rnak va taqlid uchun namuna;
15. Guruh ramzi;
16. Shaxsiy mas’uliyatdan xalos etuvchi omil;
17. Qadriyatlar tashuvchisi;
18. Ustoz, murabbiy.

Birinchi rolni ijro etishda yetakchi barcha rasmiy uchrashuv, majlis, tadbir, anjuman va safarlarda o‘zi boshqarayotgan tashkilot vakili sifatida shu tashkilot va uning hodimlari nomidan gapirishi, ularning manfaatlarini himoya qilishi nazarda tutiladi. Bundan tashqari, yetakchi yoki rahbarning yurish-turishi, xatti-

harakatiga qarab u boshqarayotgan tashkilotga baho berilishini ham unutmaslik lozim.

Ikkinchi rol – muhit va muammolarni o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lib, bunda rahbar o‘ziga xos ekspert sifatida harakat qiladi. Atrof muhitning o‘ziga xos xususiyatlari, qo‘l ostidagilarning qobiliyatlari va kayfiyatlari, sohada mavjud muammolar va ularni keltirib chiqaruvchi sabablarni bilmay turib, samarali boshqaruvni amalga oshirish mumkin emas. Shu nuqtai nazardan, rahbar tomonidan tashqi va ichki muhitning chuqur o‘rganilishi unga ustunlik beradi va to‘g‘ri qarorlar qabul qilishiga zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchi rol axborot taqsimlash va tarqatish bilan bog‘liq. Biz yashayotgan axborot asrida axborot tabiiy boyliklar qatoridagi strategik resursga aylangani sir emas. Katta hajmdagi, xolis axborotga egalik insonga raqiblaridan ustunlikni ta‘minlaydi. Yuqorida zikr etilgan rolning bajarilmasligi yetakchi va uning tashkiloti faoliyati samarasini tushirib yuboradi, ayrim hollarda esa ularni halokatli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Zero, busiz rahbar ko‘p narsadan g‘ofil bo‘lib qolishi, uning ogohlighi susayishi muqarrar. Bunda rahbar ikki savolni o‘z oldiga qo‘yishi kerak: “Men o‘z hodimlarimga qanday axborotni yetkazishim kerak, qanday shaklda yetkazishim kerak va qaysi vaqtda yetkazishim kerak?” hamda “Menga qanday axborot kerak, uni kimdan olishim kerak, qaysi shaklda va qachon olishim kerak?”.

To‘rtinchi rol – siyosatchi roli. Rahbar odam istaydimi-istamaydimi doimo siyosatchi rolini o‘ynashi kerak. Yetakchi kamida ikki yo‘nalishda siyosat olib borishi kerak. Birinchisi – tashkilot ichidagi siyosat bo‘lsa, ikkinchisi – resurslar uchun kurash, raqiblar bilan kurash, ta‘sir doirasini kengaytirish uchun kurashdan iborat. Bunda siyosat deganda hodimlarni muayyan maqsadlarga erishishga yo‘naltirish, ularning shu maqsad atrofidagi faoliyatini uyushtirish tushuniladi. Muayyan vaziyatlarda tashkilotda tub islohotlarni amalga oshirish zarurati vujudga keladi, shunda yetakchi rol oldida turishi, xodimlarni maqsad

sari boshlashi talab etiladi. Tashkilotning murakkab vaziyatlardan omon chiqishi ham, uning muvaffaqiyati ham rahbarga bog‘liqligini unutmang lozim. Tashkilotning strategik maqsad va vazifalarini belgilashda, byudjetni rejalashtirishda rahbarning zimmasiga katta mas’uliyat yuklatiladi. Xodimlar rahbar unga buyurgani uchun yoki bo‘shatilishdan qo‘rqqanidan ishlamasligi kerak. Yetakchilar maqsadni jozibador tasvirlab, shu maqsad sari harakatga xodimlarini ilhomlantirishi kerak.

Shu o‘rinda quruvchilar haqidagi hikoyani keltirish o‘rinli: Bir xil ish qilayotgan quruvchilardan ular nima ish qilayotganini so‘raganlarida biri “G‘isht teryapman” deb, ikkinchisi – “Pul topyapman” deb, uchinchisi “Odamlar kelib poklanadigan, Xudo bilan muloqotga kiradigan ibodatxona quryapman”, deb javob bergan ekan. Xodimlarning o‘z ishiga munosabati, tashkilot maqsadlarini anglashiga qarab yetakchi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Beshinchi rol resurslarni taqsimlash bilan bog‘liq. Rahbar doimo resurslar cheklanganini inobatga olishi va vazifalarning ustuvorligiga qarab, ularni taqsimlashi lozim. Bunda, shuningdek, bir qism resurslarni tejab qolish siyosatini yuritish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq resurs deganda, faqat moddiy va texnik resurslarni tushunmaslik kerak, zero, rahbar vaqt resurslari, inson resurslari, aqliy resurslar kabi boshqa muhim resurslarni ham taqsimlaydi.

Rahbarga yuklatiladigan oltinchi rol baholashga taalluqli. Bu rol nazorat qilish bilan bevosita bog‘liq. Bu rolni ijro etayotgan rahbar u yoki bu vazifalarni bajarish, muayyan jarayonlarni amalga oshirish mezonlarini ishlab chiqishi lozim. Shu tariqa rejada mo‘ljallangan natijalar bilan amalda olingan natijalarni solishtirishi kerak. Lekin bunda mahsuldorlik ko‘rsatkichlari va baholash mezonlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Bir narsani unutmang – tashkilotingizdagi insonlarning xatti-harakatlari ular qanday baholanayotganiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Ayrim hollarda bir xangomada bayon qilingan vaziyat yuzaga keladi: velosipedlarni yig‘ish sexida ishchiga uning faoliyatini baholash

mezonlarini aytishadi: “agar velosipedni sifatli yig‘sang – 120 so‘m olasan, agar velosipedni sifatsiz yig‘sang – 120 so‘m olasan, lekin velosipedni umuman yig‘masang – 120 so‘m olasan”. Demak, baholash tizimi bilan mukofotlash tizimining bir-biriga mos kelishi muhim sanaladi.

Yetakchining yettinchi roli – nazorat qilish bilan bog‘liq. Xo‘sh, nazoratchi rolini ijro etish bilan bog‘liq muammolar nimadan iborat ekan? Nazoratchi rolidagi yetakchi muammolarni o‘z vaqtida aniqlash va bu haqda ochiq-oydin aytish uchun shart-sharoit yaratib berishi lozim. Nimagadir, ayrim rahbarlar muammolarni xaspo‘shlash, ular haqida yuqori idoralarga gapirmaslik orqali ularni bartaraf etishga ishonadilar. Biroq ular qattiq yanglishadilar. Shu nuqtai nazardan, rahbarlarda bir muhim huquq bo‘lishi kerak – xato qilish huquqi. Zero, xatolarsiz taraqqiyot bo‘lmaydi, muammolarning vujudga kelishi muqarrar va “ishlagan odam xato qiladi”.

Sakkizinchi rol – muharrir roli. Nazariyaga ko‘ra, nazorat vazifasi faoliyatni biroz o‘zgartirish, uni tahrir qilishni nazarda tutadi. Biroq amaliyotda muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish jarayoni birbiridan ajratilgan bo‘ladi. YA’ni, muammolarni aniqlagan inson har doim ham ularni bartaraf etish jarayoniga jalb etilmaydi. Agar rahbar faqat nazoratchi vazifasi bilan cheklanib, vaziyatni to‘g‘rilash choralarini ko‘rmasa, u o‘z ishini eplay olmayotgan bo‘ladi. Muammolar aniqlangach, rahbar qator savollarga javob topishi lozim:

1. Bu muammo nima sababdan paydo bo‘ldi, uni keltirib chiqargan omillar qanday?
2. Bu muammoni hal qilish uchun zudlik bilan nima qilish kerak?
3. Keyinchalik bunday vaziyat takrorlanmasligi uchun qanday chora ko‘rish kerak?
4. Muammoni bartaraf qilish uchun shaxsan men nima qilishim kerak?

Bunda muammo muayyan harakatlar oqibatida yoki harakatsizlik oqibatida kelib chiqishi mumkinligini nazarda tutish lozim. Bu savollarga javob topgach,

rahbar ish taqsimlashi kerak. O'z xodimiga biror vazifani bajarishni topshirayotgan rahbar unga tegishli hokimiyat va mas'uliyat ulashadi. Biroq muayyan vakolatlarini uzatayotgan rahbar ayni paytda ishning qoniqarsiz sifati uchun o'zidan mas'uliyatni soqit qilmasligi kerak.

To'qqizinchi rol tadbirkorlik bilan bog'liq. Rahbar o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishi kifoya qilmaydimi? Nega yana unga tadbirkorlik roli yuklatilishi kerak? Rahbar nafaqat rejalashtirilgan vazifalarni bajarishi, balki noqulay, kutilmagan vaziyatlarga ham shay turishi kerak. Favqulodda vaziyatlar harakatsizlikni oqlamaydi. Rahbar o'zini oqlovchi dalillar izlamay, fors-major vaziyat yuzaga kelishini nazarda tutib, yangi imkoniyatlarni topishga harakat qilishi kerak. Zero, "qo'shimcha imkoniyatlar" degan ibora rahbar uchun quruq gap bo'lmasligi kerak

Navbatdagi rol – ma'muriyatchi roli. Yetakchi jamoaning butun faoliyatini muvofiqlashtiradi, o'zi ishlab chiqqan siyosatga muvofiq yoxud yuqoridan berilgan ko'rsatmalarga ko'ra xodimlariga vazifalarni taqsimlaydi. Ayrim yetakchilar "barcha ishda mening ishtirokim bo'lishi kerak" degan hayolda vazifa va mas'uliyatni birovga yuklashdan hayiqadi, natijada, ish hajmining ko'pligi tufayli ko'p ishlari bitmay qoladi.

Bunday yondashuv xodimlarning ham mas'uliyatini susaytiradi.

Yetakchining guruh ichidagi munosabatlarni tartibga soluvchi sifatidagi rolini izohlashga xojat bo'lmasa kerak. Bunda yetakchi qozi vazifasini bajaradi va nizolar kelib chiqqanida tinchlik o'rnatishga harakat qiladi. Jazo va rag'bat manbai vazifasini bajarishda yetakchi nafaqat moddiy omilga, balki axloqiy-ma'naviy omilga ham e'tibor berishi talab etiladi. Ta'kidlash joizki, jazolash ham, rag'batlantirish ham xodimning xizmatiga yarasha bo'lishi zarur.

O'rnak va taqlid uchun namuna bo'lgan yetakchi o'zining fe'l-atvori bilan boshqalar uchun hatti-harakat yo'nalishini belgilab beradi, xodimlari o'zini qanday tutishi kerakligini ko'rsatadi. Guruh ramzi rolini bajarganida

yetakchining tashqi ko‘rinishiga, fe‘l-atvori va kiyinishidagi farqlarga urg‘u beriladi. Yetakchi guruhning o‘zagi sifatida ramz vazifasini o‘tay boshlaydi, ularning harakatlariga yetakchilarning nomlari beriladi, ular o‘z ishlarini o‘z shaxslarining davomi deb biladilar.

Shaxsiy mas‘uliyatdan xalos etuvchi omil sifatida yetakchi ko‘pincha “qanday e‘tirozlar bo‘lsa – menga aytinglar!”, “mening nomimdan harakat qiling”, “men buyurganimni unga ayting” kabi iboralarni qo‘llaydi. Qadriyatlar tashuvchisi roli yetakchini guruhning dunyoqarashini tashkil etuvchi meyor va qadriyatlar manbaiga aylantiradi. Umuman olganda, yetakchi o‘z guruhi jamiyatning qaysi qismiga tegishli bo‘lsa, o‘shaning g‘oyasi, mafkurasini aks ettiradi.

Uzoq vaqtlargacha “karyera”, “karyerist” so‘zlari salbiy ohangda ishlatilar edi. Vaholanki, Buyuk Britaniyadagilarning 27,3 foizi ishni karyera qilish usuli deb hisoblaydi. AQShda esa bunday o‘ylaydiganlar 39,9 foizni tashkil etadi. Ta‘kidlash joizki, aslida “karyera” nafaqat xizmat pillapoyalaridan ko‘tarilish, moliyaviy ahvolni yaxshilash imkoniyati sifatida tushuniladi, balki ma‘naviy takomilni ham nazarda tutadi.

Xullas, yetakchi yaratuvchi tabiatga ega bo‘lishi kerak. Bunda “rahbarlik” va “yetakchilik” tushunchalari bir-biriga qarama-qarshi qo‘yilmasligi darkor. Yuqori natijalarga erishishdan manfaatdor kishi yetakchilikni rahbarlikning ajralmas bir qismi sifatida qabul qilishi kerak. Bundan tashqari, yetakchilikning quyidagi tamoyillarini unutmasligi lozim:

- hodimlar faoliyatining mahsuldorligiga doimiy ravishda omma oldida baho berish kerak;
- eng yaxshi natijalarga erishgan xodimlarni mansab pillapoyalaridan ko‘tarish va yomon ishlaydigan xodimlar bilan o‘z vaqtida “xayrlashish” talab etiladi;

- muayyan vazifalarni belgilash barobarida xodimlarda mavjud g'oyalarni ilgari surish va muammolarni hal qilish choralarini ko'rsatishga rag'batlantirish maqsadga muvofiq;
- xodimlarni faqat quruq gap yoki maqtov qog'ozlari bilan emas, moddiy jihatdan ham rag'batlantirish zarur.

Ko'rinib turibdiki, yetakchi roli nihoyatda murakkab. Muhimi, yetakchi rolini o'ynayotgan rahbar o'zidan boshqa rollarni ham soqit qilmasligi kerak. Bundan tashqari, yetakchi tashkilotda ishonch muhitini yaratishi kerak, bir-biriga, rahbari hodimlariga va aksincha, xodimlari rahbariga ishonmaydigan jamoaning ishi orqaga ketadi. Yuqori darajadagi ishonch kadrlar qo'nimsizligini kamaytiradi va jamoa ishi ko'rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Ta'kidlash joizki, qo'l ostidagilarning butun kuch-quvvati, ruhi va g'ayratini belgilangan maqsad sari yo'naltirish ham rahbarni yetakchiga aylantiradi. ²aqiqiy yetakchilar yuqorida zikr etilgan rollarni yangi mazmun bilan to'ldirib borish haqida doimiy ravishda qayg'uradilar va boshqaruvning o'ziga xos stilini ishlab chiqadilar.

Samarali yetakchilik qilishga intilganlarga odamlar bilan ishlashning quyidagi besh tamoyiliga amal qilish tavsiya etiladi:

1. Kattalashtiruvchi oyna (lupa) tamoyili – o'zimiz qanday bo'lsak, o'zgalarni ham shunday ko'ramiz.
2. Ko'zgu tamoyili – biz o'rganishimiz kerak bo'lgan birinchi narsa, bu – o'zimiz.
3. Og'riq tamoyili – xafa inson boshqalarni ham xafa qiladi.
4. Bolg'a tamoyili – suhbatdoshingizning peshonasidagi chivinni o'ldirish uchun bolg'adan foydalanmang.
5. Lift tamoyili – o'zaro munosabatlarda biz insonlarni yuksaklarga ko'tarishimiz ham, pastga uloqtirishimiz ham mumkin.

Bu tamoyillarni o'rganib, ularga amal qilgan yetakchi o'z jamoasida sog'lom muhit qaror toptiradi.

5-mavzu. Siyosiy menejment va OAV. Boshqaruvni modellashtirish va prognozlashtirish usullari. Siyosiy jarayonlarning ayrim davlat yoki mintaqa aholisiga ta'siri va ularning o'zaro aloqadorligi.

Reja

- 1. Ommaviy axborot vositalari siyosiy muloqot kanali sifatida.*
- 2. Global axborotlashuv sharoitida axborot xavfsizligini ta'minlash muammolari.*
- 3. Davlatning axborot siyosati va ommaviy axborot vositalari.*

1. Ommaviy axborot vositalari siyosiy muloqot kanali sifatida.

Jahon ilmiy-texnik taraqqiyotining hozirgi bosqichi yangi axborot texnologiyalarining shiddatli rivoji va hayotga keng joriy qilinishi bilan xarakterlanadi. 2-ayotimizning barcha sohalariga singib borayotgan axborot inqilobi xalqaro hamkorlikni rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Natijada, shunday yaxlit axborot makoni shakllanmoqdaki, bu makonda axborot milliy boylikning qimmatbaho qismiga, uning strategik resursiga aylanmoqda. Muloqotimizga yangi tushunchalar jadal kirib kelayotganligi ham buning isbotidir. "Axborot makoni", "axborot iste'molchilari", "axborot shovqini", "axborot taqchilligi", "axborot ehtiyojlari", "axborot siyosati» kabi tushunchalar shular jumlasidandir.

Ommaviy axborot vositalari haqli ravishda zamonaviy jamiyatda axborot tarqatishning asosiy vositasi hisoblanadi. Napoleon shunday degan deyishadi: "To'rtta gazeta dushmanga yuz minglik armiyadan ko'ra ko'proq zarar yetkazishi mumkin". Bu fikr aytilganidan buyon dunyoda ulkan o'zgarishlar yuz

berdi: gazetalar muntazam ravishda va ko'p nusxada nashr qilina boshladi, radio va televideniye paydo bo'ldi, ommaviy axborot vositalarining ta'sir darajasi bir necha karra o'sdi.

Televideniye kishilarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari juda yuqori baholanadi. **Birinchidan**, inson tasavvurida u go'yoki televizorda ko'rayotgan jarayonlarining "ishtirokchisi"ga aylanadi. Teleekran orqali tomoshabin ko'rgan barcha narsalarni u voqelikda ko'rganidek idrok qiladi, sodir bo'layotgan narsalarga o'zi guvoh bo'layotgandek his qiladi.

Ikkinchidan, televideniye siyosiy hayotni yanada tushunarliroq qiladi, chunki siyosat tomoshabin ko'z o'ngida mavhum tushunchalar shaklida emas, balki aniq shaxslar qiyofasida namoyon bo'ladi. Teleekranda partiyalar va institutlar emas, balki konkret shaxslar, ularning xatti-harakatlari ko'rinadi va ular tomoshabinlar tomonidan baholanadi.

Uchinchidan, televideniye bir xil vaqt davomida boshqa ommaviy axborot vositalariga nisbatan ko'proq axborot uzatish imkonini beradi. Chunki tomoshabin ekrandan katta miqdorda vizual axborot o'qiydi, u kishilarning yuzidagi o'zgarishlarni kuzatadi, ularning qo'l harakatlarini ko'radi va bu holat tomoshabinga kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

Ommaviy axborot vositalarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- davriylik va takrorlanuvchanlik, ya'ni axborot tarqatishning muntazamligi;
- ommaviylik, ya'ni axborot iste'molchilarining deyarli cheklanmagan, keng doirasi;
- axborot uzatish uchun maxsus texnik vositalar, qurilmalarning mavjudligi;
- axborotni tayyorlovchi va uzatuvchi mutaxassislarining mavjudligi (jurnalistlar, tahrirchilar, noshirlar va hokazo);

- kommunikasion sheriklarning zamon va makondagi o‘zaro ta’siri;
- axborot ta’sirining bir tomonga yo‘naltirilganligi, kommunikator va resipiyent rollarini almashtirishning iloji yo‘qligi.

Ommaviy axborot vositalari demokratiya va so‘z erkinligining o‘ziga xos o‘lchovi, ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. Erkin va mustaqil ommaviy axborot vositalari demokratik taraqqiyotni ra’batlantiradi va mustahkamlaydi. Ommaviy axborot vositalari erkin va mustaqil bo‘lgan taqdirdagina ijtimoiy-siyosiy jarayonlar to‘larisidagi haqiqat ifoda etilishi mumkin. Binobarin, ommaviy axborot vositalari erkinligini kafolatlash va shu orqali muammolarni keng jamoatchilik bilan muhokama qilish, odamlarning erkin fikr bildirishlari uchun keng yo‘l ochib berish jamiyatni erkinlashtirishning asosiy tamoyillaridan biridir. Ommaviy axborot vositalari tom ma’noda “to‘rtinchi hokimiyat” darajasiga ko‘tarilmas ekan, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari kabi ta’sirchan kuchga aylanmas ekan, demokratik islohotlarning kechishi qiyinlashadi.

SHo‘rolar davrida ommaviy axborot vositalari yakka mafkurani singdirish quroli bo‘lib xizmat qilgan. Ommaviy axborot vositalari yakkayu-yagona partiya, yakkayu-yagona mafkura va yakkafikrlash siyosatining tar’ibotchisi xizmatini o‘tar edi. Zero, «qizil imperiya» har qanday plyuralizmni, fikrlar xilma-xilligini va, ayniqsa, loyalar xilmaxilligini mutlaqo inkor qilar edi. Barcha jurnalistlar “mutassaddi rahbarlar”ning o‘zini poylab, buyru’ini kutib, ularning ko‘rsatmasiga qat’iy amal qilgan holda faoliyat yuritar edi.

Ta’kidlash joizki, so‘z erkinligini bo‘layotgan davlat o‘z ildiziga bolta urayotgan, xavf-xatardan ogoh etadigan jarchining ovozini bo‘layotgan, o‘zini fikrsizlik, tur’unlik o‘p’qoniga – tanazzulga sudrayotgan bo‘ladi. Demokratik tuzum esa xalqning fikriga tayanadi, xalqdan himoya topadi. Demokratik davlatlarda ommaviy axborot vositalariga qo‘pol bo‘lsa ham jamiyat manfaatlarini “qo‘riqlovchi ko‘ppak”, deb nisbat beradilar. Yetakchi demokratik

davlatlarda ular jamiyatning “ko‘zlari”, “quloqlari” vazifasini bajaradilar. Ogohlantiruvchi tizim sifatida ular jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil ko‘tarib chiqib, ularning turli yechimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylangan. Bu tuzumda ommaviy axborot vositalari bir tomondan munozaralar yuritiladigan minbar bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fuqarolar uchun xolis axborot olish manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash borasida qator ishlar qilindi. “Ommaviy axborot vositalari to‘rtinchi qismida”, “Axborot olish kafolatlari va erkinliklari to‘rtinchi qismida”, “Jurnalistlarning kasbiga doir faoliyatini himoya qilish to‘rtinchi qismida”, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘rtinchi qismida” qonunlar qabul qilindi. Jurnalistlarni qayta tayyorlash xalqaro jamoatchilik markazi, Milliy matbuot markazi, Ommaviy axborot vositalarini demokratlashtirish va qo‘llab-quvvatlash jamoat tuzildi. Boshqacha aytganda, respublikamizda ommaviy axborot vositalari faoliyatning zarur huquqiy bazasi va ularni erkinlashtirish uchun shart-sharoitlar yaratilgan.

Respublikamizda ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi uchun qulay muhit yaratilgan ekan, ularning “to‘rtinchi hokimiyat” maqomini olishiga nimalar halaqit bermoqda? I.Karimov bu haqda shunday dedi: “2-ammamiz shuni chuqur anglab olishimiz kerakki, har xil xufiyona gaplar, mish-mish, uydirma, bo‘hton va ovozalardan foydalanmasdan, odamlar xolis ma’lumotlar va gaplardan matbuot orqali xabardor bo‘lsa, bundan davlat ham, jamiyat ham naf ko‘radi... Bir so‘z bilan aytganda, jamiyatimizning bugungi hayoti, uning barcha quvonchli, shu bilan birga mashaqqatli, o‘zaro tomonlari matbuot va ommaviy axborot vositalarida o‘zining qanchalik xolisona aksini topsa, jamiyatimizda shunchalik adolat va to‘rtinchi hokimiyat muhiti hukmron bo‘ladi” (2002 yil 26 iyun).

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalarini “to‘rtinchi hokimiyat”ga aylantirish muammosi yana yuzaga qalqib chiqmoqda. Ularni mustaqil ijtimoiy

kuchga, siyosiy tizimning to'laqonli bo'linishiga va jamoatchilik fikrini shakllantiruvchi ta'sirchan vositaga aylantirish vazifasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Yaxlit ogohlantiruvchi tizim sifatida ommaviy axborot vositalarini jamiyatdagi illatlardan xabar beruvchi, muammolarni dadil ko'tarib chiqib, ularning turli yechimlarini taklif qiluvchi qudratli kuchga aylantirish talab etiladi. Mutaxassislarning fikricha, ommaviy axborot vositalarining erkinligi va mustaqilligi uch omilga bog'liqdir. Bular: birinchidan, maxsus qonunlar va qoidalarning mavjudligi; ikkinchidan, axborot sohasida bozor munosabatlari va raqobat muhitining amal qilishi; uchinchidan, jurnalistlarning kasb mahorati va o'z so'zi uchun mas'uliyat darajasi.

Demak, avvalo, ommaviy axborot vositalari erkin va mustaqil bo'lishi kerak. Bu - ular davlatdan mutlaqo mustaqil bo'lib, alohida shaxslar qo'liga o'tib ketishi kerak, degani emas. Gap mustaqillikning eng yuksak darajasi – ichki mustaqillik haqida bormoqda. Ommaviy axborot vositalarining bunday mustaqilligi jurnalistlar ijodining erkinligi, mavzu tanlash va fikr berishdagi mustaqillikda namoyon bo'ladi. Bunda jurnalistning ma'muriy immunitetga ega bo'lishi nazarda tutiladi. YA'ni, jurnalistning material tayyorlashda o'z rahbariyatidan mustaqil bo'lishi hamda o'z ijodi namunalari uchun faqatgina uning o'zi mas'uliyatli va javobgar bo'lishi talab etiladi. Shundagina jurnalistning ijodiy faoliyatini faqatgina ommaviy axborot vositalari faoliyatiga daxldor qonunlarga cheklaydi, xolos. Ish joyida jurnalistlarni faqatgina ijodiy jarayonga aloqasi bo'lmagan xatolari uchunгина jazolash mumkin bo'ladi. Ijodidagi xatolari – kimningdir qadr-qimmatini, sha'nini poymol qilgani uchun, buzilgan qonunlarni tarqatib qilgani uchun yoki voqea-hodisalarni buzib talqin qilgani uchun esa u faqat sud oldida javob beradi. Shundagina jurnalistning ijodiy salohiyatini to'la ro'yobga chiqishi uchun sharoit yaratiladi, u professional mustaqillikka ega bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, ommaviy axborot vositalari faoliyatining plyuralizm tamoyili asosiga qurilishi ham demokratiyaning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Buning uchun qarama-qarshi nuqtai nazarlardan iborat bo'lgan dasturlarni yaratish, chiqishlarda muqobil fikrlar to'qnashuviga erishish lozim. Shundagina ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirish va rambatlantirishga qodir bo'ladi. Ko'pgina mamlakatlarda ommaviy axborot vositalarining islohoti "fooyalar bozori"da xali aytilmagan yangi fikrlarni uzatishga qaratiladi. Lekin o'rinli bir savol tutiladi: bu "bozor" har qanday fooyalar uchun ham ochiq bo'lishi kerakmi? Yo'q, albatta. Ekstremistik nuqtai nazarlar, ayriinsoniy tabiatga ega fikrlar va qo'poruvchilikka chaqiruvchi fooyalarga bu "bozor"da o'rin yo'q. Lekin jamiyatimiz ravnaqiga xizmat qiluvchi, bunyodkorlik tabiatiga ega, hayotimizni farovonroq qilishga yo'naltirilgan yangi fooyalar, taklif va tavsiyalar bu "bozor"da bemalol raqobat qila oladilar.

Ta'kidlash joizki, axborotlashuv jarayonining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda axborot sohasidagi yutuqlardan yomon niyatlarda foydalanish xavfi ham tutilmoqda. Bunda axborotdan jahonda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlarning suveren tengligi tamoyillariga amal qilish, baxs va nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish, kuchdan foydalanmaslik, ichki ishlarga aralashmaslik, inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish kabi maqsadlarga zid ravishda foydalanilmoqda. Masalan, axborot texnologiyalari sohasida xiyla yuksalgan ayrim davlatlarda bunday ustuvorliklardan siyosiy, harbiy, iqtisodiy, axborot va madaniy ekspansiya maqsadida foydalanishga havas tutilmoqda.

Bugungi voqelik har qanday davlat oldida axborot xavfsizligini ta'minlash masalasini ko'ndalang qo'ymoqda. O'z taraqqiyotining murakkab, o'tish bosqichini boshidan kechirayotgan mamlakatlar uchun bu muammo alohida dolzarblik kasb etadi. ²ozirgi kunda axborot hokimiyat uchun kurashda ham, ta'sir uchun kurashda ham asosiy va qudratli qurolga aylanib bormoqda.

Modomiki, axborot kuchli resursga aylangan ekan, basharti axborot eng qimmat resurslardan biriga aylanayotgan ekan, uni himoya qilish, uning xavfsizligini ta'minlash ehtiyojining vujudga kelishi tabiiy. Xo'sh, axborot xavfsizligi deganda nima tushuniladi? Ko'pincha axborot xavfsizligi davlatning, yuridik va jismoniy shaxslarning axborot sohasidagi himoyalanganlik holati sifatida talqin qilinadi. Bu jihatdan axborot xavfsizligi milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi sanaladi. Boz ustiga, axborot xavfsizligi mamlakatning mustaqilligiga, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga, xalqlarning ma'naviyatiga dahl qiluvchi va ularga kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi.

O'rinli savol tuziladi: axborot sohasidagi xavf-xatar va tahdidlar nimalardan iborat? Bu tahdidlarning bir uchi konstitusiyaviy tuzumni a'ldarish, zo'ravonlikni, millatlararo va dinlararo adovatni tar'ib qilishga borib taqalsa, boshqa uchi to'liq bo'lmagan, noto'g'ri, yanglish va buzib ko'rsatilgan axborot berishni qamrab oladi. Shuningdek, bu tahdidlar o'sib kelayotgan yosh avlod qadriyatlaridagi ustuvorliklarning o'zgarishida; jamiyatimiz uchun maqbul bo'lmagan qadriyatlar tizimi va turmush tarzi andozalarining tiqishtirilishida; zo'ravonlik, ahloqsizlik va fuqarolik jamiyatini yemiruvchi boshqa mafkuraviy qadriyatlarning tar'ibot qilinishida namoyon bo'lmoqda. Yomon mishmishlarning tarqatilishi ham, milliy manfaatlarga zid, davlat manfaatlarga zarar keltiradigan axborot ta'sirlari ko'rsatish ham, va hattoki, fuqarolarning axborotdan foydalanish huquqining cheklanganligi ham ana shunday xavf-xatarlar jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi nafaqat dolzarb va muhim masala hisoblanadi, balki murakkab va ko'p chiqimli vazifa hamdir. Zero, axborot xavfsizligini ta'minlash qator tashkiliy va huquqiy masalalarni hal qilishni, shuningdek, tarbiyaviy psixologik choralar ko'rishni talab etadi. Axborot xavfsizligi fuqarolarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun shartsharoitlar yaratish yo'li bilan ta'minlanadi. Axborot

xavfsizligini ta'minlashning yana bir usuli – fuqarolarning axborot madaniyatini yuksaltirish, ya'ni ularda axborotni saralash va undan ongli foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish bilan bo'liq. Muhimi, insonlarni axborotdan mahrum qilmasdan, ularni axborotni to'g'ri idrok etishga tayyorlash lozim. YA'ni, har bir shaxs ma'lum axborotning foydali yoki zararliligini ajratuvchi ichki mezonlarni ishlab chiqishi, ma'lum axborotning o'z professional faoliyati va shaxsiy hayoti uchun qadrqimmatini baholash ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Boshqacha aytganda, insonlarning ongida axborotlarning sarasini saraga, puchagini puchakka ajratuvchi "filtr"larning bo'lishi axborot xavfsizligini kafolatlovchi muhim omil sanaladi.

Jahondagi ko'plab olimlar XXI asrda jamiyat hayotining barcha sohalarida ulkan o'zgarishlar sodir bo'lishini bashorat qilmoqdalar. Bu murakkab o'zgarishlar jarayonida axborot omili muhim ahamiyat kasb etib, u inson turmushining barcha jabhalariga kuchli ta'sir o'tkazmoqda. Shu bois dunyoning barcha mamlakatlarida ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda yuritilayotgan siyosat bilan qatorda axborot siyosatining ahamiyati ham ortib bormoqda.

Masalaning muhim jihati shundan iboratki, bugungi kunda ilmiy hamda siyosiy doiralarda «axborot siyosati» atamasi keng qo'llanilayotgan bo'lsa-da, uning mazmun-mohiyati xususida juda keng va ko'plab ta'riflar berilgan. Ayrim olimlar axborot siyosatiga «axborotni uzatish, saqlash, qayta ishlash va undan foydalanishning sifati va sur'atini belgilab beruvchi tadbirlar tizimi»²² sifatida baho bergan bo'lsalar, boshqalar uni «axborot sohasidagi milliy manfaatlarni himoyalash, davlatning boshqaruv vazifalarini amalga oshirishdagi vazifalarni ishlab chiqish, davlatning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga axborot orqali ta'sir ko'rsatishi xizmat qiluvchi maqsadlar yig'indisi»²⁷, deb ta'riflaydilar.

²² Gosudarstvennoye upravleniye i informatsionnaya politika: programma uchebnix kursov. M., 1997. S6. ²⁷ Nisnevich Y.A. Informatsiya i vlast. M., 2000. S 9.

Masalaga aniqlik kiritish maqsadida “axborot siyosati” tushunchasining tarkibidagi «axborot» va «siyosat» atamalarini alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq. Agar «axborot» tushunchasiga to‘xtaladigan bo‘lsak, uning falsafiy kategoriya ekanligini inobatga olish lozim²³. Bu esa axborot tushunchasiga serqirrali hodisa sifatida yondoshishga undaydi.

Axborot tushunchasini o‘rganishda mavjud yondoshuvlardan kelib chiqib, ularning uchtagiga – gnoseologik, funksional hamda faoliyatijihatlariga alohida to‘xtalib o‘tish joiz:

Gnoseologik jihatdan, axborot materiyaning ayrim jihatlarining aks etishidir. YA’ni, D.Ursulning fikricha, «axborot bu materiyaning atrofga ko‘rinib turgan tarafi yoki u haqdagi ma’lumotdir»²⁴.

Funksional jihatdan, axborot «tashqi dunyoga moslashish jarayonida insonga yetib keladigan ma’lumotdir. Axborotni qabul qilish jarayoni insonning tashqi dunyoga moslashishi jarayonidir»²⁵.

Faoliyatijihatdan, axborotni «insonlar, shaxslar va mashinalar o‘rtasidagi ma’lumotlar almashinuvi»²⁶ sifatida tushunish mumkin.

Umuman, «axborot siyosati»ga mamlakatning manfaatlaridan kelib chiqqan holda, axborot oqimlari va axborot resurslarini tartibga solish, ularning harakati uchun shart-sharoit yaratish, axborot xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirish, axborot-kommunikativ texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog‘liq tadbirlar, usullar va uslublar yig‘indisi sifatida ta’rif berish mumkin. Biroq axborot siyosatining vazifalariga to‘xtalmay turib, uning mohiyatini to‘la ochib berish mumkin emas. Bu vazifalarga nimalar kiradi?

Avvalo, axborot sohasidagi raqobatni qo‘llab-quvvatlash, axborot

²³ Carang. Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar. M., 1999. s 195-196.

²⁴ Carang. Abdeyev R.F., Filosofiya informatsionnoy sivilizatsii. M. 1994 S. 161.

²⁵ Viner N. Kibernetika i obshestvo. M., 1958. S 15.

²⁶ Xalipov F. Kratologiya kak nauka o vlasti. M., 2002. S. 156-157.

monopoliyasining o‘rnatilishiga qarshi kurashish axborot siyosatining muhim vazifasi hisoblanib, bu vazifa demokratiyaning muhim qadriyatlaridan biri - fikrlar xilma-xilligining qaror topishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, aholining erkin axborot olishi uchun zaruriy texnik vositalar va qonun hujjatlarini yaratish vazifasi ham axborot siyosatida muhim o‘rin egallab, fuqarolarga jamiyat hayotiga, davlat siyosatiga, huquq va erkinliklar, majburiyatlar haqida to‘la axborot olishlari uchun shartsharoitlar yaratishni nazarda tutadi.

Uchinchidan, axborot siyosatining muhim vazifalaridan biri horijiy madaniy ekspansiyaga qarshi turish, millatning tili, qadriyatlari va urf-odatlarini saqlab qolishga yo‘naltirilgan choratadbirlar ko‘rishdir. Axborot makoni ²⁷ ning globallashib borishi sharoitida bu vazifa ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

To‘rtinchidan, intellektual mulkni muhofaza qilish va axborot xavfsizligini ta‘minlash ham axborot siyosatining ustuvor vazifalaridan sanaladi.

Beshinchidan, axborot sohasidagi jinoyatchilikka qarshi kurash axborot siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan shunday xulosaga kelish mumkinki, davlatning axborot siyosati davlatning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga va boshqa omillarga bog‘liqdir.

Birinchidan, davlatning axborot siyosati mamlakatni demokratlashtirishga xizmat qilmo‘l‘i hamda hamda yagona tizim asosida amalga oshirilmo‘l‘i lozim. Bu tizimiylik davlat boshqaruvi organlarining ommaviy axborot vositalari va boshqa siyosiy institutlarning o‘zaro uyg‘unlikda faoliyat yuritishini shartlab qo‘yadi. Bunda axborot sohasida amalga oshiriladigan tadbirlarni aniq rejalashtirish, tartibga solish va moliyaviy jihatdan ta‘minlash hamda nazorat

²⁷ Axborot makoni – 1) inson faoliyatining axborotni yaratish, o‘ayta ishlash, foydalanish bilan bo‘l‘i so‘asi b‘lib, e‘z ichiga individula va jamoaviy ongni, axborot vositalarini ‘amda axborotning e‘zini o‘amrab oladi. 2) a‘olisi axborot ta‘sirida ijtimoiy ru‘iy e‘zgarishlarni kechiruvchi ‘udud. 3) k‘p turdagi ulkan axborot ‘ajmining e‘zaro ta‘siriga asoslangan e‘zini e‘zi bosh‘aruvchi tizim. (Informatsionnaya politika./pod obsh. red. V.D.Popova. –M.: Izd-vo RAGS, 2003. S.445)

qilish tizimini yaratish muhimdir. Shuningdek, axborot siyosati, davlatning boshqa sohalarda yuritayotgan siyosatiga uyg'un holda amalga oshirilishi zarur.

Ikkinchidan, axborot siyosati aniq strategik maqsadlarga yo'naltirilgan holda amalga oshirilishi muhimdir. Axborot siyosatining aniq maqsadlarga bo'ysundirilgan holda amalga oshirilishi uning samaradorligini aniqlovchi mezonlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Uchinchidan, axborot siyosatini amalga oshirishda qo'llanilayotgan vositalar, usullar, uslublar zamonaviy tendensiyalar asosida muntazam takomillashtirib borilishi zarur.

To'rtinchidan, axborot siyosatining yo'nalishlari mamlakatning geografik joylashuviga, aholining demografik ko'rsatkichlariga, jamiyatdagi mavjud qonunlar va qadriyatlarga tayangan holda ishlab chiqilishi lozim. Boshqacha aytganda, davlatning axborot siyosati mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy holatiga mos ravishda olib borilmog'i talab etiladi.

6-mavzu. O'zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari. Saylov texnologiyalari. Siyosiy kommunikasiyalar. Reja

- 1. Siyosiy-ma'muriy boshqaruv samaradorligini baholash nazariyalari va amaliyoti.*
- 2. Davlat hokimiyati organlarining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati samaradorligini belgilovchi mezonlar.*
- 3. Davlat hokimiyati organlari faoliyatini samarali tashkil etishda kadrlarning o'rni va roli.*

1. Siyosiy-ma'muriy boshqaruv samaradorligini baholash nazariyalari va amaliyoti

“Samaradorlik” tushunchasi ko‘plab talqin va izohlarga ega. Ma‘muriy nazariyada odatda tashkiliy samaradorlik ajratiladi va u maqsadga erishish nuqtai nazaridan baholanadi. Texnik samaradorlik davlat xizmatining aholi ehtiyojlari, istaklari va resurslariga mosligi darajasini anglatadi, ya‘ni boshqaruvning tashqi muhitga qanchalik mosligini ifodalaydi. Samaradorlik deganda, shuningdek, mahsuldorlik, unumdorlik nazarda tutiladi. Bundan tashqari, oxirgi paytlarda samaradorlik deganda tashkilotlar faoliyatining sifatiga ur‘u beriladi.

Davlat boshqaruviga oid fanlar qatorida mehnatni tashkil etish masalalarini o‘rganuvchi fanlar alohida o‘rin egallaydi. “Davlat boshqaruvi fani muammolari bo‘yicha ma‘ruzalar to‘plami”da Lyuter Gulikning dissertatsiyasi o‘rin olgan. Bu izlanishining asosiy g‘oyasi - davlat boshqaruvida P.O.S.D.C.O.R.B.ni qo‘llash muammosidir. Bu har qanday ma‘muriyatni shakllantirishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan sxemaning qisqacha nomlanishidir.

“P” - “Planning” so‘ziga mos kelib, boshqaruvning umumiy maqsadlari haqida tasavvurga ega bo‘lish va ma‘muriyat doirasida o‘rta muddatga rejalashtirishni nazarda tutadi.

“O” – “Organizing” so‘ziga mos kelib, ma‘muriyatdagi quyi tuzilmalarning ishini tashkil etishdan iborat.

“S” – “Staffing” so‘ziga mos bo‘lib, turli boshqaruv xizmatlarida shtablar ishini uyushtirish, ya‘ni topshiriqlarni uzatishning muayyan usulini nazarda tutadi.

“D” – “Directing” so‘ziga mos bo‘lib, qarorlarni qabul qilish jarayoni va bu jarayonni o‘rganishni nazarda tutadi.

“CO” – “Coordinating” – ma‘muriyatdagi tuzilmalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni o‘rganish hamda bir darajadagi ma‘muriy birliklar o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishni nazarda tutadi.

“R” – “Reporting” – boshqarilayotganlar va xizmatchilarga axborot berish;

“B” – “Budgeting” – boshqaruv qarorlarini moliyalashtirish va baholash²⁸.

Shunday qilib, boshqaruv tizimlarining taraqqiyotini rejalashtirish va bashorat qilish P.O.S.D.C.O.R.B.ning negizini tashkil etadi. Maknamara AqShda mudofaa vaziri lavozimida ishlagan vaqtlarda uning tashabbusi bilan joriy etilgan va xaligacha qo'llanilayotgan yana bir tizim P.P.B.S. deb nomlanadi hamda rejalashtirish, dasturlashtirish, byudjetni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

2. Davlat hokimiyati organlarining ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati samaradorligini belgilovchi mezonlar

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida ijro hokimiyat faoliyatini takomillashtirish yuzasidan bir qator tadbirlar bosqichmabosqich amalga oshirib kelinmoqda. 1992 yil 4 yanvarda «o'zbekiston Respublikasida mahalliy hokimiyat organlarini qayta tuzish to'g'risida»gi o'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinishi bilan o'zbekiston Respublikasining viloyatlari, tumanlari va shaharlarida vakillik hokimiyatiga hamda ijro hokimiyatiga boshchilik qiladigan hokimlar lavozimi ta'sis etildi. 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitusiyaga asosan o'zbekiston Respublikasida hokimiyat uch tarmoqqa ajratilib, qonunchilik, ijrochilik va sud hokimiyatlarining vazifalari aniq qilib belgilab berildi. 1993 yil 2 sentabrda «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida» va «o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunlarning qabul qilinishi mahalliy boshqaruv tizimini belgilab berdi.

Jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarini erkinlashtirish barobarida ma'muriy sohada ham islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan,

²⁸ Rolan Drago. Administrativnaya nauka. M., “Progress”, 1982, 14-15-betlar.

o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 9 dekabrda “Respublika boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi hamda 2003 yil 22 dekabrda “Xo‘jalik boshqaruv organlari tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari hamda Vazirlar Maqkamasining 2004 yil 5 yanvarda «²ududiy davlat boshqaruvi organlarining tuzilmasini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarorining qabul qilinishi o‘zbekistonda ma‘muriy islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi.

Ushbu qarorlarga binoan jahon tajribasini chuqur o‘rganish va barcha darajadagi boshqaruv organlari faoliyatini jiddiy tahlil qilish asosida respublika hukumati tomonidan ma‘muriy islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha asosiy yondoshuvlar va yo‘nalishlar ishlab chiqildi.

Birinchidan, iqtisodiyotni boshqarishda davlat rolining qisqarib borishi.

Ikkinchidan, respublika darajasidagi vakolatlarning bir qismini mahalliy boshqaruv organlariga o‘tkazilishi.

Uchinchidan, boshqaruv tizimini optimallashtirish, boshqaruvga oid vazifalarning takrorlanishiga barham berish, korxonalar faoliyatini asossiz nazorat qilinishiga chek qo‘yish, bozor mexanizmlari hamda shaxsiy tashabbuskorlik va xususiy tadbirkorlik rivojlanishiga xalal beruvchi ma‘muriy to‘siqlarni bartaraf etish, taqsimlash tizimini tugatish jarayonini yakunlashdir.

To‘rtinchidan, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari xodimlari sonini optimal darajada qisqartirilishi.

Beshinchidan, axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish asosida davlat boshqaruvi tizimini bosqichma-bosqich zamonaviylashtirish hamda uning samaradorligini oshirish, zamonaviy ma‘muriy-huquqiy baza yaratish, o‘quv tizimini qayta ko‘rib chiqish, il¹/₄or xorijiy tajribalarni e‘tiborga olgan holda kadrlarni tanlash va yollash uslublarini qo‘llash, ularni

attestasiyadan o'tkazish va ularga yuklatilgan vazifalarning ijrosini baholash shakllarini takomillashtirish orqali davlat xizmatini isloh qilishdir²⁹.

Yuqorida tilga olingan qarorga binoan, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini oshirish, ularning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish, zimmalariga yuklangan vazifalarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish ko'zda tutilgan. Unga ko'ra, shaharlar hokimlarining kapital qurilish, kommunal xo'jalik, kommunikasiya va obodonlashtirish masalalari bilan, tuman hokimlarining esa qishloq va suv xo'jaligi masalalari bilan shaxsan shug'ullanishi belgilab qo'yilganligi hamda hokimliklarda iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bilan shug'ullanuvchi hokim o'rinbosarlari o'rniga iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish masalalari bilan shug'ullanuvchi hokim o'rinbosari lavozimi joriy etilganligi fikrimiz dalilidir. Mahalliy boshqaruv organlarida boshqaruv personalini qisqartirish va ma'muriy islohotlar o'tkazishdan asosiy maqsad, ortiqcha boshqaruv bo'g'inlarini qisqartirish va boshqaruv tizimida ma'muriy funksiyalarni cheklashdan iboratdir.

Mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'lida qabul qilingan hukumat qarorlari izchil amalga oshirilishi natijasida kichik biznes, xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish ham bugungi kunda mahalliy hokimliklar zimmasidagi muhim masala bo'lib turibdi. Shuningdek, hokimlik apparatida faoliyat ko'rsatayotgan har bir xodim, eng avvalo, aholining talab va istaklarini amalga oshirishga bel bo'lagan inson bo'lishi kerak va Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Bugungi kunda ayni hokimliklar aholini kundalik zarur iste'mol mollari, ijtimoiymaishiy xizmatlarning xilma-xil turlari bilan bo'liqlik strukturalarning beto'xtov ishlashi,

²⁹ Carang. Ma'muriy islohot - iqtisodiy taraqqiyot omili". "Xalq so'zi" gazetasi. 2004 yil 11 mart

mehnatga yaroqli aholining ish bilan bandligi muammolarini hal etish uchun mas'uldirlar"³⁰.

Davlat hokimiyati organlari faoliyati haqida asosli xulosalar chiqarish uchun ularning faoliyat samaradorligini baholashning aniq mezonlarini ishlab chiqishga zarurat tug'iladi. Zero, boshqaruv bor ekan, bu boshqaruvga baho berishda har bir inson o'zidan, subyektiv fikridan kelib chiqadi. Davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligini aniqlash mezonlarining ishlab chiqilishi esa, bir tomondan, bu faoliyatga aniq va asosli baho berish imkoniyatini yaratsa, ikkinchi tomondan, jamiyat a'zolari o'rtasidagi subyektiv baholar va shu tufayli vujudga keladigan qarama-qarshiliklarning oldini oladi. Bolgar olimi M.Markov 1982 yilda "mezon" atamasiga to'xtalib, uni "buyum yoki hodisa haqida xulosa chiqarish, uning tabiatini aniqlash, tasniflash, o'lchash imkonini beruvchi belgi"³¹ sifatida baholadi. Darhaqiqat, baholash mezonlari mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga baho berish, mahalliy boshqaruvning tabiatini aniqlash, uni sifat jihatdan tasniflash imkonini beradi.

Davlat hokimiyati organlari faoliyatiga baho berishda boshqaruv samaradorligining ijtimoiy-iqtisodiy mezonlari asosida yondoshish maqsadga muvofiq. Bu mezonlar tufayli boshqaruv tizimi faoliyati natijalariga ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, tizim faoliyatining jamiyat manfaatlarini qay darajada qondira olganligi asosida baho berish mumkin bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, joylarda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kelib chiqishi, ularning keng ko'lam olishi ko'p hollarda, mahalliy boshqaruvning zaifligi, nokompetentligi, mas'uliyatsizligi, boshqaruvning to'g'ri tashkil etilmaganligi sabab bo'ladi. Bu masalaga o'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov alohida to'xtalib, joylardagi rahbarlarga ikki muhim talabni qo'ygan edi. "Birinchi talab - har bir mutasaddi rahbarning o'z ishiga bo'lgan

³⁰ И.А.Каримов. "Ўзбекистон buyuk kelajak sari". Toshkent. "Ўзбекистон"-1999 yil. 400-bet.

³¹ Markov M., Texnologiya i effektivnost sotsialnogo upravleniY. Per s bolg. M., 1982. S.112

mas'uliyatini tubdan o'zgartirish, shaxsiy javobgarlikni oshirish... Ikkinchi masala – tegishli bilim va tajriba, yuqori malakaga ega bo'lish... Rus tilida buni “kompetentnost” deydi. YA'ni, o'z sohasida kompetentli bo'lish – bu zamon talabi. o'zbekcha aytganda, o'z ishining ustasi bo'lish, o'z sohasining sirlarini har tomonlama chuqur bilish kerak. Biz har bir rahbarning faoliyatiga mana shu ikki talabga qay darajada javob berishiga qarab baho beramiz va xulosa chiqaramiz. Men bu ikki talabdan birinchisiga, ya'ni mas'uliyat masalasiga ko'proq e'tibor beraman. Mayli, rahbarning bilimi yetishmasin, uni o'rgansa bo'ladi. Lekin u mas'uliyat va javobgarlikni unutsa, ishda hech qanday siljish va o'zgarish bo'lmaydi”³². Bu esa, birinchi navbatda, mahalliy davlat hokimiyati organlari zimmasiga ishni samarali tashkil etish, oqilona boshqaruvni joriy etish vazifasini yuklaydi. Aynan samarali boshqaruv muammolar paydo bo'lishi bilan hal qilinishiga yoki ularning oldini olishga xizmat qiladi. Bu esa, birinchi navbatda, jamiyatdagi individual, guruh va ijtimoiy manfaatlarni har tomonlama doimiy o'rganib borish, tahlil qilishni, mavjud resurslardan oqilona foydalangan holda bu manfaatlarni iloji boricha qondirib borishni talab etadi. Zero, mavjud muammolarning hal qilinmasligi, qabul qilingan qarorlarning o'z vaqtida ijro etilmasligi noxush oqibatlariga olib kelishi tayin.

Boshqaruv samaradorligining ijtimoiy-iqtisodiy mezonlari jamiyatdagi muammolar va ularning mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan hal qilinishi darajasini o'lchash imkonini beradi. Bu mezon mahalliy boshqaruvga nafaqat ishlab chiqarish natijalari, balki ishlab chiqarilgan mahsulotning iste'moli natijalari (moddiy va ma'naviy), iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy, g'oyaviy, ruhiy, siyosiy, ekologik, demografik asosda baho berishni talab etadi. Shuningdek, boshqaruv samaradorligining ijtimoiy-iqtisodiy mezonlari nafaqat doimiy faoliyatga, balki erishilgan natijalarning kelgusidagi rivojiga ham baho

³² Karimov I. Yangi 3ayotni eskicha 9arash va yondashuvlar bilan 9urib b9lmaydi. Prezident Islom Karimovning Vazirlar Ma3kamasining yangi tarkibi bilan yi1/4ilishda s9zlagan nut9i. 9zbekiston ovozi, 2005 yil 17 fevral.

berish imkonini beradi. Davlat boshqaruvi samaradorligi mezonlari bo'yicha qator izlanishlar olib borgan taniqli rossiyalik olim G.Atamanchuk boshqaruv samaradorligining umumijtimoiy mezonlari sirasiga quyidagilarni kiritadi:

- ishlab chiqarishning samaradorligi, umum qabul qilingan andozalarga muvofiqligi;
- milliy boyliklarning ortib borishi ko'lami va sur'ati;
- ijtimoiy munosabatlardagi tartib, xavfsizlik va ishonchlik, ijtimoiy-iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari;
- daromadlarning jon boshiga taqsimlanishi orqali hisoblangan farovonlik darajasi³³.

Insonlarning farovonlik darajasi boshqaruv faoliyatining samaradorligiga baho berishda nihoyatda katta ahamiyat kasb etishini o'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov alohida ta'kidlab o'tgan edi. «Rahbar degani, - deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov, - hammadan ko'proq ishlab, fuqarolar saodati va yurti ravnaqi uchun elib yuguradigan fidoyi inson bo'lishi kerak. Xalq hamisha o'z dasturdoniga, turish-turmushiga qarab rahbarlarning ishiga baho beradi»³⁴.

Boshqaruvning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligiga ikki muhim omil – mahalliy davlat hokimiyati organlari, ularda ishlayotgan kadrlarning faoliyati hamda boshqaruv obyektlari, ya'ni jamiyatdagi o'zini o'zi boshqarish institutlari faoliyati ta'sirida erishish mumkin. Mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyati samaradorligining ijtimoiy-iqtisodiy mezonlari boshqaruv tizimiga yaxlit hodisa sifatida qarab, bu tizim ichidagi boshqaruvchi va boshqariluvchi unsurlarning sifatiga baho berishda qo'l keladi. Boshqaruvning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan samaradorligini aniqlashdagi mezonlar esa turlichadir.

³³ Atamanchuk G.V. Gosudarstvennoye upravleniye (organizatsionno-funksionalniye voprosi). M.: OAO "NPO Ekonomia". Ensiklopediya upravlencheskix znaniy. 2000. S. 260.

³⁴ Karimov I. 2alollik va fidoyilik faoliyatimizning asosiy mezoni bo'lsin. Xalq deputatlari Toshkent sha'ar Kengashi sessiyasida s'zlangan nut^o. Xalq s'zi, 1994 yil, 15 iyul.

Birinchi mezon - boshqaruvning maqsadga yo'naltirilganlik mezoni bo'lib, bu davlat hokimiyati organlarining o'z vazifalarini bajarishda mamlakat oldiga qo'yilgan maqsadlarga qay darajada yo'naltirilganligini aniqlash imkonini beradi. Ko'zga ko'ringan, aholi tomonidan qabul qilingan va baholangan natijalar bu mezonning asosini tashkil etadi. Boshqaruv organining mamlakat oldiga qo'yilgan maqsadlarga qay darajada xizmat qilayotganligi ularning tashkiliy, meyoriy va boshqa faoliyatini o'rganish asosida aniqlanadi. Boshqaruv bo'g'inlarining faoliyatining mamlakat oldiga qo'yilgan maqsadlarga qay darajada muvofiqligi shu organ tomonidan qabul qilingan va ijro etilgan qarorlarning mamlakatda kechayotgan islohotlarga mosligida namoyon bo'ladi.

Ikkinchi mezon - vaqt mezoni bo'lib, tegishli masala yuzasidan qaror qabul qilish, ijro etish, boshqaruvni amalga oshirishga sarflangan vaqt asosida boshqaruvga baho berish imkonini beradi. Bunda "vaqt" deganda ichki boshqaruv jarayonini tashkil etishga, aniqrog'i, boshqaruvga oid axborotning tizimning "kirish" joyidan "chiqish" joyiga qadar masofani bosib o'tishga ketgan vaqti tushuniladi. Yanada aniqrog'i, bu mezon jamiyatdagi mavjud muammoni hal qilishga boshqaruv organlari qay darajada tez yoki sekinlik bilan yondashayotganligini aniqlashda qo'l keladi. Olimlar tomonidan allaqachonlar muomalaga kiritilgan vaqtni tejash qonuniyati mahalliy boshqaruv tizimi faoliyatini o'rganishda ham qo'l keladi. Bu qonuniyatga ko'ra, u yoki bu ish birligini bajarishga qanchalik kam vaqt sarflansa, ishlab chiqarish darajasi shu qadar yuqori bo'ladi. Davlat boshqaruvida esa u yoki bu muammoni hal qilishga ketgan vaqt o'z-o'zidan boshqaruv bo'g'inlaridagi tartib-intizomga, bu tizim ichidagi rag'bat va jazolash mexanizmlariga, kadrlarning bilimi, salohiyati va tajribasiga bog'liq bo'ladi. Demak, vaqt mezoni boshqaruvni nafaqat faoliyat sur'ati asosida, balki yuqorida sanab o'tilgan belgilar asosida ham baholashda qo'llanilishi mumkin.

Agar boshqaruv tizimining iyerarxik tuzilishga ega ekanligini, boshqaruv jarayoni jamiyat hayotiga katta ta'sir o'tkazishini e'tiborga oladigan bo'lsak, bu jarayonga ketgan vaqtni inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, boshqaruv qarorlari o'z ahamiyatini faqat ma'lum muddat davomida saqlab turadi. YA'ni, jamiyatdagi mavjud muammolarni hal qilishda kechikilsa, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga turtki bo'ladigan qarorlar o'z vaqtida qabul qilinmay kechiktirilsa, vaqt o'tishi bilan ularning ahamiyati yo'qolib boradi.

Uchinchi mezon - boshqaruv uslubi mezoni bo'lib, unda boshqaruv uslubini belgilab beruvchi meyoriy-huquqiy hujjatlarga emas, balki mansabdor shaxslarning o'z vazifasini ijro etishda qanday uslublarga tayanayotganiga, mansabdor shaxslarning o'z ishiga yondoshuviga baho beriladi. Turgan gapki, boshqaruv uslubiga mansabdor shaxsning imkoniyatlari (bilimi, tajribasi, mas'uliyati, xarakteri) ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, boshqaruv uslubiga yuqorida turuvchi organ tomonidan qo'yiladigan vazifalar ham ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga boshqaruv uslubi jihatidan baho berilganida, unga kompleks yondoshuv talab etiladi.

To'rtinchi mezon - harajatlar mezoni bo'lib, boshqaruv tizimi ishlashini iqtisodiy, texnik hamda kadrlar bilan ta'minlashga sarflangan mablag'lar asosida boshqaruvga baho berishni nazarda tutadi. YA'ni, bunda boshqaruvni tashkil etishga sarflangan harajatlar bu faoliyat natijasida erishilgan foydadan ortib ketmasligi kerak. Bu harajatlar ichiga boshqaruv personaliga to'lanadigan maosh, yo'l harajatlari, bino ta'minoti, moddiy texnik bazaga sarflangan mablag'lar kiradi. YA'ni, boshqaruv jarayonida mablag'lar qay darajada oqilona sarf qilinganligi hamda bu harajatlardan muayyan natijaga erishilgan yoki erishilmaganligiga qarab ham mahalliy boshqaruv tizimi faoliyatiga baho berish mumkin bo'ladi.

Davlat hokimiyati organlari tizimida har bir bo'g'in o'ziga yuklatilgan vazifaga, kompetensiyaga hamda huquqiy vakolatlarga ega. Bu meyoriy qoida

boshqaruv tizimi ishini oqilona tashkil etish, tizim ishini tartibga solishga xizmat qilish bilan bir qatorda, boshqaruv samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Masalan, o'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 103-moddasida mahalliy hokimiyat organlarining faoliyatini tashkil qilish, ularning vakolat doirasi va tashkil qilish tartibi qonun bilan belgilanishi ³⁵ alohida ko'rsatib o'tilgan. Shundan kelib chiqib, boshqaruv bo'g'inining huquqiy maqomidan kelib chiqib, meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilab berilgan funksiyalari va vakolatlari doirasida faoliyat yuritishi mahalliy boshqaruv samaradorligini belgilovchi beshinchi mezon bo'lib xizmat qiladi. Agar bu mezon asosida mahalliy davlat hokimiyati organlarining boshqaruv faoliyatiga baho beradigan bo'lsak, boshqaruv organi yoki mansabdor shaxsning o'z vakolatlari va funksiyalari doirasidan chiqishi, o'z vakolatlari doirasiga kirmaydigan boshqa turdagi masalalarda faollik ko'rsatishi samaradorlik belgisi hisoblanmaydi. YA'ni, mahalliy boshqaruv tizimida har bir bo'g'in sodda qilib aytganda, o'z ishini qilishi kerak.

Oltinchi mezon – davlat hokimiyati organlari hamda mansabdor shaxslar faoliyati va qarorlaridagi qonuniylik mezonidir. Aynan qonun asosida boshqaruvni tashkil etish boshqaruv jarayonini tartibga keltirishga, turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini himoya qilishga, oxir-oqibat, demokratik islohotlarni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Demak, boshqaruv tizimidagi har qanday qonundan chetlashishlar, garchi ular oqlangan bo'lsa ham (qisqa muddatli iqtisodiy foyda, muammoning tez hal qilinishi) samaradorlik belgisi hisoblanmaydi. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning fikrlarini keltirish o'rinli: "Davlat rahbari sifatida, mening orzuim, maqsadim shuki, jamiyat hayotida ayrim

³⁵ jzbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T.: "jzbekiston", 2005, 31-bet.

shaxslarga emas, balki aniq qonun va huquq normalariga asoslangan tizim - sistema barqaror ishlashi kerak”³⁶.

Davlat hokimiyati organlari hamda mansabdor shaxslarning fuqarolar, ijtimoiy guruhlar, mehnat jamoalari, jamoat birlashmalari bilan o‘zaro munosabatlari boshqaruv tizimi samaradorligiga baho berishning yana bir muhim mezonini sanaladi. Bu mezon asosida boshqaruvning demokratik tabiatiga baho berish mumkin. Zero, boshqaruv organlari hamda fuqarolarning o‘zaro munosabatlari, muloqotlari hamda hamkorligi qanchalik keng bo‘lsa, boshqaruv faoliyati ham shu qadar demokratik tus oladi, boshqaruvdagi kamchiliklar va xatoliklarni o‘nglab borish imkoni tug‘iladi, boshqaruvning umumiy samaradorligi yuksaladi.

Sakkizinchi mezon, boshqaruv bo‘g‘ini tomonidan tarqatilyotgan axborotning haqqoniyligidir. YA’ni, boshqaruv tizimining samaradorligini ta’minlash bevosita aholining ishonchini qozonishga tayanadi. Bu ishonch esa boshqaruv organidan chiqayotgan axborotlarga bo‘lgan ishonch orqali shakllanadi.

Va nihoyat, davlat hokimiyati organlari hamda mansabdor shaxslar faoliyati samaradorligiga baho berishning yana bir muhim mezonini - axloqiylik mezonidir. YA’ni, davlat hokimiyati organlarining tashqi muhit - boshqariluvchi obyektlar bilan munosabatlari axloqiy meyorlarga qay darajada muvofiq kelishi insonlarda hokimiyatga nisbatan ijobiy yoxud salbiy munosabatni shakllantiradi.

Umuman, davlat hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini belgilashda eng asosiy omil aholining turmush darajasidagi o‘zgarishlar, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji hisoblanadi. “Bizning zimmamizdagi eng muhim vazifa - el-yurtimizning ishonchiga munosib bo‘lish, odamlarning hayotini amaliy ishlar bilan yaxshilashdan iborat. Biz rahbarlar bir narsani qulo‘limizga

³⁶ Karimov I. El-yurtga ʻalol, vijdonan ximat ʻilish ʻar bir raʻbarning muʻaddas burchi. (Xalq deputatlari Andijon viloyati kengashining navbatdan tashʻari sessiyasida sʻzlangan nutʻ). T.12. Toshkent. «qzbekiston». 297-b.

qo‘r‘oshinday quyib olishimiz kerak. Agarki, bizga katta umid va ishonch bilan qaraydigan odamlarning dasturxonida, oilaviy ahvolda ro‘z‘or tebratishida, umuman, kundalik hayotida ijobiy o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmasa, bu aholining haqli e‘tirozi va noroziligiga olib kelishi tabiiy hol. Shuning uchun ham biz qayerda, qaysi lavozimda ishlamaylik, rahbarlik ishimizning samarasi va mahsuli oxir-oqibatda ana shunday mezon bilan o‘lchanadi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz”³⁷.

3. Davlat hokimiyati organlari faoliyatini samarali tashkil etishda kadrlarning o‘rni va roli

O‘zbekistonning barqaror taraqqiyoti kadrlar salohiyati, boshqaruv bo‘g‘ini vakillari, umuman, boshqaruv resurslarini faollashtirish va ulardan oqilona foydalanish bilan bog‘liq vazifalarning amalga oshirilishiga bevosita bog‘liq. Mamlakatning professional salohiyati - davlatning milliy boyligidir. Shu bois, boshqaruv apparatidagi kadrlar salohiyatining yuksakligi, ularning yuqori sifat va miqdor ko‘rsatkichlari mahalliy boshqaruvning samaradorligini ta‘minlovchi omil sanaladi.

“Kadr” atamasi fransuzcha “cadre” so‘zidan olingan bo‘lib, korxonada, tashkilot xizmatchilarining shtat tarkibi, shaxsiy tarkibini ifodalashda qo‘llaniladi. Ilmiy adabiyotlarda korxonada va tashkilot xodimlarining asosiy, doimiy, professional malakali tarkibi kadrlar deb nomlanadi ³⁸ va aynan shu kadrlarning mehnat faoliyati mazkur tashkilotning maqsad-vazifalarini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

³⁷ Karimov I. Yangi 3ayotni eskicha 9arash va yondashuvlar bilan 9urib b6lmaydi. Prezident Islom Karimovning Vazirlar Ma3kamasining yangi tarkibi bilan yi14ilishda s6zlagan nut9i. jzbekiston ovozi, 2005 yil 17 fevral.

³⁸ Sistema gosudarstvennogo i munitsipalnogo upravleniY. Pod obsh.red. G.V.Atamanchuka. – M.: Izd-vo RAGS, 2005, 361-bet.

“Kadrlar salohiyati” atamasi personalning³⁹ muhim xususiyatlarini – ulardagi ochiq va yashirin qobiliyatlarni (hali foydalanilmagan, talab etilmagan) hamda professional, shaxsiy imkoniyatlarni o‘zida ifoda etadi. Bu tushuncha kadrlarning professional faoliyatda xali foydalanilmayotgan, yashirin kuch-qudratini ifodalaydi. Salohiyat esa, o‘z navbatida, professional, ya’ni kasb malakasi bilan bo‘lqliq, shaxsiy, motivasion, ijodiy, aqliy, boshqaruvchilik bilan bo‘lqliq va hokazo bo‘lishi mumkin.

Tub ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy islohotlar kechayotgan o‘zbekiston Respublikasida davlat xizmatchilari va hokimiyat organlari kadrlarining professional salohiyatini uzluksiz ravishda yuksaltirib borish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi. Davlatning kadrlar siyosati ham davlat va mahalliy boshqaruv muammolarini hal qilishning muhim omilidir. Zero, davlat boshqaruvi tizimida hamda mahalliy boshqaruv tizimida kadrlar siyosati tasodifiy tarzda amalga oshirilmaydi. Davlat o‘zining kadrlar siyosati orqali maqsadlarni ilgari surishi, ustuvor vazifalarni belgilashi, ta’lim standartlarini ishlab chiqishi, xizmatchilarni attestasiyadan o‘tkazish tizimini yaratishi, kadrlarni qayta tayyorlashga davlat buyurtmasini belgilashi, boshqaruv kadrlarini tayyorlash dasturlarini ishlab chiqishi lozim.

Kadrlar siyosati xodimlarning ishiga qo‘yiladigan talablarni o‘z ichiga oladi. Keng ma’noda kadrlar siyosati tashkilotning xodimlari va xizmatchilarini tayyorlash, ularni tanlash va joy-joyiga qo‘yish, ularni attestasiyadan o‘tkazish, ularni boshqa lavozimlarga o‘tkazish, taqdirlash, jazolash va ishdan bo‘shatish bilan bo‘lqliq choralar yi‘indisini o‘zida ifodalaydi⁴⁰.

Mamlakatimiz kadrlar siyosatining huquqiy asosini o‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, qonunlar, Prezidentning farmonlari va qarorlari tashkil etadi. Bunday siyosatning asosiy mazmuni – kadrlar bilan ishlashning

³⁹ Personal - idora xodimlari.

⁴⁰ Ткаченко Ю.А. Организационные и правовые основы обучения государственных служащих. М., 2001, С. 7.

o‘zak yo‘nalishini ishlab chiqish va boshqaruv personaliga qo‘yiladigan umumiy va xususiy talablarni aniqlashdan iborat. Demak, kadrlar siyosati tashkilotni zaruriy miqdordagi va talab etiladigan sifatdagi kadrlar bilan ta‘minlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, kadrlar salohiyatidan oqilona foydalanish, davlat idoralari va mahalliy hokimiyat organlarining samarali faoliyatini ta‘minlash ham kadrlar siyosatining mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Kadrlar siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri – kadrlarni rivojlantirish, ularni o‘qitish, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, ularning karyerasi⁴¹ bilan bo‘liq vazifalarni hal qilish, kadrlarni yoshartirish, ularni ra‘batlantirish yo‘llarini aniqlash bilan bo‘liq. Kadrlar siyosati mamlakatdagi ijtimoiy munosabatlar rivojini o‘zida ifodalashi lozim.

Ilmiy tadqiqot natijalarini inobatga oladigan bo‘lsak, kadrlar salohiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- aqliy salohiyat, uzluksiz ta‘lim doirasida orttirilgan qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi;
- ijtimoiy salohiyat, samarali ijtimoiylashuvni ta‘minlaydigan muloqotga kirishish qobiliyatini o‘z ichiga oladi;
- professional tajriba bilan bo‘liq salohiyat, kasb malakasi bilan bo‘liq tajribani umumlashtirish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi;
- psixologik-fiziologik salohiyat⁴².

Kadrlar salohiyati – davlat hokimiyati va mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Biroq kadrlar salohiyati faqat ularning qobiliyatlari bilan o‘lchanmaydi, balki shu

⁴¹ Карьера – мансаб пиллапояларидан кетарилиш.

⁴² Система государственного и муниципального управления. Под общ.ред. Г.В.Атаманчука. – М.: Изд-во РАГС, 2005, 363-бет.

qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish imkoniyatlari ham muhim sanaladi. Bundan tashqari, rahbar kadrlarda yangi malakalarni shakllantirish, ulardagi mavjud ko'nikmalarni yanada rivojlantirish hamda bu jarayonlarni amalga oshirishda jamiyat, tashkilot va inson manfaatlaridan kelib chiqish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Aqliy qobiliyatlar koeffitsiyenti kadrlar salohiyati sifatining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Zero, fan va ta'lim yaqin kelajakda jamiyatni rivojlantirishning asosiy manbaiga aylanishi tayin. Aynan ilm va ta'lim yordamida millatning shunday qatlami shakllanadiki, ular uchun ijodkorlik va yaratuvchanlik hayotiy meyorga aylanadi.

Jamiyatning kadr salohiyati hamda davlat idoralari va mahalliy boshqaruv organlari tizimi o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirdadir. Zero, jamiyatning kadr salohiyati, insoniy resurslari davlat boshqaruvi organlaridagi kadrlar salohiyatini shakllantirishda poydevor vazifasini o'taydi.

Kadrlarga professional ta'lim berish jarayonida ularda professional, shaxsiy sifatlar qaror toptiriladi va axloqiy fazilatlar shakllantiriladi. o'qitish va mehnat faoliyatidagi faollik – kadrlarda professionalizmning o'sishi uchun zaruriy shartlardir. Shu bilan birga, kasb-malaka bilan bog'liq ta'lim mazmunan ilgarilovchi tabiatga ega bo'lishi, doimiy, uzluksiz bo'lishi, kadrlar salohiyatini rivojlantirishga va boyitishga yo'naltirilgan bo'lishi, shuningdek, xizmatchilarni vijdonan va samarali mehnat qilishga rag'batlantirishi kerak.

Shu o'rinda rahbarlik faoliyati uchun mas'uliyatning muhimligini alohida ta'kidlash lozim. Mas'uliyat umumijtimoiy hodisa ekanligini hamda insonning o'z xatti-harakatlarini anglash va nazorat qilish qobiliyati bilan bog'liq. Ijtimoiy institut sifatida mas'uliyat turli ijtimoiy meyorlar vositasida ta'minlanadi. Davlat boshqaruvi sohasida mas'uliyat masalasi alohida o'tkir muammo sanaladi. "Mas'uliyat" deganda boshqaruv subyekting huquqiy meyorlarga mos ravishda harakat qilishi, faol bo'lishi hamda davlat va jamiyat oldidagi burchini

anglashi tushuniladi. Zero, mahalliy davlat boshqaruvi organlari va bu organlarda xizmat qiluvchi mansabdor shaxslar aholi oldida, davlat oldida, jismoniy va yuridik shaxslar oldida qonunga muvofiq javobgarlikka ega. Boshqaruvda javobgarlikning quyidagi ko‘rinishlari ajratiladi⁴³:

1. ma’naviy-axloqiy javobgarlik;
2. siyosiy mas’uliyat;
3. huquqiy javobgarlik.

Huquqiy javobgarlik qonunni buzishdan boshlansa, siyosiy mas’uliyat siyosiy maqsadlar, dasturlardan olish tufayli yuzaga keladi, axloqiy mas’uliyat esa axloqqa zid xatti-harakatlar bilan bog‘liq. Huquqiy mas’uliyat bir qancha tamoyillarga amal qilishni taqozo etadi. Bular: qonuniylik tamoyili, barchaning qonun oldidagi tengligi tamoyili, maqsadga muvofiq ravishda harakat qilish tamoyili, muqarrar jazolanish tamoyillaridir. Ilmiy adabiyotlarda huquqiy javobgarlikning 4 ko‘rinishi ajratiladi: intizomiy javobgarlik, ma’muriy javobgarlik, fuqarolik-huquqiy javobgarlik va jinoiy javobgarlik. Aholining ishonchidan mahrum bo‘lish boshqaruv idoralari va mansabdor shaxslarning mas’uliyati pastligini ko‘rsatadi.

Davlat xizmatchilari alohida majburiyatlarga ham ega bo‘lib, ularga amal qilmaslik uchun ular javobgar bo‘ladilar. Umumiy majburiyatlar qatoriga konstitusiyaviy tuzumni qo‘llab-quvvatlash, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish, fuqarolar, jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalarning murojaatlarini o‘z vaqtida ko‘rib chiqish va ular bo‘yicha tegishli qarorlar qabul qilish, davlat va xizmat sirini oshkor qilmaslik, fuqarolarning shaxsiy hayotiga doir ma’lumotlarni tarqatmaslik va hokazolar kiradi.

⁴³ Система государственного и муниципального управления. Под общ.ред. Г.В.Атаманчука. – М.: Изд-во РАГС, 2005, 203-бет.

Davlat xizmatchilari uchun, shuningdek, qator cheklov va ta'qiqlar qo'yilgan. Jumladan, ular davlat xizmatchisining axloqiy-ma'naviy qiyofasiga putur yetkazmasliklari, xizmat vazifalarini bajarish davomida siyosiy betaraflikni saqlashlari, mustaqil bo'lishlari, suiste'mol va korrupsiyaga qarshilik ko'rsatishlari lozim. qator cheklovlar sosial-iqtisodiy soha bilan ham bog'liq. Xususan, davlat xizmatchisi pedagogik, ilmiy va ijodiy faoliyatdan bo'lak boshqa maosh to'lanadigan faoliyat bilan, shuningdek, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi mumkin emas. U o'z xizmat vazifalarini ado etish maqsadida qilgan chiqishlari, intervyulari va chop etgan ishlari uchun qalam haqi olishi mumkin emas. qator cheklovlar ahloqiy tabiatga ega. Davlat xizmatchisi o'z xatti-harakatlari bilan o'z sha'niga putur yetkazmasligi, davlat xizmatini badnom qilmasligi kerak, zero, bunday harakatlar fuqarolarning davlat idoralariga bo'lgan munosabatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, davlatning kadrlar siyosati aholi uchun munosib turmush darajasini yaratishga xizmat qilishi, xalq farovonligini yuksaltirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Davlat apparatidagi hamda mahalliy boshqaruv apparatidagi kadrlar siyosatiga kadrlar masalasini hal qilish vakolatiga ega bo'lgan rahbar shaxsi kuchli ta'sir ko'rsatadi. Uning intilishlari, manfaatlari, mayllari qanday bo'lsa, uni qurshab turadigan xodimlar ham shu irodani ro'yobga chiqaradi.

o'zbekiston amaliyoti haqida to'xtaladigan bo'lsak, mustaqilikning dastlabki yillarida eski tuzumdan qolgan kadrlar bilan ishlashda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelindi. O'sha vaqtda ishlagan kadrlar haqida gapira turib, Prezidentimiz, jumladan: «Men ilgari nutqlarimda kadrlarni bir necha toifaga ajratgan, kimlar bilan qanday ishlash kerakligi to'g'risida fikrimni bayon etgan edim. Birinchi toifa, bu - hozirgi og'ir vaziyatdan foydalanib qolishga harakat qiladigan, faqat o'z manfaatini o'ylaydigan, xalq g'am-tashvishidan begona kimsalardir. Ikkinchi toifa esa – befarq, loqayd odamlar bo'lib, ularni “o'yinchi” degim keladi. Bunday rahbarlar hech kimga qarshi gapirishni, dushman

orttirishni xohlamaydi. O‘yin bilan yuribdi. Shamolga qarab turadi. Xushomadgo‘ylik bilan ovvora⁴⁴», deb ta’kidlab o‘tgan edilar.

Agar sobiq ittifoq davri, aniqrog‘i, Stalin boshqargan davrdagi davlatning kadrlar siyosatiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu siyosat qatag‘on siyosati ekaniga iqror bo‘lamiz. Zero, o‘sha paytlarda siyosiy elita tarkibiga kirayotgan yangi kadrlar qatlami avvalgisini yakson qilar edi. “Brejnev boshqargan davrdagi kadrlar siyosatining mohiyatini qisqacha ifodalash mumkin: barqarorlikni saqlab qolish, partiya elitasi qo‘lidagi hokimiyatni har qanday yo‘llar bilan saqlab qolish, nizolardan saqlanish, imkon qadar keskin choralarni qo‘llamaslik. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun ham iltifotli, boshqariladigan, juda ham noziktabiati bo‘lmagan, yetarli darajada bilimga ega, biroz artistizmga ega kadrlar tanlangan”⁴⁵. I.Karimovning yuqorida keltirilgan fikrlari o‘sha davrning sarqitlari xali-xanuz o‘z kuchini yo‘qotmaganini dalillaydi.

Vaholanki, davlat va mahalliy boshqaruv organlari rahbarlari kadrlar salohiyatidan samarali foydalana bilishi, iste’dodli xodimlarni kamol toptirishi, boshqaruv madaniyatining o‘rni va rolini anglashi, jamoaning faoliyatini rag‘batlantiruvchi yangi mexanizm va vositalarni ishga solishi zarur. Shu nuqtai nazardan davlat va mahalliy boshqaruv organlari tizimini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlash - o‘zbekistonda demokratik davlat qurilishining muhim vazifasidir. 1995 yilda o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan tashkil etilgan Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi ana shu vazifani amalga oshirish maqsadida ish boshlagan.

Hozirgi kunda rahbarlar qatlami yuqori malakali kadrlar, yuksak ma’naviyatli va ma’rifatli insonlar, o‘z ishining ustalari hisobiga to‘lib

⁴⁴ Каримов И. Раїбар етакчи ўзи ёниб, ўзгаларни іам ёндириб яшаши керак. Хал^о депутатлари Сурхондарё вилоят Кенгашининг навбатдан таш^оари сессиясида сўзланган нут^о. Хал^о сўзи, 2002 йил 22 февраль, 39сон.

⁴⁵ Проблемы лидерства и кадровые технологии. Под ред. В.М.Мартыненко. Харьков, “Константа”, 2006, 15-бет.

borayotganini ham alohida ta'kidlash lozim. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasining hissasi beqiyosdir. O'quv jarayoni davomida va amaliyot davrida rahbar-kadrlarda professional (mehnat sifati va hajmi uchun) mas'uliyat bilan bir qatorda resurslar (foydalanilgan moddiy va insoniy resurslar) uchun mas'uliyat hamda pirovard natijalar, maqsadlarga erishish uchun mas'uliyat hissi qaror toptirilmoqda. Shuningdek, tinglovchilarni o'qitish va malakasini oshirishda boshqaruv bilan bog'liq faoliyatda yuqori sifat ko'rsatkichlariga erishishga o'zmat qiladigan bilim va ko'nikmalar shakllantirilmoqda.

Demak, rahbar kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish davlat oldida turgan eng muhim vazifalardan biridir. Zero, insonlar va ularning qobiliyatlari – eng qimmatbaho resurs sanaladi. ²ozirgi kunda inson resurslarini boshqarish tobora strategik vazifaga, insonlarning salohiyatini rivojlantirish esa investisiya manbaiga aylanmoqda. Ko'p sonli tadqiqotlarning guvohlik berishicha, inson resurslarini boshqarish vazifasi samarali ravishda amalga oshirilayotgan tashkilot va muassasalarda, odatda, moliyaviy o'sish, raqobatbardoshlik yuqoriroq bo'ladi ⁴⁶. Chunki bunday boshqaruvda kishilarning mehnatidan unumli foydalanish evaziga maqsadlarga erishiladi, shuning uchun kadrlarni joylashtirish, ularning faoliyatini rivojlantirish, ularning qobiliyatlarini rivojlantirish tashkilotning strategik maqsadlaridan biriga aylanadi.

Bugungi kunda inson resurslarini boshqarishning quyidagi yo'nalishlari ajratiladi:

- tashkilotning strategik maqsadlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;
- kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish;
- xodimlarning ishini rag'batlantirish;

⁴⁶ Проблемы лидерства и кадровые технологии. Под ред. В.М.Мартыненко. Харьков, "Константа", 2006, 18-бет.

- attestasiya, mehnat natijalarini baholash;
- mehnat munosabatlari;
- pensiya siyosati;
- tashkilotdagi muloqot va ma'naviy muhit;
- trening va inson resurslarini rivojlantirish⁴⁷.

Bugungi kunda davlat hokimiyati organlari rahbar kadrlaridan strategik fikrlash, maqsadlarni ilgari surish va ularga erishish choralarini topish, mustaqil qarorlar qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirish, samarali muloqotga kirishish va muzokaralarni oqilona olib borish talab etiladi. Ta'kidlash joizki, boshqaruv vazifalari XXI asrdagi kabi murakkab bo'lgan emas. Bu esa mahalliy davlat boshqaruvi organlarining kadrlar salohiyatini oshirish masalasining naqadar dolzarbligini ko'rsatadi.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

**Siyosiy menejment fanining yo'nalishi va ijtimoiy faoliyat sifatida.
Siyosiy menejmentning genezisi va bugungi holati. Siyosiy menejment nazariya va amaliyot sifatida**

MASHG'ULOT O'TISH TEXNOLOGIYASI

O'quv texnologiya modeli

Mashg'ulot soati – 90 daq.	O'quvchilar soni: 9-10 kishi
----------------------------	------------------------------

⁴⁷ Управление человеческими ресурсами. Под ред. М.Пула, М.Уорнера. СПб., “Питер”, 2002, 119-бет.

O'quv mashg'ulot turi	Bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish
Mashg'ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. O'quv mashg'ulotni olib borish 2. Bilimlarni aktualigi 3. Kichik guruxlarda organayzerlar bilan ishlash 4. Natijalarni namoyish etish 5. Baxolashni eng yaxshi usullarini tanlash va muxokama qilish. 6. Yakunlash. Gurux va talabalarni mashg'ulotdagi o'zlashtirish darajasiga ko'ra baxolash.
<p>1. O'quv mashg'ulot maqsadi: Axborot sohasini isloh etish va yoshlar tarbiyasi turlarini ko'nikmalarini chuqurlashtirish. Axborot sohasini isloh etish va yoshlar tarbiyasi umumiy xolatini baxolash va taxlil qilish; Mafkuraviy pedogogik tashxis qo'yish uchun xarakat algaritmini to'g'ri tanlash; Axborot sohasini isloh etish va yoshlar tarbiyasi mustaqil analiz bera olish;</p>	
O'qtuvchining vazifalari: Axborot sohasii isloh etish	Mashg'ulot jarayoni natijasi: Organayzerlar bilan ishlash

<p>sabablarini chuquroq va kengroq o‘rganish. Yoshlarda mafkuraviy immunitet sindromi bilan kelgan yoshlar xolatini baholash va jarayoni taxlil qilishni shakllantirish, befarqlik, loqayd fukorolarni birlamchi bosqich darajasida qiyosiy tashxislash, shoshilinch tarbiyaviy yordam ko‘rsatish o‘z vaqtida mafkuraviy profilaktika ishlarini tashkillashtirishni olib borish. Rejalashtirilgan o‘quv jarayonini natijasi – organayzerlar bilan ishlash natijasida talaba quyidagi ko‘nikmalarni egallashga yordam berish:</p>	<p>natijasida talaba quyidagi ko‘nikmalarni egallaydilar: Axborot sohasii isloh etish sabablarini chuquroq va kengroq o‘rganadi. Yoshlarda mafkuraviy immunitet sindromi bilan kelgan yoshlar xolatini baholash va jarayoni taxlil qila oladi, qiyosiy tashxislash, shoshilinch tarbiyaviy yordam ko‘rsatish o‘z vaqtida mafkuraviy profilaktika ishlarini tashkillashtira oladi.</p>
<p>O‘qitish usullari</p>	<p>Organayzerlar, amaliy usul</p>
<p>O‘qitish jixozlari</p>	<p>Organayzerlar, metodik qo‘llanmalar</p>
<p>O‘qitish turi</p>	<p>Mustaqil, gurux bilan</p>
<p>O‘qitish sharoiti</p>	<p>Kichik guruxlar bilan ishlashga moslashtirilgan texnik jixozlangan auditoriya</p>

Monitoring va baxolash	Kuzatish, blis so‘rov, prezentasiya, baxolash.
------------------------	--

Ta’lim texnologiyasi asosan ushbu fan bo‘yicha tahsil beradigan pedagog-o‘qituvchilar uchun mo‘ljallangan.

FANNING VAZIFALARI

Dunyoning siyosiy-mafkuraviy manzarasi, unda kechayotgan g‘oyaviy kurashlardan ko‘zlangan tub maqsad-manfaatlarning asl qiyofasini ochib berish;

- Yoshlarda siyosiy jarayonlarni tahlil etish doirasida tarixiy xotira, madaniy merosga hurmat, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘ularini mustahkamlagan holda ularda o‘z kuch va imkoniyatlariga tayanib yashash hissini shakllantirish;

- Yoshlarda tashqi siyosiy tahdidlarga, “ommaviy madaniyat” niqobi ostidagi turli xil xatti-harakatlarga nisbatan doimo ogoh, sezgir va xushyor bo‘lish ko‘nikmalarini shakllantirish;

- Global siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyatini yoritgan holda bu jarayonlarning ham ijobiy, ham salbiy tomonlarini tahlil qilish;

- Davlatimizning vijdon erkinligi sohasida olib borayotgan siyosatini hamda uning amaliy natijasi bo‘lmish, qaror topgan diniy bag‘rikenglik muhitini yoshlar orasida keng yoyishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligini oshirish;

- Turli davlatlarining milliy siyosatidagi totuvlikni mustahkamlash tomon qaratilgan tadbirlarning mohiyatiga e’tiborni kuchaytirish;

- Sog‘lom fikr va dunyoqarashga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash, ularning salohiyatini vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligi yo‘lida safarbar qilishga, navqiron avlodda vatanparvarlik tuyg‘usi, yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yana ham katta e’tibor berish;

- Yoshlar ongida ozod shaxs va erkin fuqaroning asosiy jihatlarini shakllantirgan holda ularni mustaqil fikrlashga o'rgatish orqali ularda Vatan taqdiriga ma'sullik tuyg'ularini shakllantirish;

- G'oyaviy kurashchanlikning negizlari haqida bilim va tushunchalarga ega bo'lish orqali yoshlarda tarixiy xotira, daxldorlik, ma'naviy jasorat, buyuk kelajak uchun ma'sullik, milliy o'zlikni anglash tuyg'ularini mustahkamlashdan iborat.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarining to'laqonli rivojlanishini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirish jarayonida ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashishni nazarda tutadi.

Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyliigi, uning barcha bo'g'inlarining o'zaro bog'liqligi, yaxlitligi.

Faoliyatga yo'naltirilgan yondoshuv. Individning jarayonli sifatlarini shakllantirish, ta'lim oluvchining faoliyatini faollashtirish va tezlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari. Tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

Dialogik yondoshuv. Bu yondashuv o'quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini shakllantirish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyat kuchayadi.

Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida demokratik tenglik, hamkorlik kabi o'zaro subyektiv munosabatlarga, faoliyat maqsadi va mazmunini birgalikda shakllantirish va erishilgan natijalarni baholashga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish asosida ta'lim oluvchilarning o'zaro faoliyatini tashkil etish usullaridan biridir. Bu jarayon ilmiy bilimlarning obyektiv qaramaqarshiligi va ularni hal etish usullarini aniqlagan holat, dialektik tafakkurni hamda ushbu usullarni amaliy faoliyatda ijodiy qo'llashni shakllantirishni ta'minlaydi.

Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vosita va usullarini qo'llash – bu yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashdir.

O'qitish uslublari va texnikalari. Ma'ruza (kirish, mavzuli, ma'lumotli, ko'rgazmali (vizuallashgan) tahlil, ilmiy anjuman, aniq vaziyatlarga yondashuv), munozara, muammoli uslub, pinbord, aqliy hujum, tezkor so'rov, savol-javob, amaliy ishlash usullarini o'z ichiga oladi.

O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, pollog, muloqot, hamkorlik va o'zaro o'qitishga asoslangan frontal, jamoaviy va guruhlarda o'qitish.

O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy vositalari (o'quv qo'llanma, ma'ruza matni, tarqatma materiallar) bilan bir qatorda – chizmalı organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

Kommunikasiya usullari: talabalar bilan tezkor va faol muloqotga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

Tezkor va faol aloqalarning (ma'lumotning) usul va vositalari: tezkor so'rov, o'qitish diagnostikasi.

Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'uloti bosqichlarini belgilab beradigan texnologik karta ko'rinishidagi o'quv mashg'ulotlarini rejalashtirish, qo'yilgan maqsadga erishishda o'qituvchi va tinglovchining birgalikdagi harakati, nafaqat auditoriya mashg'ulotlari, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ishlarning nazorati.

Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulotlari davomida mavzu yuzasidan nazorat savollarini berib borish orqali o'qitishning natijalari rejali tarzda kuzatib


boriladi. Mashg'ulotlarning oxirida test topshiriqlari yordamida talabalarning bilimlari baxolanadi

MASALALAR VA MASHQLAR TO'PLAMI
AMALIY (SEMINAR) MASHFULOTLAR UCHUN O'QUV
TOPSHIRIQLAR

Mavzu: Axborot sohasini isloh etish va yoshlar tarbiyasi .

1-o'quv topshiriq


“Axborot sohasi ” so‘ziga klaster tuzing



2-o'quv topshiriq

Jadvalni to'ldiring

«Nima uchun» organayzerni to'ldiring



3-o'quv topshiriq

«T-sxema» jadvalini to'ldiring

Axborot xuruji va unga xos bo'lgan xususiyatlar	“Ommaviy madaniyat” va uning ko'rinishlari

4-o'quv topshiriq

FSMU jadvalini to'ldiring

Savol	“Internet –mafkuraviy xuruj
	obyekti”
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

5-o'quv topshiriq

«T-sxema» jadvalini to'ldiring

“To'rt qadamli” universal model omillarini sanab bering (har bir qadam)	Auditoriyani sigmentlashtirishning asosiy omillarini sanab bering
---	---

6- o'quv topshiriq: “ Yelpig'ich” jadvalni to'ldiring

Fuqarolik jamiyatini shakllantirishda OAVning yutuq va kamchiliklarini to'ldiring.

1 guruh uchun

TVning	Yutuqlari	Kamchiliklari

2 guruh uchun

Matbuotning	Yutuqlari	Kamchiliklari

3 guruh uchun

Radioning	Yutuqlari	Kamchiliklari

7-o'quv topshiriq

«Blis-so'rov» savollariga javob bering

№	Savollar	Javoblar
1.	Mafkuraviy poligon tushunchasi	
2.	Mafkuraviy profilaktika tushunchasi	
3.	Mafkuraviy immunitet tushunchasi	
4.	Siyosiy madaniyat tushunchasi	
5	Yoshlar tarbiyasi tushunchasi	
5.	Mafkuraviy xavfsizlik tushunchasi	
6.	Ijtimoiy- ciyosiy institutlarga nimalar kiradi	


2-o'quv topshiriq

FSMU jadvalini to'ldiring

Savol	“Ijtimoiy-siyosiy barqarorlikning omili nimada?”
(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko‘rsating	
(M) Ko‘rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	


8-o‘quv topshiriq

“Nima uchun?” jadvalini to‘ldiring



9-o‘quv topshiriq

“Nima uchun ?” texnikasidan foydalanib “Nima uchun axborot makonimizga ximoya kerak?” savoliga javob bering.



10-o‘quv topshiriq

Mustaqil ishlash uchun nazorat savollar:

1. Fuqarolik jamiyatining sifatlarini tasniflang
2. O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlari xakida gapiring
3. Fuqarolik jamiyati asosini nima tashkil etadi?
4. Fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim shartlari nimalardan iborat?
 - a. OAV tushunchasini ta’riflang.
 - b. OAV qanday siyosiy vazifalarni bajaradi?
5. Hozirgi sharoitda OAV siyosiy rolining oshib borishi qanday tushuntiriladi?

GLOSSARIY

Axborot xavfsizligi- nafaqat davlatniig axboriy resurslarini, balki fuqarolarining huquqlari va jamiyatning barcha strukturalarini axborot makonidagi himoyasini ifodalaydi. O'zbekiston

Respublikasiniig axborot xavfsizligi - shaxs, jamiyat va davlatning o'zaro muvozanatlashgan umummilliy manfaatlarni axborot xavfsizligining himoyalaniishi. **Davlat axborot xavfsizligi-** barcha axborotlar tizimlarining himoyalanganlik darajasiga bog'liq jarayon. Bunda asosiy va zaruriy iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, fan-texnika, ta'lim-tarbiya, harbiy hamda mamlakatning milliy manfaatlariga zid keladigan axboriy tahdidlarning oldini olish, axborotlarni noqonuniy yo'llar bilan olishni barataraf etishning qat'iy chora va tadbirlar ko'rilishi maqsad qilib belgilanadi. Axborot xavfsizligi ayni axboriy tahdidlarning oldini olish va bartaraf qilishga yordam berish davlat tadbirlarining yaxlit tizimi. Hozir axboriy xavfsizlik xarbiy xavfsizlikning komponenti sifatida ham ishlatilib, harbiy sohadagi axboriy resurslar, kanallar, bilimlar va ma'lumotlar bazasining mavjudligi, ularning asosida axborotlarni qayta ishlanishi, saqlanishi va qo'llanilishidagi xavfsizlikni anglatmoqda.

Axborot urushi - dushmanning axborot tizimlariga ta'sir ko'rsatish yo'li bilan amalga oshiriladigan ayni paytda o'zining axborotlarini himoya qilish harakatlari. O'zga davlat tinch aholisi yoxud harbiylariga muayyan axborot tarqatish yo'li bilan ta'sir o'tkazish.

Agressor- ko'proq harbiy sohaga tegishli tushuncha bo'lib, BMT Nizomlariga zid ravishda davlat suvereniteti, hududiy daxlsizligi va siyosiy mustaqilligiga biron bir davlatning harbiy kuch ishlatishiga aytiladi. Hozir axborot inqilobi asrida agresorning axboriy xujum, axboriy tajovuz tushunchasi bilan ifodalanishi geosiyosiy tahlillarda qayd qilinmoqda.

Axboriy xuruj- axboriy xuruj bu haqiqiy qurolli urushga qo'yilgan birinchi qadamdir. Axborot xavfsizligini ta'minlashning bugungi kundagi dolzarbligi shu holat bilan belgilanadi. Insoniyat "axboriy jamiyat" deb atalmish yangi bir davrga qadam qo'yayotgan ekan, axborot xavfsizligini ta'minlash har doimgidan ham zarurdir. U muayyan kuchlar tomonidan inson ongi va qalbiga yot g'oyalarni singdirish maqsadida ularning hissiyotlari, e'tiqodi va tuyg'ulariga ta'sir etishning mafkuraviy omillaridan, jamiyat turmush tarzi va mentalitetidagi o'zgarishlarni amalga oshirish uchun unga moddiy, ma'naviy, ruhiy ta'sir o'tkazishning noan'anaviy va noxolis usullaridan foydalanish asnosida geosiyosiy maqsad va muddalarni amalga oshirish majmuasini anglatadi.

Aqidaparastlik – muayyan sharoitda, biron-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'rko'rona qo'llashga urinish. Bu atama faqat salbiy ma'noda qo'llanib, muayyan olim yoxud oqim tomonidan

bayon etilgan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy ravishda kengaytirishga urinishni anglatadi.

An'ana – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma'naviy faoliyat shakllarining, kishilar o'rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o'tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.

Anarxizm- har qanday hokimiyat va davlatni inkor etuvchi, harkim o'ziga xo'jayin degan qarashlarga asoslanuvchi ijtimoiy siyosiy oqim. Bu hoya beboshlik va tartibsizlikka olib boradi, taraqiyot yo'lidan adashtiradi, vayronkor mohiyatga ega.

Bir qutbli dunyo - «sovuq urush» da SSSRning mag'lubiyatidan keyin vujudga kelgan geosiyosiy tartib.

Blok – bir necha davlatlarning birlashmasi hisoblanib, ularning strategik va geosiyosiy jihatdan e'tiborli harakatlari umumbashariy darajadagi o'zgarishlarga olib keladi.

Vatan ravnaqi – har bir kishining manfaatlarini yurt manfaatlari bilan uyg'unlashtiruvchi, uni xalq baxt-saodati yo'lida xizmat qilishga undovchi bunyodkor g'oyadir

Vayronkor (buzg'unchi) g'oyalar – 1) bunyodkor g'oyalarga zid bo'lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuini ifodalaydigan tushuncha; 2) insonni va jamiyatni tubanlikka boshlaydigan, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g'oyalardir.

Global geosiyosat- umumbashariy xavfsizlik bilan bog'liq geosiyosiy jarayonlar majmuasi. Turli mintaqa va mamlakatlar o'rtasida ananaviy to'siqlarning geosiyosiy darajada buzilib ketish jarayonlari. Uchinchi mingyillikda xalqaro xavfsizlikning barcha parametrlari o'zgarmoqda. Agar xavfsizlik ilgari harbiy kuchlar muvozanati, konfliktlar darajasi va jahon urushi tahdidiga, jumladan qurollanish poygasini to'xtatish kabi geosiyosiy omillarga bog'liq bo'lgan bo'lsa, hozirgi paytda axborot quroli bilan bog'liq yangi global geosiyosat yuzaga keldi. "Globalashuv", "global axboriy makon" kabi atamalarning muomalaga kirishi esa zamonaviy dunyoning siyosiy jarayonlari, ularning rivojlanish tendensiyalarini muhim masalaga aylantirdi.

Geosiyosatning obyekt- dunyoning geosiyosiy tuzilish va xalqaro dunyoviy tartibot tizimidagi geosiyosiy jarayon va hodisalardir. Geosiyosat obyektida jahonning geosiyosiy xaritasi turishi birinchi navbatda, dunyoning ko'p qutbli dunyoga aylanishi bilan xalqaro munosabatlarning yangi bir transformasiya - davlatlarning o'z ta'sir doiralari uchun kurashning yangi bosqichiga ko'tarilishi bilan bog'liqligini tasdiqlaydi. U jamiyat tafakkurida ko'p qirrali dunyoviy siyosat tushunchasining shakllanishidan kelib chiqadi. Mazkur masalalar geosiyosat obyektida yaxlit holatda turishi mumkin, biroq geosiyosat

ularni tahliliy jihatdan o'rganishni bir qator bosqichlarda ko'radi. Masalan, zamonaviy geosiyosat dunyoning siyosiy xaritasida kechayotgan jarayonlarni umumbashariy, mintaqaviy va ma'lum bir davlatning dahldorligidan kelib chiqib, tahlil etadi va tegishli xulosalarni chiqaradi.

Geosiyosat predmeti— umumbashariy va mintaqaviy muammolarni hal qilishda geosiyosat subyektlari munosabatlari, jamiyatda kechayotgan har xil darajadagi axboriy-mafkuraviy jarayonlar, ularning yuzaga kelishi, harakatlanishi va o'zgarib borishini o'zida aks ettiruvchi voqealar rivoji.

Geosiyosiy mintaq — bu siyosiy, iqtisodiy, madaniy, savdo va boshqa aloqalar uchun qulay imkoniyatlarga va istiqbollarga ega bo'lgan geografik maydon hisoblanadi.

Geosiyosat - ("Geopolitika") so'zi yunon tilidagi "geo" (yer) va "politicos" (davlatni boshqarish san'ati) jumlaridan olingan. Davlat va xalqlarning o'zlari joylashgan hududning geografik, tabiiy - iqlim sharoitlariga mos ravishda shakllanishini ifodalovchi mafkuraviy fan. Geosiyosatning vazifasi siyosiy jarayonlarning geografik makondagi o'zaro aloqalarni, zaminga va madaniy omillarga ta'sirini o'rganish, sayyoraviy makonni nazorat etishdir. Bu jihatdan geosiyosatni amaliy siyosatni boshqarish haqidagi fan deyish mumkin.

Geostrategiya – geosiyosiy tahlilning harbiy jihati.

Demokratiya eksporti - inqilobiy axborot tarqatuvchilarda inson hukuqlarining umumiy deklarasiyasidan iqtiboslar, ularda "nodemokratik" rejimlar sayyoramizdagi - qashshoqliqdan boshlab, atrofmuhitning ifloslanishiga, xotin-kizlar kamsitilishidan tortib, etnik tozalov va genosidgacha bo'lgan barcha kulfatlar sababchisi sifatida tilga olinadi. Bunday paytda, shuningdek," xalkaro siyosat - umumiy demokratiyani yoyish va olg'a surishdan iboratdir" degan qarashlar avjiga chiqadi. Shu tariqa axborot makonlarida "demokratiyani dunyoga yoyish" siyosatining bayoni berila boshlanadi.

Diniy bag'rikenglik – xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi.

Demokratik institutlar – jamiyatning demokratik tuzumini barpo etishga xizmat qiluvchi omil bo'lib, unga quyidagilar kiradi. 1) Siyosiy partiyalar va ijtimoiy harakatlar. 2) Yuridik maqomga ega bo'lgan muxolifat. 3) Mulkchilik instituti.

Suverenitet- davlatning ichki va tashqi siyosatidagi to'la mustaqilligi. Davlat suvereniteti mustaqil ichki va tashqi siyosat olib borish, o'z hududining daxlsizligini ta'minlash; qonunlarni qabul qilish; urush va tinchlik masalasini hal qilish; sud hokimiyatini amalga oshirish; mansabdor shaxslarni tayinlash; mustaqil valyutaga ega bo'lishni taqozo qiladi. Davlat suvereniteti g'oyasi BMT

hujjatlarida, turli davlatlarning konstitusiyalarida o‘z aksini topgan. Respublikamizning mustaqilligi davlat mustaqilligining asosidir. O‘zbekiston Konstitusiyasi 1–moddasida “O‘zbekiston –suveren demokratik respublika” ekanligi belgilab qo‘yilgan. Bizning siyosiy mentalitetimiz suverenitetning mazmun mohiyatini mustaqillik tushunchasi orqali ifodalaydi.

Jahon siyosati - xalqaro huquqning asosiy subyektlari o‘rtasidagi faol siyosiy faoliyatlar majmuasidir. Xalqaro siyosat tuzilishi jihatidan suveren, mustaqil milliy davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatn, mintaqaviy davlatlararo va jamoatchilik tuzilmalari, guruhleri va ittifoqdoshlar o‘rtasidagi aloqalarni hamda umumbashariy miqyosda BMT va boshqa xalqaro tashkilotlar va muassasalar faoliyatlarini qamrab oladi.

Liberalizm – huquq va siyosat borasida (eng minimal darajadagi insonparvarlik, individualizm, etnik va madaniy egalitarizm singari) so‘lchilikka oid xususiyatlarni, iqtisodiyot borasida esa (bozor, xususiylashtirish, xususiy mulk, kapitalizm) o‘ng xususiyatlarni o‘zida mujassam etgan dunyoqarash. G‘arb dunyosining yetakchi mafkurasi. Liberalizmning siyosiy ifodasi liberal-demokratiyadir.

Manqurt – «Manqurt» o‘z eli, tarixi, qon-qarindoshini, hatto o‘zi tuqqan onasini ham unutgan, o‘z kelajagini tasavvur eta olmaydigan kishilar va xalqlarning majoziy obrazi. U xalqlarning manqurtlarga aylanishida bosh aybdor davlat va mafkuraga to‘la bo‘ysundirilgan jamiyatdir degan xulosaga keladi. Masalan, Chingiz Aytmatovning «Asrga tatigulik kun» romanida «Manqurt» afsonasidagi shaxs obrazi.

Milliylik – muayyan xalqqa xos bo‘lgan, uni boshqalardan farqini ko‘rsatuvchi xususiyatlar majmui. Milliylik millatning tarixi, qadriyatlari, an‘analari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Millatchilik – o‘z millatining manfaatlarini boshqa millatlar haq-huquqlaridan yuqori qo‘yib hal etishga intiluvchi siyosiy oqim

Ma‘naviyat – (arab. – ma‘nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Milliy qadriyat – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq qadriyat shakli.

Mentalitet – (lotincha «mens» - aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma‘naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati.

Mustaqillik – 1) Tazyiqdan, nazoratdan xoli bo‘lish, erkinlik; 2) iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy tobe bo‘lmaslik. O‘zbek tilida Mustaqillik atamasi odatda istiqlool so‘zi bilan yaqin ma‘noda qo‘llaniladi va uzluksizlikni anglatuvchi chuqur, keng qamrovli jarayonni aks ettiradi.

Milliy g'urur – 1)shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o'z-o'zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon sivilizasiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

Muholifat – (arabcha «muholafat» - kelishmovchilik, teskarilashish, qarama-qarshilik, ziddiyat) – rasmiy siyosatga, hukmron qarashlarga mos bo'lmagan nuqtai nazar, alohida siyosiy yo'l, demokratiyaning muhim belgisi. Muholifat uch xil bo'lishi mumkin: a) parlament doirasida; b) undan tashqarida; yohud v) siyosiy partiyalar ichida.

Ma'rifat – Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma'rifat bilmoq, kishilarning ongbilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ko'pchilikdagi ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi.

Milliy istiqlol g'oyasi – Milliy istiqlol g'oyasi O'zbekistonda yashovchi barcha millat va elat vakillarining tub manfaatlarini, xalqimizning asrlar mobaynida intilib kelgan orzu-ideallarini, olijanob maqsad-muddaolarini o'zida mujassam etadi.

Mafkuraviy immunitet – lotincha Immunitatis so'zidan olingan bo'lib – biror narsadan ozod etish ma'nosini anglatadi. Shaxs, ijtimoiy gurux, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan ximoyalashga xizmat qiluvchi tizim

Manipulyasiya - (*lot, manipulus – “qo'l harakati”*) - 1) qo'l mashqi, qo'l harakati, shu jumladan, qo'l mahoratiga tayangan fokus namoyish qilish; 2) maxinasiya, aldov, tovlamachilik, qalloblik orqali g'arazli maqsadga erishish; 3) odamda ma'lum motivasion holatlarning (hissiyotlar, attityudlar, stereotiplar) faollashuviga olib keladigan kommunikasion ta'sir. Bu ta'sir odamni har qanday xatti-harakatga undashi mumkin. Ayrim mutaxassislarining ta'kidlashicha, *manipulyasiya* - psixologik ta'sir turlaridan biri hisoblanib, kishini ma'lum xatti-harakatlarni amalga oshirishga bilvosita undash orqali bir tomonlama yutuqqa erishish maqsadida foydalaniladi. Axborot asrida boshqa kishilarning ongi va qalbiga yashirin, g'araz maqsad bilan ta'sir ko'rsatishni ifodalashda manipulyasiya so'zi «obyekt ustidan biror maqsadda ish olib borish» ma'nosida ishlatilmoqda. Bunda chaqqonlik, mahorat talab qilinishi ko'zda tutiladi. Shu sababli, "manipulyasiya"ni ko'chma ma'noda "odamlar bilan obyekt sifatida munosabatga kirishish" deb ham tushunish mumkin. Sosiologik tadqiqotlarda bu haqda «boshqalarga bildirmasdan, asl maqsadni yashirin tutgan holda boshqalar ustidan hukmronlik qilib, o'zi istagan hulq-atvorni shakllantirish» deyiladi.

Makon - geosiyosatning asosiy tushunchasi bo'lib, u miqdor va sifat ko'rsatkichiga ega bo'lmagan kategoriya hisoblanadi. Makonning tarkibiy

tuzilishi tarixning tarkibiy tuzilishini oldindan belgilaydi - geosiyosatning fan sifatidagi asosiy tezisi ana shundan iborat.

Ommaviy madaniyat—jamiyatda aholining keng qatlamlari orasida yoyilib, ustuvor bo‘lgan madaniyat. U o‘z ichiga maishiy hayot, qiziqishlar (sport, pop-musiqa), ommaviy axborot vositalari kabilarni oladi. «Ommaviy madaniyat» mohiyatiga ko‘ra aholi aksariyat qismining hayotini tashkil etgan voqea-hodisalar, intilishlar va ehtiyojlar bilan to‘lib toshgan. «Ommaviy madaniyat» o‘z nomi bilan omma, ya’ni ko‘pchilik ehtiyojiga mo‘ljallangan bo‘lib, bu shakl va mazmun standartlashganligi, shuningdek tijorat nuqtai nazaridan muvaffaqiyatga qaratilganlikni taqozo etadi.

Ommaviy axborot vositalari – fuqarolik jamiyatining muhim instituti. OAV demokratiyani chuqurlashtirish aholining demokratik faolligini oshirishda, fuqarolik mamlakat siyosiy va ijtimoiy, madaniy hayotdagi voqealikka nisbatan daxldorlik hissini shakllantirishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati, shuningdek jamiyatda yuz berayotgan barcha o‘zgarishlar, amalga oshayotgan barcha o‘zgarishlar, amalga oshayotgan jarayonlar xususida keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qonunchilikka ko‘ra ommaviy axborotni davriy tarqatishning doimiy nomga ega bo‘lgan hamda bosma tarzda (gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byullitenlar va b.) va elektron tarzda (tele, radio, video, kinoxronikal dasturlar, telekommunikasiya tarmog‘laridagi veb-saytlar) olti oyda kamida beriladigan shakllari OAV sifatida beriladigan shakllari OAV sifatida e’tirof etiladi. XXI asrga kelib OAV davlatning hayotida muhim o‘rin tuta boshladi. Texnika va texnologiyaning taraqqiyoti OAVning xalqaro munosabatlardagi mavqeini o‘zgartirdi. U geosiyosiy nazorat o‘rnatishning kuchli quroliga aylandi.

Pragmatik – o‘z amaliy faoliyatida ko‘proq foyda olishni o‘ylaydigan va shunga ko‘proq foyda olishni o‘ylaydigan va shunga ko‘proq ahamiyat berish zarur deb bilguvchi shaxs.

Periferiya (markazdan chetdagi, uzoqdagi joylar)— strategik poytaxtdan, geosiyosiy nuqtai-nazardan asosiy qarorlarni qabul qiluvchi shaxsdan uzoqda joylashgan, o‘zining mustaqil geosiyosiy yo‘nalishiga ega bo‘lmagan makon va yerni ifodalovchi tushuncha.

Tashviqotda “aqlni yuvish”- Miyani “yuvish” - miyani “yuvish” (*ingl. brainwashing; brain - “miya”; wash - “yuvmoq”, “tozalamoq”*). Bu insonning avvalgi fikrlari, qarashlarini rad etib, unga o‘zgacha yoki butunlay teskari fikrlarni qabul qildirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Ba’zi mutaxassislar buni nazorat ostidagi individuumlarga zo‘rlik bilan o‘tkaziladigan, o‘z fikr-e’tiqodini o‘zgalar fikrlari, qarashlari, hulqi va qarorlarida ustuvorlik qilishini ta’minlashga qaratilgan ruhiy taktika deb hisoblaydilar. Bunda qo‘rqitish, onga ta’sir qilish, doimiy savol berish kabi usullardan foydalaniladi.

Hududiy yaxlitlik - chegaralar daxlsizligi va hududiy yaxlitligi birgina armiyaning harbiy salohiyatini kuchaytirish bilan cheklanmaydi. Davlat hududiy yaxlitligi, uning barqarorligi, xavfsizligi, chegaralari daxlsizligini ta'minlash - uning tashqi siyosiy diplomatiyasi salohiyatiga bog'liq geosiyosiy jarayondir. Amaliyot *davlat chegaralari* rolining geosiyosat vositasi sifatida keskin o'sayotganligini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda insoniyat xarakteriga ko'ra misli ko'rilmagan o'zgarishlarni boshidan kechirishga majbur bo'lmoqda. Bu hol ayniqsa geosiyosiy koordinatlar tizimidagi o'zgarishlarda namoyon bo'lmoqda. Odatda, mazkur o'zgarishlar davlat chegaralarida boshlanadi va kuchli aks etadi. Rasmiy belgilangan chegara bilan konkret davlat yoxud mamlakatlar guruhi ta'sir doirasi o'rtasidagi beqiyos hajmda geosiyosiy ziddiyatlarning o'tkirlashuvi-umumbashariy, mintaqaviy kelishmovchiliklarning kuchayib ketishiga va davlat hududiy yaxlitligiga tahdidga olib kelishi mumkin.

Kiberterrorizm (lot, cyber terrorism; cyber - "kiber", terror – "qo'rquv", "dahshat") – zamonaviy, ilg'or texnologiyalar, kompyuter va boshqa imkoniyatlardan foydalangan holda yovuz kishilarning o'zining g'araz niyatlariga erishishdan iborat. Kiberterrorizm (kompyuter terrorizmi) ostida g'arazli niyatda, siyosiy maqsadlarda amalga oshirilgan kompyuter tizimi va tarmog'idagi axborotga qilingan hujum tushunilib, u odamlar hayoti va sog'lig'iga xavf paydo qilib, jamoatchilik tinchligini buzadi, aholini qo'rqitib, harbiy nizo keltirib chiqarishga intiladi. Kiberterrorizm insoniyat uchun jiddiy xavf bo'lib, uni yadro, bakteriologik va kimyoviy qurolga tenglashtirish mumkin. Hatto u o'z yangiligi tufayli to'la-to'kis o'rganib ulgurilmagan quroldir.

Kuchlar muvozanati- turli davlat va guruhlarining qudratiga bog'liq o'zaro aloqadorlikdan kelib chiqadagan hamkorlikning natijasida paydo bo'ladi. Kuchlar muvozanati – teng vaznlilik emas, balki dinamik ravishda turli o'yin elementlaridan kelib chiquvchi kuchlar munosabatidir. "Darvoza mamlakat" tushunchasi orqali qulay sharoitga ega bo'lgan o'rta miqyosdagi davlatning turli geosiyosiy bloklar mahoratlaridan unumli foydalanishi, mintaqadagi kuchlar nisbati muammosi – hozirgi xalqaro jurnalistik tahlillarning asosiy mavzusi.

Ko'p qutbli dunyo - bu bir qancha ulkan makonlarning birgalikda mavjud bo'lishini nazarda tutuvchi zamonaviy sof nazariy majmua. Bu holat faqat bir qutbli dunyo bartaraf etgilgandan keyingina bo'lishi mumkin.

Komillik – insonning kamolotga erishuv jarayonidagi barkamolligi darajasini ifodalovchi tushuncha. Komillikning har bir davrga xos mezonlari mavjud. Nodonga nisbatan oqil, loqaydga nisbatan sergak, baxilga nisbatan saxiy, tanbalga nisbatan serg'ayrat, qo'rqoqqa nisbatan botirlik kabi xislatlar o'ziga xos o'lchov vositasini o'taydi.

Siyosiy borliq — bu geosiyosatning asosiy kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Siyosiy jurnalistikada davlat (kuch) geosiyosatning markaziy tushunchalaridan biri hisoblansa, siyosiy borliq davlatning siyosiy holati va hayotiy mazmunini ko'rsatib beruvchi muhim omil tariqasida aks etadi. Siyosiy borliqda davlatning turmush tarzi namoyon bo'ladi. O'z navbatida jurnalistikada borliq tushunchasi geosiyosat nazariyasining asosi, uning har qanday davlatda chegaralanganligi bilan aks etib bormoqda.

Siyosiy geografiya – F. Ratsel tomonidan ilgari surilgan atama hisoblanib, Chellen tomonidan nomlangandan keyin ochig'i «geosiyosat» deb nomlanadigan bo'ldi.

Separatizm - chekka hududlarning muxtoriyatiga moyillik, uning iqtisodiy, madaniy, siyosiy va strategik singari bir qancha shakllari mavjud.

Tashqi taxdidlar – tashqi tahdidlar asosan g'oyaviy bo'shliq tufayli sodir bo'ladi

Targ'ibot (arab. qiziqtirish, tarqatish) – 1) keng ma'noda, ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib etishdir. Targ'ibot jarayonida fan, san'at, siyosiy va mafkura yutuqlari keng ommalashtiriladi, boyitiladi va yanada rivojlantiriladi. 2) tor ma'noda, mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyat. Targ'ibot ilmiylik, konkretlik, obe'ktivlik, ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liqlik tamoyillariga asoslanishi, tashkiliy jihatdan uyushgan bo'lishi lozim. Muayyan zamin va makonda ma'lum bir strategik-nazariy masalalarni aholi ongiga izchil singdirishni maqsad qilgan faktor targ'ibotdir. Targ'ibot – biror g'oya, ta'limot, fikr va qarashni aholi o'rtasida keng yoyish, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan, aniq maqsadni ko'zlab olib boriladigan tushuntirish va da'vatni, odamlarni muayyan bir vazifani hal qilish, ma'lum bir tartib-qoidalar asosida yashash, mehnat qilishga ma'naviyruhiy tayyorlash, g'oyaviy ruhlantirish, safarbar qilishni anglatadi.

Umuminsoniy qadriyat – barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, moddiy va ma'naviy manfaat, mezonlar majmui.

Umumbashariy – butun dune, barcha davlatlar va xalqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo'lmagan muammolarga aytiladi.

Imperiya – diniy, axloqiy, siyosiy- mafkuraviy xarakterdagi universal g'oya ostida bir necha davlat yoki xalqlarni birlashtiruvchi umumdavlat tuzilmasi.

Integrasiya – geosiyosatda bir nechta hududiy bo'laklarni birlashishni ifoda etuvchi ko'pqirrali shakl. Integrasiya harbiy bosqinchilik yo'li bilan ham, tinch yo'l bilan ham amalga oshirilishi mumkin. Geosiyosiy integrasiyaning bir

qancha – iqtisodiy, siyosiy, madaniy, til, strategik, diniy va hakoza yo‘llari mavjud. Ularning barchasi yagona mazmundagi yakuniy natijaga – blokning strategik jihatdan yuksalishiga va hududiy jihatdan kengayishiga olib keladi.

Feminstlar-ayollarni kamsitishlardan xalos etuvni targ‘ib qiluvchi, ularning mavqeini jamiyatdagi ijtimoiy voqealar hosilasi sifatida targ‘ib qiluvchi oqim.

G‘arb individualizmi- inson shaxsiy hayotining alohidaligini, shaxs xuquqlarining mutlaqligini ifodalovchi axloqiy xususiyat. Individualizm alohida shaxs manfaatlarini jamoa manfaatlairidan utun ko‘radi, oila manfaatini jamiyat manfaatidan alohidalikda olib qaraydi. Bugungi kunda jamiyatda ayrim kishilar faqat o‘zini o‘ylashlik ruhiyati bilan bog‘liq sosial ma‘naviy holatlar g‘arbona individualizmdan ozuqa olmoqda. Bunda o‘zgalardan ustun qo‘yish, boshqalarni mensimaslik, shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan ustun qo‘yish illatlari yetakchi o‘ringa chiqadi.

G‘oyaviy tarbiya – jamiyatdagi mavjud g‘oyalarga faol munosabat, faol hayotiy pozisiyani shakllantirishdir. G‘oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi.

G‘oyaning turli ko‘rinishlari – Mazmuni va namoyon bo‘lish shakliga ko‘ra – ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy g‘oyalarga bo‘linadi.

Shovinizm – millatchilikning o‘ziga xos shakli, boshqa millatlarni mensimaslik va o‘z millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan g‘oyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyoti

Fundamentalizm – ma‘lum din vujudga kelgan ilk davriga qaytish va bu yo‘l bilan zamonaning barcha muammolarini hal qilish mumkin degan fikrni ilgari surish

Yurt tinchligi – mamlakat barqaror taraqqiyotining asosiy sharti. Tinchlik –insonning hayotiy ehtiyoji, emin-erkin yashashi va kamol topishining eng zarur omilidir

Ijtimoiy xamkorlik – turli millat, irq va dinga mansub kishilar va guruxlarning umumiy maqsad yo‘lidagi hamjihatligi

Ekstremizm – O‘z maqsadi yo‘lida har qanday keskin tadbir-choralar ko‘rishga tarafdorlik.

E‘tiqod – Dunyoqarash. Biror dinga e‘tiqod qilish – uni haq deb bilib, uni ta‘limotini tan olish.

Qadriyat – umumbashariy, umuminsoniy, milliy, mintaqaviy, shaxsiy, diniy turlarga bo‘linadi.

Fuqarolik jamiyati – iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy hayot sohasiga to‘g‘ri keladigan tushunchadir. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy

sohasi ko‘lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari ham mansubdir.

Ehtiyoj – inson talablari asosida paydo bo‘ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlarga, uning shularga bog‘liq ekanligini ifoda etuvchi holat.

Sharqona demokratiya - urf-odat, qadriyatlarga asoslangan o‘ziga xos demokratiya.

Irqchilik – odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy tengsizlik, bosqinchilik, zo‘ravonlik va urushlarni kishilarning turli irqilariga mansubligi bilan oqlashga xizmat qiluvchi g‘ayrimilliy ta‘limot. Irqchilar insonlarning ijtimoiy mohiyatini ularning biologik – irqiy (ko‘zi, sochi va terisining rangi, bosh va yuz tuzilishi kabi tashqi, ikkinchi darajali jismoniy) belgilar bilan bog‘lab, ularni oliy va quyi, bekamuko‘st va noraso irqilarga ajratadilar.

Fanatizm – Biron g‘oyaga, shaxsga uning mazmunini, mohiyatini chuqur anglamasdan johillarga ishonish va unga ergashishdir va u hayotda turli sohalarda uchraydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-JILD / SH.M. Mirziyoyev. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 592 b.

2. Mirziyoyev SH.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-JILD / SH.M. Mirziyoyev. – T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

3. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-JILD / SH.M. Mirziyoyev. – T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 592 b.

4. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 488 b.

5. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 592 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovasion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabr “Ilmfanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

SH. Maxsus adabiyotlar

19. David Spencer "Gateway", Students book, Macmillan 2012.
20. English for Specific Purposes. All Oxford editions. 2010. 204.
21. H.Q. Mitchell "Traveller" B1, B2, MM Publications. 2015. 183.
22. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni "PIONEER", B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
23. Lindsay Clandfield and Kate Pickering "Global", B2, Macmillan. 2013. 175.
24. Muhammadsiddiqov M.M. Musulmon mamlakatlari va zamonaviy xalqaro munosabatlar. O'quv qo'llanma. – T.: Qaqnus media, 2019. – 226 b.
25. Muhammadsiddiqov M.M. Xorijiy Sharq va G'arb mamlakatlarida ijtimoiysiyosiy jarayonlar. Darslik. – T.: Qaqnus media, 2019. – 216 b.
26. Muhammadsiddiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. Darslik. – T.: Qaqnus media, 2019. – 207 b.
27. Muhammadsiddiqov M.M., Azimov H.Y. Sharq mamlakatlari xalqaro munosabatlari. O'quv qo'llanma. – T.: Qaqnus media, 2019. – 207 b.
28. Steve Taylor "Destination" Vocabulary and grammar", Macmillan 2010.
29. Asekretov O.K., Borisov B.A., Bugakova N.Y. i dr. Sovremenniy obrazovatelniye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. – Novosibirsk: Izdatelstvo SRNS, 2015. – 318 s. <http://science.vvsu.ru/files/5040BC65-273B-44BB-98C4-CB5092BE4460.pdf>
30. Belogurov A.Y. Modernizatsiya prosessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKSS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
31. Bito'rayev O'B. Siyosatshunoslikka kirish. – T.: ToshDShI, 2017.
32. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.
33. Yovqochev SH.A. Jahon siyosatida islom omili. –Toshkent.: ToshDShI, 2016.
34. Jumayev R. Z. Konfliktologiya. –Toshkent.: ToshDShI, 2018.
35. Jumayev R.Z., Yovqochev SH.A. Siyosiy texnologiyalar. –Toshkent.: ToshDShI, 2019.
36. Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: "Lesson press", 2020. 112 bet.
37. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf
38. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
39. Madaminova D.I. Jahon siyosati. – Toshkent, 2019. – 228 b.

40. Muslimov N.A va boshqalar. Innovasion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

41. Mustapova H. I., Bito'rayev O'.B. Xalqaro munosabatlar nazariyasi. . – Toshkent.: ToshdSHI, 2017.

42. Oliy ta'lim tizimini raqamli avlodga moslashtirish konsepsiyasi. Yevropa Ittifoqi Erasmus+ dasturining ko'magida.

https://hiedtec.ecs.uni-ruse.bg/pimages/34/3._UZBEKISTAN-CONCEPT-UZ.pdf

43. Sayfullayev D.B. Mustaqillik davrida O'zbekiston diplomatiyasining shakllanishi va rivojlanishi. – Toshkent, 2016.

44. Sayfullayev D.B. O'zbekiston diplomatiyasining shakllanish tarixi (1991-2016). – Toshkent.: ToshdSHI, 2018.

45. Sayfullayev D.B. Xorijiy davlatlar diplomatik xizmati. – Toshkent.: 2018.

46. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish. O'quv qo'llanma. T.: “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. 120 bet.

IV. Internet saytlar

47. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi:
www.edu.uz.

48. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz

49. [www. Ziyonet. Uz](http://www.ziyonet.uz)

50. Otkritoye obrazovaniye. <https://openedu.ru/>

51. www.ut.uz

52. www.to.uz

53. www.mtrk.uz

54. www.uzbekiston.uz

55. www.jb.uz

56. www.tafakkur.uz

57. www.ppch-uzbekiston.uz

58. www.yoshlar.uz

59. www.ijtimoiyfikr.uz

60. www.informanalytic_ru

61. <http://daily.sec.ru/dailypblshow.cfm>

62. www.ase.md

63. <http://www.phreaking.ru/showpage.php>

QO‘SHIMCHA FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T.: “O‘zbekiston”, 2003.
2. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T., «O‘zbekiston». 2017. – 104 b;
3. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T., «O‘zbekistn». 2016. – 56 b;
4. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi. T., «O‘zbekiston». 2017. – 48 b;
5. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. T., «O‘zbekiston». 2017. – 488 b;
6. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. T., «O‘zbekiston». 2019. – 400 b;
7. Abu Nasr Forobiy. “Fozil odamlar shahri”. -T.: £.£ulom Adabiyot va san’at nashriyoti, 1993.
8. Abdulla Avloniy. “Turkiy guliston yoxud axloq”, -T.: 1994.
9. Aknazarov D.F., Abduraximov I. Puti i sredstva aktivizatsii potentsiala upravleniY. M.:2002.
10. Atamanchuk G.V. Gosudarstvennoye upravleniye (oranzasionnofunksialniye voprosi). Uchebnoye posobiye. -M.: “Ekonomika”, 2000.
11. Artemyeva T.V. Filosofiya ne umstvennaya, a serdechnaya i chuvstvitelnaY. //Voprosi filosofii. “Nauka”. 2005. №1.
12. Bay YE. Odin raz v polveka. //Izvestiya, №104. 2002, 20 iyunY. S.9.
13. Boliyev A. Rahbar ma’naviyati. -T.: “Ma’naviyat”, 2002.

14. Bizyukova I.V. Kadri upravleniya podbor i osenka. Uchebnoye posobiye. M.:1998.
15. Belyayev A.A., Korotkov E.M. Sistematsologiya orzanasii. Uchebnik / pod.red.E.M.Korotkova. M.:2000.
16. Vasilyev V.I. Mestnoye samoupravleniye. M.: 2003.
17. Voprosi filosofiY.. T.5,6,7.. M.: 2003.
18. Valiyev B. Iqtisodiy madaniyat. //Jamiyat va boshqaruv. 2003 yil 4son
19. Velkov Y.YE. Sosailnoye upravleniye kak vid upravlencheskoy deyatelnosti v obshestvennix sistemax. //Sotsialno-politicheskiy jurnal. 1997. №3.
20. Gegel. "Filosofiya prava". M.: 1997.
21. Gosudarstvennaya slujba: teoriya i organizasiY. Kurs leksiy. -M.: Rostov-na-Donu, 1998.
22. Gosudarstvennaya slujba (kompleksniy podxod). Uchebnoye posobiye. M.: DELO, 1998.
23. Yermakov V.M. Obraz jizni v sisteme sotsialnogo upravleniY. -M.: Kurskiy gosudarstvenniy pedogogicheskiy institut, 1993.
24. Jahon falsafasi. Tuzuvchi va mas'ul Nazarov q. -T.: Faylasuflar Milliy jamiyati nashriyoti, 2004.
25. Jurayev A. Prosess stratifikasii obshestva i obrazovaniya srednego klassa v Uzbekistane. SA i K, 2002, №2(20), S.170-178.
26. Jo'rayev S.A. Fuqarolik jamiyati: nazariya va amaliyot. -T., "Toshkent Davlat sharqshuoslik instituti" nashriyoti, 2003.
27. Karnegi D. Kak zavoyevat družey i okazivat vliyaniye na lyudey. M.: 1991.
28. Korotkov E.M. Issledovaniye sistem upravleniY. M.: 1996.
29. Knoring V.I. Iskusstvo upravleniY. Uchebnik. M.1997.

30. Kardanskaya N.P. Osnovi prinyatiya upravlencheskix resheniy. Uchebnoye posobiye. -M.: BEK, 1998.
31. Kochetkova A.I. Psixologicheskiye osnovi sovremennogo upravleniya personalom. 1999.
32. Kapustin P.A. Upravlencheskoye konsultirovaniye dlya rukovoditeley. 2000.
33. Konfusiyy. Izrecheniye. 2001.
34. Kagan M. S. Chelovek kak problema sovremennoy filosofii. <http://anthropology.ru/ru/texts/kagan/man.html>
35. Èð èèëîñîèèè. ×ãñòü 1.Ì.: 1991.
36. Margarit T.CH. Iskusstvo upravleniya gosudarstvom. per.s.angl. M.: 2003.
37. Nazarov q. qadriyatlar falsafasi (Aksiologiya). -T.: Faylasuflar Milliy jamiyati nashriyoti, 2004.
38. Nazarov q. ÷arb falsafasi. Tuzuvchi va mas'ul -T.: "Sharq", 2004.
39. Obshaya teoriya upravleniY. M.: 1994.
40. Prigojin A.I., Stengers I. Poryadok iz xaosa. M.:1986.
41. Prigojin A.I. Sovremennaya sosiologiya organizasiy. M.: 1995.
42. Problemi sovremennoy filosofii. <http://www.reflist.ru/doc/11333.shtml>
43. Rahbar va xodim. (To'plam) -T.: "Akademiya", 1998.
44. O'çáâèèñîííää èæòèìèèé-òàèñàòèé èèèðèäð òàðèèèääí. -Ò.: "Universitet", 1995.
45. Sekreti umelogo rukovoditelY. M.: 1991.
46. Sosialnoye upravleniY. Slovar. 1994.
47. Smirnov E.A. Organizasiya organizasii. M.: 1996.
48. Skirbekk G., Gilye N. Falsafa tarixi. -T.: "Sharq", 2002.

49. Stepanyans M. Vostochnaya filosofiya: Vvodniy kurs. 2001.
50. Sovremennoye upravleniye. Ensiklopedicheskiy spravochnik. Tom v vtoroy.1997.
51. Sovremennaya filosofiya. http://philos.nsu.ru/classics/histphil_3.html
52. Sosialno-filosofskiye aspekti regulirovaniya i puti optimizatsii upravleniya http://www.ncstu.ru/content/_docs/pdf/conf/past/2003/xxxii/06/07.pdf
53. Suvorova A.N. Vvedeniye v sovremennuyu filosofiyu. <http://www.philosophy.ru/edu/ref/suvorova/00.html>
54. Svyazi s obshestvennostyu v politike i gosudarstvennom upravlenii. 2001.
55. Shanxolov F. Teoriya gosudarstvenno upravleniya. M.: 2002.
56. Tixonravov Y.V. Teoriya upravleniya. Uchebniy kurs. 1997.
57. Upravleniya sotsialnoy sfery. Uchebnik. Pod.red. B.E.Gording. 1998.
58. Udalova M.V., Averchenko L.K. Sociologiya i psixologiya upravleniya. M.:1998.
59. Usmonov M., Karimov R., Yo‘ldoshev S. Yangi va eng yangi davr G‘arbiy Yevropa falsafasi. –T.: 2002.
60. Ôàèñàôääàí ââúç ààòíèàðè. -Ò.: 1995.
61. Franchuk V.I. Osnovi sovremennoy teorii organizatsii. M.: 1995.
62. Falsafa asoslari. Tuzuvchi va mas‘ul Nazarov q. T.: “Sharq”, 2005.
63. Filosofiya v sovremennom mire. <http://www.spa.msu.ru/spa.php?inform/depspa/philmnet/VolkogonovaOD/lectures/lec1>
64. Franchuk V.I. Osnovi obshey teorii sotsialnogo upravleniya <http://socio-org.narod.ru/OTCY.htm>
65. Ergashev I., Sharipov B., Jakbarov M. Jamiyatni erkinlashtirish va ma‘naviyat. -T. “Akademiya”, 2002.
66. Ergashev I. Siyosat falsafasi. -T.: “Akademiya”, 2004.

67. Ergashev I. Demokratiya - milliy va umumbashariy qadriyat // Jamiyat va boshqaruv, 2004 yil 1-son.
68. Ergashev I. Demokratiya va jamoaviy ong munosabati: uydirma va haqiqat // Jamiyat va boshqaruv. 2004 yil 4-son.
69. Yaxontova YE.S. Effektivnost upravlencheskogo liderstva. 2002.
70. Haqiqat manzaralari. 96 Mumtoz faylasuf. –T.: “Yangi asr avlodi”, 2002.